Maktabgacha ta’lim va maktab yoshida o‘yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg‘uloti bo‘lganligi tufayli bola atrof olamni ham o‘yin orqali kashf etadi. Agar xorijiy tillarni ham o‘yinga qorishtirgan holda o‘rgatilsa bu til ko‘nikmalarining o‘zlashtirilish samaradorligini bir necha barobarga oshiradi. Didaktik o‘yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi, shuningdek ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar bolani o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashiga, atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ham kata yordam beradi. Shu sababli ota-onva va o‘qituvchilar bolalarga imkon qadar ko‘proq didaktik o‘yin orqali o‘rganishni targ‘ib qilishlari kerak. Aynan didaktik o‘yin orqali bolalar ta’lim oladilar va o‘z iqtidorini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan visual, eshitish, kinestetik kabi faol ta’lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta’limiy o‘yinlar musiqa asboblarini chalish, qo‘sishlar kuylash, she’r aytish,,raqsga tushish, o‘yin o‘ynash, videolar tamosha qilish, qo‘l mehnati vositasida turli narsalar yashashni o‘z ichiga oladi. [2]<sup>2</sup>

Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo‘lgan davrda bola chet tilini oson o‘zlashtirishi bo‘yicha yakdil fikr bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas, balki mexanik tarzda o‘rganadi.. Shuning uchun xorijiy tilni qo‘llanilishi va talaffuzi oson oson o‘zlashtiriladi. Ammo shunday bo‘lsada bolaning har qanday tilning tovushlari taqlid qilish qobiliyati bilan tug‘ilishini hisobga olsak, bu jarayonni ertaroq boshlash fikrdagilar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi.. Inson miyasini o‘rganilish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, chaqaloq tug‘ilishdan uch yoshigacha bo‘lgan davr bola rivojlanishining eng muhim davri ekanligi isbotlangan. [3].<sup>3</sup> Shuningdek uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagي odam miya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarning fikricha, bolaning birinchi yildayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson

<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida” PQ-1875-son Qarori

<sup>2</sup> Turdaliyeva G.N “ Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsionlar” 2020

<sup>3</sup> <https://www.cde.ca.gov/sp/cd/re/caqdevelopr ages and Stages of Development>

o'zlashtirishga yordam bo'lishini ta'kidlashdi. Ammo har qanday holatda ham bolaning psixalogik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unitmasligimiz kerak.

Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga ma'suliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin.

Birinchi sinf o'quvchilari rasmli yoki videoli turli ko'rinishlari juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali ,ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlaradan muntazam foydalanim turish lozim. Masalan,Bu jarayonida bolalarning so'zlarini eslab qolishi ,tug'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib boorish zarur. Bolalarning so'z boyliklari ortib borishiga qarab boshqa turdag'i o'yinlar,turli xil musobaqalar nitashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab "Meva nomlari", "Kasblar", "Uy jihozlari", "Ranglar", "Oila a'zolari", "Sonlar", "Fasllar", "Inson tana a'zolari" mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish mumkin. So'ngra ular kompyuterdag'i rang-barang tasvirlariga uyg'un holatda ko'rsatilsa,o'quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda so'zlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo bo'ladi.O'quvchilar so'zlarni tinglab ,ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ikkinci sinfdan boshlab grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni tashkil etish mumkin. Masalan, "Kim savodxon?", "Kim zukko?" o'yini, "Men kimman", "Zanjir", "Rolli o'yinlar", "So'z o'rnini top" kabi qiziqarli o'yinlar shular jumlasidandir. [4]<sup>4</sup>

Ko'rib orqali eslab qolish-Ma'lumki ,yosh bolalar eshitgan ma'lumotlardan ko'ra,ko'proq ko'rgan predmetlarni eslab qolad. Shunday ekan,darsni turli xil ko'rgazmali qurollar ,plakatlar orqali ,ko'zga ko'rindigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa ,buyumlarga yozishorqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rganagan yangi so'zlarni ishtiropkida gaplar tuzish.masalan,kitob (book),stol (table), doska (blackboard), ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish.Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa –buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanilishi bois,bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi.

Qo'shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash.Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga ,bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi.Bunga misol qilib,bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali akanligini ko'rsatish mumkin.

<sup>4</sup>Iriskulov A.T va boshqalar Kids'English pupils'book 2-sinf-Toshkent-O'zbekiston;2014

TO raqobatdosh grammatika va so‘z boyligini o‘zlashtirishga yordam beradigan o‘yinlarning aksariyatini o‘z ichiga oladi.Bunda bolalar o‘qituvchi bergen turli xil topshiriqlarni bajaradi.Natijada o‘quvchilar orasida raqobat vujudga kelib,til o‘rganishga bo‘lganqiziqishni yanada oshadi.Zero ,Xitoy mutafakkirlari aytganidek: “Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi”.

Aralash texnika bu yerda ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz.Masalan,bunda bolalar o‘yin o‘ynashi ,qo‘shiqlar aytishi,rasm chizishi,turli xil harakatlar orqali yangi so‘zlarni ko‘rsatib berishi mumkin.Texnikaning afzalligi xilmay-xillikda.Bunda o‘quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

Multifilmlar orqali o‘rgatish.Ma’lumki,bolalar turli xil multifilmlarni ko‘rishga qiziqadi.Ingliz tilidagi multifilmlarni ko‘rish jarayonida esa,multifilmdagi gaplarni tushunmasa-da ,multifilm qahramonlariningharakatlari orqali ular ishlatayotgan so‘zlarni tushunishga intiladi.Bu esa bolalar uchun qiziq va til o‘rganishlari uchun samarali yo‘l.

Qiziqarli o‘yinlar orqali o‘rganish;Ingliz tili fani o‘qitishda turli xil o‘yinlar orqali o‘rgatishning o‘rnini beqiyosdir.Dars davomida har xil o‘yinlar o‘ynatib turish sinfda fanni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshiradi,faol bo‘lmagan o‘quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi.Quyidagi o‘yinlar so‘zimizga misol bo‘la oladi.

“Quvnoq topishmoqlar” ( Merry Riddles ) o‘quvchilarga topishmoqlar o‘rgatish ingliz tilini o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega ,ular o‘zlariga notanish bo‘lgan so‘zlarni o‘rganadilar va o‘ylab topishmoq javobini topadilar.

Pantomima (pantomime).Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga biron bir so‘zni aytadi va o‘quvchi uni ko‘rsatadi.Qolgan o‘quvchilar esa so‘zni topib ,inglizcha nomini aytishi kerak bo‘ladi.

Sezgi a’zolari orqali o‘rganish ( sabzavot ,mevalar,oziq-ovqatlarni tatib ko‘rish ,turli xil buyumlarni ushlab ko‘rish ,gullarni hidlab ko‘rish).Ushbu yangi metodni o‘rganishdanoldin bir amaliyotchi psixologning fikrlarini keltirish kerak: “ Bolalarning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagogik bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini ko‘zi,qulog‘i,tovush organi,muskul sezgisi hatto,hidlash va ta’m bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilish kerak .

“So‘z o‘yinini top” o‘yinida so‘zlarning o‘rnini almashtirib qo‘yiladi hamda so‘zlarni o‘z o‘rniga to‘g‘ri qo‘yish orqali hosil qilinadi. “To‘plam” o‘yini ma’lum bir mavzu asosida o‘quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi.O‘yin qatorlar musobaqasi yoki kichik guruhlarda ishlash shaklida tashkil etiladi.Masalan,belgi bildirgan so‘zlarni toping deb, guruhlarga topshiriq beriladi.Berilgan vaqt ichida qaysi guruh ko‘ptopa olsa g‘olib bo‘ladi.

“Rasmlı” o‘yin .O‘quvchilar Present Continious takibini yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun rasmlı o‘yinni qo‘llash mumkin.O‘quvchilarga hali ko‘rmagan rasmlaridagi personaj nimaqilayotganini toppish taklif etiladi.Masalan,P1: Is the girl sitting at the tabl? P2 :No,she is not

Rasmida ifodalangan harakatni to‘g‘ri topgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.u boshlovchi bo‘lib boshqa rasmini oladi.

“Rasmdagi gaplar ”o‘yini.Bu o‘yin grammatic formalarini mashq qildirish uchun yaxshi ko‘rgazmali vosita hisoblanadi.Kartalarda odamni qandaydir harakatlarini ifodalovchi bir necha rasmlar bor.O‘qituvchi rasmlı kartalarni ko‘rsatadi.( bola konkida uchyapti) va so‘raydi:What is he doing? O‘quvchilar o‘zlarida xuddi shunday rasmni topadilar va javob beradilar.He is skating.[5]<sup>5</sup>

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til o‘rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o‘yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1875-son Qarori
2. Turdaliyeva G.N “ Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsionlar”2020
3. <https://www.cde.ca.gov/sp/cd/re/caqdevelopr> ages and Stages of Development
4. Iriskulov A.T va boshqalar Kids’English pupils’book 2-sinf-Toshkent-O‘zbekiston;2014
5. Qurbanaliyeva N “ Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning innovatsion usullari”2020

---

<sup>5</sup> Qurbanaliyeva N “ Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishning innovatsion usullari”2020

## ГАТ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ТОПОГРАФИК КАРТАЛАРДА РЕЛЬЕФНИ ТАСВИРЛАШ

**С.Н.Абдурахмонов**

“ТИҚХММИ” миллий тадқиқот университети доценти PhD.,

**Д.Ф.Бердиев**

Қарши мұхандислик иқтисодиёт институти

**Ф.С.Сафаров**

“ТИҚХММИ” Миллий тадқиқот университетининг  
Қарши ирригация ва агротехнологиялар институти

**Қ.Х.Ниёзов**

Мустакил тадқиқотчи “Ўздаверлойиха” ДИЛИ  
Фарғона бўлинмаси директори

### АННОТАЦИЯ


План, карталарда рельефни тасвирлаш кўп жиҳатдан карта ва планлар мазмуни бўйича барча қолган элементларнинг тавсифини аниқлайди. Рельефни етарли аниқликда тасвирламасдан ва уни план, карталарда муфассал ўрганмасдан, ландшафтнинг алоҳида элементлари орасидаги боғланишини ўрганиш, шунингдек табиий ресурслардан самарали фойдаланиш мумкин эмас. Ушбу мақолада топографик карталарда рельефни ГАТ асосида яратишдаги қулайликлари ҳақида ёритилган.

**Калит сўзлар:** План, карта, ГАТ, Google Earth, ArcToolbox, Special Analysis, .pgx, рельеф, горизонталлар.

**Кириш.** Горизонталлар рельефнинг алоҳида шакллари ва элементларининг планли қўринишини математик аниқ ифодаланишига имкон беради. Улар орқали нишабликни, қиялик бурчагини ва пасайишлар йўналишини аниқлаш мумкин. Ушбу масалалар рельефни горизонталлар ёрдамида тасвирлаш усулига тааллуқли хоссалар мажмуалари асосида ечилади. Топографик карта ва планларда рельеф горизонталлар ёрдамида кўрсатилади. **Горизонталлар-** баландлиги бир хил нуқталарни туташтирувчи эгри чизиқларга айтилади.


**Горизонталлар** бир-биридан қабул қилинган сатхий сиртдан, **рельеф кесими баландлыги** деб номланадиган берилгап вертикал оралиқда бўлади.

Ер сиртининг баланд-пастликларига рельеф дейилади. Жойнинг рельефи баландлик ва пастликларга бўлинади. Топографик карта ва планларда рельефни тасвирлашда жой нуқталари баландликларини тез топиш, ён бағир йўналишлари ва тикликларни аниқлаш мумкинлиги ва тасвирланган жой рельефи ҳамда унинг айрим шаклларининг ўзаро жойлашиши тўғрисидаги яхши тушунча олиш шартлари қўйилади. Рельефни тасвирлаш учун ер юзасининг ўзига хос нуқталари ҳамда чизиқлари йўналиши бўйича нуқталарнинг баландликлари топилади, уларнинг ҳаммаси картада кўрсатилса, уни ўқиш қийин бўлади. Шу сабабли юқорида санаб ўтилган шартларни қаноатлантириш учун рельефни тасвирлашда нуқталар бландликларидан айримларини ёзиш билан биргаликда горизонталлар усули қўлланилади.



**1-расм. Рельефнинг асосий шакллари**


ГАТ дастурий таъминотларида топографик карталарда рельеф яратиш энг мураккаблиги билан бирга масъулиятли иш ҳисобланади. Бунинг учун биз аввало ҳудуднинг географик жойлашувини аниқлаб олган ҳолда жойни Google Earth программасидан аниқлаб оламиз. Ҳудуд бўйлаб отметка точкаларини “Создать путь” буйруғи орқали ҳосил қилиб оламиз. (3-расм.)



**2-расм. Google Earth дастуридан отметка маълумотларини олиш**

Сўнгра ҳосил бўлган отметкали чизикни .kml форматида сақлаб оламиз.

(3-расм)




**3-расм. Google Earth дастуридан олинган маълумотни сақлаш**



**4-расм. Google Earth дастуридан олинган маълумотни конвертация қилиш**


Сўнгра ҳосил бўлган .kml форматидаги файлни ArcMap иловасида очиб олишимиз учун <https://www.gpsvisualizer.com/> ҳаволаси орқали конвертатсия қилиб оламиз. (4-расм)

Хосил болган .gpx форматдаги файлни ArcMap иловасининг ArcToolbox буйруқлар панелидаги Conversion бўлимининг “from gpx” буйруғи орқали очиб оламиз (5,6-расм)




**5-расм. Конвертация қилинган маълумотни ArcMap иловасига қўшиш**


Сўнгра Special Analysis буйруqlар бўлимидан итерполяция усулида нуқталарнинг баландлик қийматларидан фойдаланиб жойнинг баландлик моделини хосил қиласиз. (7-расм)



**6-расм. Маълумотнинг ArcMap иловасига қўшилган қўриниши**



**7-расм. Олинган маълумотлар асосида яратилган жойнинг баландлик модели**



**8-расм. Яратилган баландлик модели асосида горизонталлар ҳосил қилиш**

Сўнгра Special Analysis буйруқлар бўлимидан бир ҳил баландликка эга нуқталарни бирлаштириб горизонталларни хосил қилиб оламиз (8-расм).

Натижада бизда тадқиқ этилаётган худуднинг рақамли топографик карта рельефи хосил бўлди.

**Хулоса.** Картографияда тадқиқотлар картографик усулига алоҳида эътибор қаратилади, яъни тузилган карталардан амалий ишларни бажаришда фойдаланишига. Бугунги кунда илмий-маълумотномали карталаштириш турли иқтисодий соҳаларга кириб бормоқда – аҳоли, саноат, қишлоқ хўжалиги ва ҳ.к. Бу ишларни бажариш учун барча маълумотлар очиқ бўлиши, карталаштириш ишларига ГАТ ва математик методлар, автоматлашган воситалар жалб қилиниши жуда зарур. Ҳудудий томонлама ривожланишида карталаштиришни бутун давлат миқёсида ва регионал босқичда олиб бориш эҳтиёжи сезилмоқда. Регионал босқичда ишлар тез ривожланиши мумкин, чунки ҳар бир ҳудудий бўлиниш бўйича иқтисодий қўрсаткичлар тез ўзгармоқда, регионлар орасида ўзига ҳос иқтисодий алоқалар ўрнатилмоқда.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзалиев Т. **Картография.** Тошкент, Ўз МУ, 2006 й -196 б.
2. Мирзалиев Т., Мусаев И. **Картография.** Тошкент, Зиёнур, 2007 й-160 б.
3. Абдурахмонов С.Н. Карталарни лойиҳалаш ва тузиш фанидан курс ишини бажариш бўйича услубий ўқув қўлланма Тошкент 2018й
6. Мусаев И.М. Абдурахмонов С.Н. Ер тузища компьютер графикаси ва картография. Тошкент 2017й
7. Э.Сафаров Мусаев И.М Пренов Ш. Абдурахмонов С. Табиий карталарни лойиҳалаш ва тузиш. 2018 й
8. **Интернет маълумотлари**  
<https://studylib.ru/doc/4870420/obshhegeografich.karty> <http://geografiya.uz/orta-osiyo-tabiiy-geografiyasi/12079-topografik-xaritalar.html>

## ADABIYOT ILMINING MOHIR MUNAQQIDI

**Abduhamid Xolmurodov,**

NavDPI professori, f.f.d.

[Farkhodnizomov22@gmail.com](mailto:Farkhodnizomov22@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari” bиринчи kitobining ahamiyati, professor Naim Karimov tahlil mahorati haqida fikr yuritilgan. Olimning o‘zbek adabiy tanqidchiligiga qo‘s shgan hissasi haqida xolis ilmiy fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** adabiyotshunoslik, tanqid, mafkura, ijtimoiy, she’riyat, nasr, tashviqot, qatag‘onlar.

### ANNOTATION

The article deals with the significance of the first book “Landscapes of Uzbek Literature of the 20th century”, reflects on the skill of Professor Naim Karimov. I tried to evaluate objectively the scientist's contribution to the development of Uzbek literary criticism.

**Key words:** literary criticism, criticism, ideology, social, poetry, propaganda, reprisals.

### KIRISH

Adabiyotshunoslik, uning tarkibiy qismi hisoblangan adabiy tanqid adabiyot rivoji, badiiy tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida uzoq o‘tmishda yaratilgan M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mezon ul-avzon”, Boburning “Risolai aruz” (“Muxtasar”) asarlari, XX asrga qadar yaratilgan tazkiralar milliy adabiyotimiz tarixini o‘rganish, o‘sha davrlar adabiy jarayoni, ilmiy-nazariy fikrlar taraqqiyotini o‘rganishda beba ho xazinalardir. Hozirgi paytda o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi Sharq-u G‘arb, umuman, dunyo adabiyotshunosligi yutuqlaridan bahramand bo‘lib va ularni o‘zida mujassam etgan holda o‘z milliy zaminida ulkan yutuqlarga erishmoqda. Bu borada adabiyotshunosligmiz tarixida yaratilgan darsliklarning o‘rni katta. Milliy adabiyotimiz atoqli namoyondalari ijodi, ularning yaratgan asarlari, bosib o‘tgan ibratlari umr yo‘li haqida batafsil ma’lumotlar berish, ijodkorning ham shaxsiy, ham ijodiy faoliyatini tushunarli yoritib berilgan darsliklarga esa doimo o‘quvchilarning talabi yuqori bo‘lgan. Atoqli adabiyotshunos olim, mahoratli munaqqid N. Karimov qalamiga mansub “XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari” kitobi ayni shu jihatga to‘la

javob beradi. Ushbu mukammal manbaning birinchi kitobining o‘zida o‘zbek jadid adabiyoti, XX asr so‘nggi va XXI asrda ham barakali ijod qilgan adabiyot sohasining zabardast vakillari haqida ilmiy jihatdan puxta va qiziqarli ma’lumotlar, adiblar ijodiga oid yangi namunalar keltirilgan. Maqolada ayni shu darslik va uning zarur ahamiyati haqida mulohazalar bayon etiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Ushbu maqolani yoritishda atoqli adabiyotshunos olimlar V. Beleniskiy, B.Nazarov, B.Qosimov, Sh. Rizayevlarning adabiyotshunoslikka oid qarash-lari, tahlil etilayotgan darslik muallifining ilmiy mulohazalari va darslikda keltirilgan adabiy parcha va nazariy fikrlarga, internet saytlarida mavzuimizga dahldor o‘rinlariga e’tibor qaratildi. Qiyosiy, tipologik, bir necha manbalardan foydalanib ilmiy ma’ruza tayyorlash kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi.

“Adabiy tanqidning xos xususiyati aniq badiiy asar haqida fikr-mulohaza yuritish, uni baholash bo‘lib, uning jamiyat va inson kamolotidagi o‘rnini belgilashdan iborat. Ayni vaqtda u adabiy jarayon taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi” [3;7], deyiladi “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligida. Ana shu muhim va mas’uliyatli vazifani bajarib kelayotgan o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ayniqsa, XX asrda fan sifatida shakllangan adabiyotshunoslik ilmida ulkan olimlar yetishib chiqdi. Ana shulardan biri nuktadon tanqidchi, zahmatkash olim Naim Karimovdir. Atoqli olim oltmis yildan ortiq ilmiy faoliyati davomida o‘nlab fundamental tadqiqotlar, yuzlab ilmiy maqolalar yaratdi, darsliklar, qo‘llanmalar muallifi bo‘ldi. Olimning ilmiy faoliyatiga “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligida munosib baho berilgan: “U o‘zining Cho‘lpon, Hamza, Oybek, H.Olimjon, U.Nosir, Shayxzoda ijodiga doir tadqiqotlarida asarlarini o‘rganish bilan cheklanmay, ularning ijodiy laboratoriyasiga ham chuqur kirib boradi, har bir san’atkorning xos uslub va mahorati yo‘nalishlarini ilmiy-estetik, tarixiy-ma’rifiy jihatdan chuqur tahlil etadi. Shakldagi go‘zallik bilan kompozitsiyadagi topqirlik, ilmiylikka zid bo‘lmagan erkin badiiy taxayyul N.Karimov tadqiqotlarining o‘ziga xosligini belgilaydi, qiziqarli o‘qilishi va jozibasini ta’minlaydi” [3;263].

Haqiqatan ham, olim ilmiy maqolalarini o‘qigan kishi roman haqida roman, qissa haqida qissa, hikoya haqida hikoya o‘qigandek bo‘ladi, tahlil uslubi, tadqiqotchilik mahoratiga qoyil qoladi. Zahmatkash olim ilmiy asarlarini sanab o‘tish behuda vaqt sarflash, xolos, chunki adabiy jarayon hech qachon uning nazaridan chetda qolmagan, har bir adabiy hodisaga o‘z vaqtida munosabat bildirishda hamisha salaflariga namuna bo‘lib kelayotganliklarini alohida ta’kidlashni istardim. 2008 yilda olimning “XX asr adabiyoti manzaralari” ilmiy asarining birinchi kitobi nashr etildi. Bu o‘zbek adabiyotshunosligi ilmida ulkan voqeа, adabiy tanqid rivojida katta yutuq

bo‘ldi. Tanqidchi, dramaturg va publitsist Shuhrat Rizayevning ushbu e’tirofi kitobning qay darajada ma’rifiy, estetik va ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi: “... o‘tilgan yo‘ldan o‘tishni aslo istamaydigan tom ma’nodagi olim sifatida Naim aka o‘z umrining faylasuf pallasida ilmiy va insoniy jasorat ko‘rsatdi. Shonli va fojeiy bir asrning yaxlit adabiy ham ijtimoiy-ma’naviy manzarasini chizmoqqa jazm etdi. Chizganda ham qiyofalarni aniq, ranglarni tiniq qilib, har bir hodisa va voqeanning qonuniy joy-joyini ko‘rsatib, hech narsani xaspo‘shamay, itoatkor andishaga, mute mulohazalarga bormay, fikriy mustaqillik, ilmiy xolislik va, yana muhimi, nazokat va fasohat bilan yuz yillik adabiy hayotning mahobatli manzarasini yaratdi” [4; 4-5].

Mazkur kitob mukammal fundamental ilmiy manba hamdir. Muallif butun asar davomida har bir ijodkor haqida ma’lumot berar ekan ularning shaxsiy hayoti, badiiy ijod jarayoni, yaratgan asarlari tahlilida xolis shaxs sifatida gavdalanadi. Adiblarning xulq-atvori, ijod olami haqida qiziqarli ma’lumotlar keltiradi. ularning asarlari tahliliga bag‘ishlangan mulohazalarida obrazlar, xarakterlar tasvirida samimiylilikka intiladi. Tushunarli, sodda mazmunli mulohazalarni ilgari suradi. Adabiyotshunos olim mavzuni yoritish usuli va fikrlash jarayonida chinakam xalqchilikka suyanadi. “Agar xalqchilik deganda biror xalq, biror mamlakat odamlarining xulq-atvorini, urf-odatlarini va xarakter xususiyatlarini haqqoniy tasvirlashni tushunadigan bo‘lsak, xalqchilik chinakam badiiy asarning zarur shartidir” [1; 250].

## NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ulkan, muazzam ilmiy tadqiqot olti fasldan iborat. Bular: “Ijtimoiy hayot manzaralari (XX asrning birinchi choragi)”, “Milliy uyg‘onish davri adabiyoti namoyandalari”, “Adabiy hayot manzaralari(XX asrning ikkinchi choragi)”, “Ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti namoyandalari”, “Topilmalar”, “Ikki sohir–ikki javohir” nomlari bilan atalgan. Bu fasllarning har birida ijtimoiy va adabiy hayot chuqur tahlil etilgan, muayyan bir davr manzaralari o‘ziga xos tarzda tadqiq etilgan, shu davrlarga mansub adabiyot namoyandalari o‘ta xolislik bilan, o‘tkir nuktadonlik bilan tavsif etilgan. Munaqqid bunday ulkan ishga qo‘l urishga jur’at etganligini ham o‘rni kelganda chiroyli izohlab o‘tgan:

“O‘zbek adabiyotining yangi, mustaqillik davrida yozuvchilarimizning o‘tgan asrda qo‘lga kiritgan eng muhim yutuqlari yoddan ko‘tarilmasligi, eng yaxshi adabiy an'analar davom etishi, atoqli shoir va yozuvchilarimizning boy ijodiy tajribasi unut bo‘lmasligi, aksincha, adabiyotimizning navqiron namoyandalari ustozlari erishgan cho‘qqidan turib parvoz qilishlari lozim” [2; 6].

Bu ezgu niyat munaqqidni XX asr adabiyotimiz tarixining nurli sahifalari bilan birga fojeiy manzaralari, zulm, zo‘ravonlik, shafqatsiz qatag‘onlar girdobida umrboqiy asarlar yaratilgani, bu asarlarni yaratgan favqulodda noyob iste’dod egalari bo‘lgan

shoir va adiblarimiz nomlarini hamisha faxr-iftixor bilan yodga olishga mas'ul ekanligimizni unutmaslikka da'vat etadi. Milliy Uyg'onish davri adabiyoti namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Tavallo, Hoji Muin, Xislat, Miskin ijodi, fojeiy qismatlari to'g'risidagi aniq dalillar va tarixiy hujjatlar asosida yoritilgani, ijtimoiy silsilalar davri adabiyoti namoyandalaridan Abdulla Alaviy, Botu, G'afur G'ulom, Oybek, Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan asarlar bilan birga hukmron mafkura talabiga xizmat qiladigan, badiiylikdan yiroq, madhiyabozlik ruhida zo'rma-zo'rakilik bilan yozilgan asarlar ham ular ijodida uchrashini qayd etadi va bu asarlardagi kamchiliklar, nuqsonlarni ilmiy asoslab ko'rsatadi, bunday asarlar yaratilishining sabablari ham izohlanadi. M.Shayxzoda, Mirtemir, Hamid Olimjon hayotida yuz bergen, keng jamoatchilikka ma'lum bo'limgan ma'lumotlar keltiriladiki, ularning tazyiq va ta'qiblarga qaramay yuksak badiiy saviyadagi asarlar yarata olganliklari XX asr o'zbek adabiyoti tarixining eng yorqin sahifalarini tashkil etishi haqida yorqin tasavvur uyg'otadi. Ijtimoiy silsilalar davri deb munaqqid 30-yillarning o'rtalaridan 50-yillargacha bo'lgan davrni ko'zda tutadi. Bu davrda o'zbek adabiyoti yangi janrlar bilan boyidi, ko'plab iste'dodli shoir va yozuvchilar yetishib chiqdi. Ammo shu davrda ijod ahliga tazyiqlar ham kuchaydi, dahshatli 37-yilning qatag'onlari hech kimni ayab o'tirmagani, hukmron mafkura talablariga zig'irtakkina bo'lsa ham bo'ysunmagan asarlar qoralanib, ularning mualliflari ta'qib qilindi, qamoqlarga tashlandi [4]. Ko'p ijodkorlar jon saqlab qolish uchun ham mustabid tuzumni sharaflashga majbur bo'ldi, ko'pchiligi yangi tuzum mafkurasi to'la hukmron bo'lgan paytda tug'ilib, shu mafkura ruhida tarbiyalangani sababli jon-jahdlari bilan partiyani, sovet tuzumini madh etdi. Rus va Yevropa xalqlari tillaridan qilingan tarjimalar o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdi, yangi janrlarning paydo bo'lishiga, yangicha badiiy tafakkur shakllanishiga olib keldi. Ammo ruslashtirish siyosati milliy adabiyotlarning rivojiga to'siq qo'yib qo'ydi. K.Zelinskiy degan tadqiqotchi "Oktabr va milliy adabiyotlar" degan tadqiqotida milliy adabiyotlar rus adabiyoti tajribalaridan foydalanishi, milliylikdan qochishi lozimligini ochiq-oshkora targ'ib etgan. Shu sababli shoir va adiblar o'z asarlarida mafkura talablariga bo'ysunishga majbur bo'lishdi, o'zлari istamagan holda mustabid tuzumni sharaflashdi, insonga shodlik, baxt ato etgan jamiyat deb ulug'lashdi. G'afur G'ulomday buyuk so'z san'atkori yaratuvchilik, bunyodkorlik, hayotsevarlikni ulug'lovchi chuqur falsafiy mushohadalarga boy she'rlarda ham "Kelajakka, Leninga, partiyaga ming rahmat", "Barhayot Leninning avlodlarimiz" kabi balandparvoz, zamini puch madhiyabozliklarga yo'l qo'ydi. Hamid Olimjon "Rossiya" she'rida "Men sening o'g'lingman, emasman mehmon", deb g'ururlandi. "XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari"da bu holga obyektiv baho berilgan, bunday asarlarning paydo bo'lishi

sabablari ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligi yetarli darajada asoslab berilgan. Hamid Olimjonning “Rossiya” she’rida shunday misralar bor:

Nevskiy uxlagan buyuk beshikda  
Uyg‘onmoq o‘zi ham oliy bir sharaf.  
Pushkin paydo bo‘lgan har bir eshikda  
Navoiy sharafi yashar muqaddas.

Olim sharhlaydi:

“...Pushkinni e’zozlovchi har bir rus xonadoni, ayrim istisnolarni e’tibordan soqit qilganda, hech qachon Navoiyni bilmagan, o‘qimagan, sharaflamagan. Bilishni ham, o‘qishni ham istamagan. Sirasini aytganda, biz, o‘zbeklarning o‘zimiz ham Navoiyni bir chekkaga surib qo‘yib, Pushkinni tarjima qilib, nashr etaverGANmiz. Furqatdan boshlab qariyb barcha mashhur shoirlarimiz, ma’rifatparvarlarimiz bizda milliy g‘urur tuyg‘usini emas, rus madaniyati, fani va texnikasi oldida hayrat tuyg‘usini tarbiyalab kelishgan” [2; 230], deydi uallif.

Bu—achchiq haqiqat. Iste’dodli shoir bo‘lgan Amin Umariyning she’rlarida mutlaqo milliy ruhning yo‘qligi haqida achinib yozadi muallif. Tanqidiy mulohazalardan keyin munaqqidning ezgu niyati juda ulug‘, xayrli ekanligidan ko‘nglingiz ravshanlashadi:

“Shubhasiz, men rus she’riyatidan yo ispan she’riyatidan o‘rganishni bas qilaylik, demoqchi emasman. Men endi shu orttirilgan tajribani milliy adabiy an‘analar bilan uyg‘unlashtirish lozimligini, ularni milliy zaminga, xalqning milliy didiga va ehtiyojiga yaqinlashtirish yo‘llarini axtarish zarurligini ta’kidlamoqchiman. Toki, jahon mavqeiga chiqajak o‘zbek adabiyoti sof milliy va o‘ziga xos jozibali hodisa sifatida yetti iqlimda e’tibor qozonsin” [2; 230].

Hamid Olimjon, Shayxzoda, Mirtemir hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ilmiy-adabiy manbalarga kirmagan tafsilotlar keltirilgan, ularning ijodi bugungi kun nuqtai nazaridan qanday baholanishi lozimligi ko‘rsatilgan.

“Topilmalar”, “Ikki sohir—ikki javohir” fasllari kitobning noyob sahifalaridir. “Topilmalar”da Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Mirtemirning e’lon qilinmagan, hech kim voqif bo‘lmagan asarlari berilgan. Fitratning “Turk eli”, “Biz kimmiz”, “Temur sag‘anasi ustinda” she’rlari Turkiyada 2000 yilda nashr etilgan “Qutulish yo‘lida” kitobiga kirgan. Cho‘lponning Qo‘qon muxtoriyatining madhiyasi bo‘lgan “Ozod turk bayrami” she’ri ham qo‘lyozma shaklida bizgacha yetib kelgan va ilk bor xalqimiz mustaqillikka erishgandan keyin N.Karimov tomonidan “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida e’lon qilingan. Uning Fitratdan ilhomlanib yozgan “Yurt qayg‘usi” she’ri Sattor Jabborning Turkiyada nashr etilgan “Qutulish yo‘lida” kitobiga kirgan. Cho‘lpon Xurshidning “Farhod va Shirin” musiqali dramasidagi Farhod va Shopur duetini yozgan, shoir Abdulla Alaviy vafotiga onasi Habibaxonim marsiya-g‘azaliga

muxammasi, sirdosh do'sti Sharafiddin Salohiddin o'g'liga she'riy maktublari, G'afur G'ulom bilan mushoarasi topilmalar sifatida kitobdan joy olgan. Usmon Nosir I.V.Gyotening "Egmont" tragediyasidan parcha tarjima qilgan va u shu paytgacha hech qayerda e'lon qilinmagan. Tarjima aynan Usmon Nosirga tegishli ekanligini olim Usmon Nosir ustidan olib borilgan tergov materiallari bilan tanishib aniqlagan. Mirtemirning "Halimaning daftariga" she'ri ham shu paytgacha hech qayerda e'lon qilinmagan, Halimaning Mirtemirga qanday aloqadorligini ham ko'pchilik bilmaydi. Halima Rahimova o'z vaqtida iste'dodli raqqosa bo'lgani va Mirtemir bilan turmush qurgani, Mirtemir 1932 yilda noma'lum sabablarga ko'ra qamalgach, Halima boshqa bir kishiga turmushga chiqib ketganligi, qamoq muddatini o'tab qaytgan shoir oilasini qayta tiklamoqchi bo'lgani, ammo buning imkonni bo'lmanligini munaqqid barcha tafsilotlari bilan bayon etgan. She'r esa shoirning o'sha paytdagi qalb iztiroblarini juda ta'sirli ifodalagan.

"Ikki sohir–ikki javohir" o'zbek adabiyotining ikki buyuk namoyandası Abdulla Qodiriy va Oybek ijodiga, bu adiblarning "O'tkan kunlar" va "Qutlug" qon romanlari tahliliga bag'ishlangan. Har ikkala so'z san'atkorining badiiy mahorati, bir-birini takrorlamasliklari, bir-birini to'ldirishlari ilmiy asoslab berilgan.

## XULOSA

"XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari"ning birinchi kitobi, shubhasiz, o'zbek adabiyotshunosligining mustaqillik yillaridagi eng katta yutuqlaridan biri. U ulkan olim, adabiyotimizning chinakam jonkuyari, tabarruk to'qson yoshni qarshilagan ustoz munaqqid N.Karimovning serzahmat mehnati mahsuli sifatida yana ham qadrlidir. Bu fundamental manba uzoq vaqtlar yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida asosiy darslik va ilmiy izlanuvchilarining ilmiy tadqiqot ishlarida zarur bo'ladigan nazariy fikrlar uchun xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Беленинский В. "Адабий орзулар". Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. Б. 250.
- Каримов Наим. XX аср адабиёти манзараплари. (Биринчи китоб), Тошкент: "O'ZBEKISTON", 2008 й. Б. 516
- Назаров Б. ва бошқалар, Ўзбек адабий танқиди тарихи (университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик), Тошкент: "Tafakkur qanoti" нашриёти, 2012 й. Б.7.
- Ризаев Шуҳрат. Китоб ва унинг муаллифи ҳақида бир-икки сўз, Н.Каримов, "XX аср адабиёти манзараплари", Тошкент, "O'ZBEKISTON", 2008 й. Б.4-5.
- [https://uz.wikipedia.org/wiki/Naim\\_Karimov](https://uz.wikipedia.org/wiki/Naim_Karimov)

## YOSHLAR – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING NEGIZIDIR

**Nematova Lola Xikmatovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi

**Mexmonova Nigina Faxritdinovna**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi

Buxoro akademik litseyi ingliz tili o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning ezgu intilishlari, qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarishga qaratilgani, yoshlар ijtimoiy ma’noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgani uchun ulardagи ijtimoiy faollik, yuqori darajada ta’sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo‘lgan ehtiyoj, olamni, borliqni ijodiy qayta qurishga tashnalik, qiziqqonlik kabi xislatlarni rivojlantirish zarurligi to‘g’risida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, iste’dodli yoshlар, mantiqiy tafakkur, ilmiy – nazariy bilimlar, ong.

Jahondagi rivojlangan davlatlar o‘z faoliyatining turli sohalarini, shu jumladan, ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirishni ham tegishli milliy modellar asosida tashkil qilishgan. Dunyoda mustaqil ta’lim olish sifatini oshirish yoshlarning jamiyatda muvaffaqiyatli o‘z o‘rnini topishida muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, 2030 yilgacha qabul qilingan umumjahon ta’lim Konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish” g‘oyasi yoshlarning zamonaviy ta’lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Yangi O‘zbekiston huquqiy demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, o‘z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘sib kelayotgan avlodning ma’naviy-axloqiy shakllanishiga alohida e’tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarning ezgu intilishlari, qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarishga qaratilgani, ayniqsa davlatimiz rahbari ularni Vatanimizning eng katta boyligi va bebaho xazinasiga

qiyoslagani, mardligi va jasoratini yuksak e'tirof etgani bizni nihoyatda ruhlantirdi. Jumladan, mamlakatimizda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash "Ulugbek" jamg'armasi va O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida ikki yildan buyon talabalar, doktorantlar va tadqiqotchilar o'rtasida "Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari" nomli yilning eng yaxshi maqolasi tanlovi o'tkazib kelinmoqda.

Mustaqillik yoshlar turmush tarzida hamda ularning psixologiyasida ham chinakam global o'zgarishlar qildi, yoshlarni yangicha fikrlashga o'rgatdi. Ma'naviy kamol topgan insonlargina barkamol jamiyat qurishlari mumkin, shuning uchun hozirgi kunda yoshlarga jamiyatning tarkibiy qismi va o'ziga xos guruhi sifatida qarab, ularning har tomonlama rivojlanishi va shakllanish holatini shu jamiyat doirasida, uning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilish darkor.

Yoshlar ijtimoiy ma'noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o'zida mujassamlashtirgani uchun ularga, bir tomondan, ijtimoiy faollik, yuqori darajada ta'sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo'lgan ehtiyoj, olamni, borliqni ijodiy qayta qurishga tashnalik, qiziqqonlik xos bo'lsa, ikkinchi tomondan sabrsizlik, bemulohaza tanqid qiluvchanlik, barcha narsani inkor etish jihatlari ko'zga tashlanadi. Yoshlar turmush tarzi - bu eng avvalo uning real borliq tavsifi, ularning nimalarni bajara olishi mumkinligining tavsifi. Yoshlarning ichki dunyosi ularning turmush tarziga faol ta'sir ko'rsatadi, shu bois yoshlar psixologiyasini, ichki dunyosini bilmay turib ularning hayot uslublarini bashorat qilib bo'lmaydi.

Yoshlarning dunyoqarashini rivojlantirish va ularni aniq hayotiy rejaga va maqsadga yo'naltirish, ayniqsa, o'quvchilik davrida shakllanadi, chunki o'quvchilik davrida kelajakka intiluvchanlik hissi yuqori bo'ladi. To'g'ri tanlangan istiqbol, aniq hayotiy rejalar va maqsadlar o'quvchilarning ijtimoiy amaliyotidagi ishtiroki bilan birlashib, ularning tajriba va bilim doiralari hamda dunyoqarashlarini kengaytiradi. Buning natijasida ularda mantiqiy mulohazalarga va dunyoqarashga asoslangan umuminsoniy tajribalar to'planadi.

Har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy – nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas. O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallahsga ehtiyojli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish - muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir. O'qituvchi yosh qalblar kamolotining me'moridir, shunday ekan bugun u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb – hunar egallahlariga

ko'maklashishi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy – iqtisodiy vazifani hal etishga chog'lamog'i darkor.

O'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lishi, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashashi va keljakni aniq ko'rishi kerak. Har bir o'qituvchi jamiyatning muammolarini, maqsad va vazifalarini tasavvur qilishi, ularni vijdon elagidan o'tkazib, aniq bajarish uchun bor imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishi kerak hamda o'z faoliyatiga ijodiy yondoshishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchilik kasbi murakkab va ma'suliyatli kasb, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Shuning uchun, o'quvchi bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik – psixologik mahoratni ta'minlaydi.

Mustaqil Respublikamizning o'qituvchisi yuksak ma'naviy – axloqiy fazilat, xulq madaniyati va milliy istiqlol mafkurasini mukammal egallashi kerak bo'ladi. Zero, o'qituvchi – tarbiyachi yuksak ma'naviyat, axloq - odob, xulq madaniyatiga ega bo'lsadagina, talabalarga insoniy nuqtai - nazardan mehribon, saxovatli bo'la oladi, uni hamma hurmat qiladi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham rivojlanishning mohiyati, uning sur'atlari insonlarning ma'naviy kamoloti darajasiga bog'lik bulgan. Ma'naviyatli shaxs xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudrati hisoblanib, uning ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli kuch sifatida ta'riflandi. Xo'sh, bu sehrli qudrat, bu botiniy kuch qanday bunyodga keladi?

Qaysi yerda ma'naviy kamolot yuksak bo'lsa shu dargohda jamiyat rivojlanadi. Mustaqil O'zbekistonimiz oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jarayon ta'lim va tarbiya ishini takomillashtirish bilan chambarchas bog'lik. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singib kelgan. Milliy an'analarimiz va asriy qadriyatlarimizning hayotimizdagi o'rni yanada mustahkamlanmoqda.

Bugungi kunda «ma'naviyat nima?» degan savolga xilma-xil javoblar paydo bo'lmoqda. Bugun biz shaxsni birinchi o'ringa qo'yib, uning yaratuvchilik fazilati, ijtimoiy faolligi, ma'naviy qudratiga urg'u bermoqdamiz.

Ma'naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg'otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo'linsa, barcha ulug'vor rejalarini amalga oshirish uchun voqe' imkon vujudga keladi. Masalaga bugungi jahon taraqqiyotining ilg'or tamoyillari darajasida yondoshilsa, milliy ta'limning eng muhim vazifasi xam ana shu imkonni shakllantirish, ya'ni yosh avlod ruhida yaratuvchilik kudratini uyg'otadi .

Ma'naviyat poydevori baquvvat bulmasa, unday insonning butun g'ayrati, jo'shqin faoliyati, oxir natijada, xalq va vatan uchun, bashariyat kelajagi uchun, qolaversa, uning o'z shaxsi uchun qanday xulosaga olib keladi, aytish qiyin.

Yangi O'zbekistonni ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lган insonlarga бунёд eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqarolik ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda yosh avlodni ma'naviyatini shakllantirib, ta'lib-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan mustahkamlanayotgan bir paytda yoshlarni tarixiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki millatning kelajagi bo'lган yoshlar to'laqonli kasb egasi, o'z vatanining vatanzarvariga aylanishi uchun har tomonlama chiniqishi zarur. Shundagina jamiyat hayotidagi barcha muammolar ma'naviy jihatdan barkamol bo'lган insonlarning fidokorona halol mehnati natijasida hal qilinadi.

Inson hamisha dunyoning sir – sanoatlarini anglab yetishga intiladi. O'zicha nimalarnidir yaratadi, quradi, buzadi. ularning mukammallik darajasi esa yaratuvchi inson ilmiga bog'liqdir.

Dunyoqarash tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Tabiat va jamiyatdagi mavjud narsalarga, voqealarga, hodisalarga nazar tashlasak, ularning barchasida ajib mukammallik, mutonosiblik, latofat, nafislik mujassamlashganligining guvohi bo'lamiz, bularning barchasi insonni zavqlantirishga, unga orom va ma'naviy kuch baxshga sabab bo'ladi.

Insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lган qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lган dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlearning boyib borishiga yordam beradi.

Ushbu ijtimoiy o'zgarishlar zaminida yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli barkamol shaxsning keng qamrovli yaratuvchanlik faoliyati yotadi. Uning aqliy va ruhiy boyligi, yuksak intilish va faolligi ko'p jihatdan ma'naviy, jumladan, estetik va badiiy omillarga bog'liqdir. Yoshlarda dunyoqarashni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Yoshlarimiz ongida yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonli yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik,

tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish kabi xislatlarni uyg‘otish hozirgi paytda muhim vazifalardan biri bo‘lmoqda . Yoshlarimiz tevarak atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida qancha ma’lumotlarga, bilimga ega bo‘lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo‘ladi. Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insoni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholashi hamdir.

Dunyoqarash qotib qolgan, hech qachon o‘zgarmaydigan o‘lik g‘oyalar yig‘indisi emas. Jamiyatning o‘zgarishi bilan bir qatorda u ham doimo rivojlanib, mazmunan o‘zgarib turadi. Buni biz o‘z jamiyatimiz hayotidan yaqqol ko‘rib turibmiz. Mustaqillik tufayli endilikda umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga asoslangan, hozirgi davr talabiga javob beradigan yangi mafkura yaratilmoqda va uning asosida kishilarda yangicha tafakkur, dunyoqarash shakllanib rivojlanmoqda.

Dunyoqarash kishilarning amaliy faoliyat yo‘nalishini belgilab beradigan qudratli ma’naviy kuchdir. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida jamiyat a’zolari, birinchi navbatda yoshlar qalbini egallash, uning dunyoqarashiga muayyan maqsadlarni ko‘zlab ta’sir etish avj olib bormoqda.

Yoshlar dunyoqarashining rivojlanishida ma’naviy-ma’rifiy ishlar ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, uni samarali tashkil etish yoshlarda ma’naviy-axloqiy, estetik ongni shakllantirishga yordam beradi. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, estetik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish yoshlarda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’ektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, ularning ijtimoiy burchlarni to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Yoshlarda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘zini-o‘zi tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Yoshlarning go‘zallikni his qilishi va tushunishi, orzu-umidlari, estetik didi, go‘zallik qonunlari asosida ijod qilishi o‘z xatti-harakatlari bilan estetik boyliklar yaratishga tomon yuksalib, ravnaq topa boradi.

O‘quv-tarbiya jarayonida yoshlarda mavjud estetik ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Buning uchun Vatan va jahon badiiy adabiyoti hamda tafakkurining yetuk, sara namunalari asosida yoshlarda estetik dunyoqarashni rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat qaratiladi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari yuksak ma’naviyat ruhida, milliy mustaqillik ideallariga asoslangan tarzda yuksak axloqiy tamoyillar va e’tiqod negizida qaror topadi. Mana shunday vaziyatda birinchi navbatda yosh avlodni kamol toptirish, ularning dunyoqarashini rivojlantirish, qalbida milliy g‘oya, milliy mafkura, o‘z Vataniga mehr-sadoqat tuyg‘usini uyg‘otish, o‘zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosini, zamonaviy estetik dunyoqarashi, ma’naviy kamoloti uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur.

O‘zini anglagan, millat ma’naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini taniydi. Shunday ekan, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko‘nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqeа – hodisalari va muammolariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan beba ho ma’naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab – avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma’naviy, aqliy bilimlardan foydalanib, voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

- Самиева Ш. Х., кизи Усмонова Г. Х. НАУЧНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ МОЛОДЕЖИ //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
- ILMIY-AMALIY R., MA’RUZALAR T. O. P. FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTIDA INTELLEKTUAL YOSHLARNING O ‘RNI. – 2022.
- Нарзуллаева Ф., Мехмонова Н. Таълим муассасаларида бошқарув маданиятини такомиллаштириш-ижтимоий педагогик муаммо сифатида //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 92-94.

## LINGVOPOETIKA VA UNING YO‘NALISHLARI

**Abdurahimova Dilnavoz**

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

**Abdurahimova Dilafruz**

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lingvopoetika va uning yo‘nalishlari, uning badiiy asar matnida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** lingvopoetika, poetik fonetika, poetik leksikologiya, poetik morfemika, poetik semantika, poetik sintaksis.

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik xususiyatlar nuqtai nazaridan kuzatib, o‘rganib borish, bu yo‘nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo‘lga qo‘yish bugungi o‘zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. Lingvopoetika-badiiy asarda qo‘llangan lingvistik birliklarning badiiy-estetik funksiyalarini o‘rganadi. Badiiy nutq keng tushuncha bo‘lib badiiy asar tili uning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Shu sababdan ham lingvopoetika quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

- a) poetik fonetika-badiiylikni ta’minlovchi unsurlar: tovush o‘zgarishlari, urg‘u;
- b) poetik leksikologiya-biror asar tilida omonim, sinonim, iboralar yoki chegaralangan leksika, o‘z va o‘zlashgan qatlam so‘zlari;

d) poetik morfemika-morfologiya va so‘z yasalishini ham o‘z ichiga oladi. Asar matnida qo‘llangan har bir affiksning tahlili ham tarixiy, ham tavsifiy, ham qiyosiy jihatdan olib boriladi.

9. КМК 2.01.04-2018 Строительная теплотехника /Минстрой РУз. – Ташкент. -2018. -102 с.
10. Инновационные технологии в производстве строительных материалов и конструкций. // Сборник научных трудов Международного симпозиума. – Ташкент, Министерство строительства РУз, ТАСИ, 2020. - 324 с.

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI STEAM BAHOLASH TIZIMI ORQALI RIVOJLANTIRISH

**Xamidova Diyora Rustam qizi**

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali

Maktabgacha ta’lim va pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi.

[diyoraxamidova52@gmail.com](mailto:diyoraxamidova52@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini STEAM baholash tizimi orqali rivojlanirish bilan bir qatorda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda kreativlik tushunchasini shakllantirish.

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, kreativ kompitentlik, ijod, iroda, diqqat, tafakkur ijodkorlik. Innovatsiya kompetentlik. STEAM, PISA, PIRLS. TIMSS. TALIS

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается развитие творческой активности учащихся начальных классов посредством системы оценивания STEAM, а также качество обучения и формирование понятия творчества у учащихся.

**Ключевые слова:** творчество, творческая способность, творчество, воля, внимание, мышление, творчество, инновация ,компетентность. STEAM, PISA, PIRLS. TIMSS. TALIS

### ABSTRACT

In this article, along with the development of the creative activity of primary school students through the STEAM assessment system, the quality of education and the formation of the concept of creativity in students are discussed.

**Key words:** creativity, creative competence, creativity, will, attention, thinking, creativity. Innovation is competence. STEAM, PISA, PIRLS. TIMSS. TALIS

### KIRISH.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va

xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Bizga ma'lumki zamон o'sib borayotgan bir davrda o'quvchilarni aql idroklu qilib tarbiyalash, ularni komillikga yetaklash, bilim saviyasini oshirish maqsadida oqituvchilar dars jarayonlarini turli xil metodlar orqali olib bormoqdalar. Shu maqsadda turli xil darsliklar, o'quv qo'llanmalari joriy etilgan.

Hozirgi kunda o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish maqsadida zamонaviy STEM tizimidan foydalanish va shu orqali o'quvchilarda o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi. Bizga ma'lumki ijodkorlikning ilk ko'rinishini bolalarda bog'cha davridan boshlab ko'zatishimiz mumkin. Ular mакtab davriga yetganida esa o'zlaridagi ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishadi.

## NATIJALAR

Aytishimiz mumkinki an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilishda foydalanish mumkin, STEM yondashuvi esa bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishdan asosiy maqsad darslar jarayonida fanlararo bog'lanishni tashkil etish, o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishdir. Ushbu jarayon o'quvchilarda ijodkorlik, ijodiy faoliyatni rivojlantiradi va ta'lim sifatini oshiradi. STEAM texnologiyasi an'anaviy ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni taminlab beradi. O'quvchi o'zida kreativ yani nostandard fikrlash va o'zidagi ijodiy qobiliyatni shakllantirib boradi. Kreativlik tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, bunda yaratuvchanlik tushuniladi. Nafaqat yaratuvchanlik balki inson o'z hayoliy ijodiy faoliyatini amalyotda sinab ko'radi, natijada unda ijodkorlik, ijodiy qobiliyat, ijodiy faoliyat vujudga keladi. Inson tomonidan yaratilgan har bir buyum yoki kashfiyat bu ijodkorlikning bir ko'rinishidir. Ijodkorlik qobiliyatini biz bolalarda kichik bog'cha davridanoq ko'rishimiz mumkin. Usha bolaning bog'chada rasmlarni o'zları istagan ranga bo'yashlari ham ijodiyotdir. Chunki bola usha bo'yayotgan narsasni hayolan shu rangda tasavvur qiladi va uni o'zicha kashf etadi.

O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish, yangicha qarash, yangi fikrlarni vujutga kelishi ulardagi ijodiy faoliyatni zamонaviy yondashuvidir. O'quvchilarda kreativlikni shakllanib borishi bu ta'lim tizimining rivojlanishidir. Fan va talim bir ma'noga ega bo'lgan tushuncha bo'lib, bir maqsad ostida faoliyat yuritishdir.

O‘quvchilarda kreativlik, yaratuvchanlik shakllanib borar ekan ta’lim jarayoni ham jadallahib boraveradi. Inson tamolidan yaratilgan har bir kashviyat ijodkorlikning bir ko‘rinishidir.

Ijodkorlik ham ta’lim tizimining bir negizidir. O‘quvchilarda kreativlikni shakllanishi ilm fanning rivojlanishidir. Ta’lim tizimidagi yangiliklar ham aynan yosh avlodni kelajakda yetuk komil inson bo‘lib, yurtimiz ravnaqini yo‘qori darajalarga ko‘tarishdir. Yosh avlod qanchalik ko‘p bilimga ega bo‘lsagina nafaqat ta’lim shu bilan birgalikda taraqqiyot ham rivojlanib boraveradi. Fan va talim yurt ravnaqining asosidir. Ta’lim tizimining rivojlanishi, yangicha fan dasturlarining joriy qilinishidan asosiy maqsad o‘quvchilarni bilim doirasini kengaytirishdir. Hozirgoi kunda barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bogliq boladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishga katta etibor qaratish lozimdir.

STEM yondashuvi ilk bor Amerikada ishlab chiqilgan. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. Bugungi kunda o‘quvchilarni bilim saviyasini oshirish ularda ijodkorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish va shu bilan birgalikda ta’lim sifatini rivojlantirish maqsadida turli xil baholash dasturlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Jumladan. PISA -15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo‘lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o‘tkaziladi. Unda o‘quvchilarning bilim sifati o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha monitoring qilinadi va 1000 ballik tizimda baholanadi. Ushbu xalqaro dastur 1997 yili ishlab chiqilib, 2000 yilda ilk marotaba amaliyotda qo‘llangan. Dastur ko‘magida turli davlatlar ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi. Dasturning asosiy maqsadi o‘quvchilarni bilim saviyasini oshirishdir.

PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo‘lib, u turli mamlakatlardagi ta’lim tizimlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta’lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi.

Bilamizki PISA dasturining bir necha asosiy yo‘nalishlar mavjud

- O‘qish savodxonligi**

- Matematik savodxonlik**

- Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi**

PISA baholash ta’limimimg amaliy ahamiyati, o‘quvchilarni fanlardan savodxonligini baholashga xizmat qiladigan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, olingan bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, oqilona qaror chiqarish, mustaqil fikrlash, dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan.

## MUHOKAMA

Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

**PIRLS**-boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

**TIMSS** 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

**TALIS** rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish;

PIRLS – (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot ) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlarni boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

PIRLS yosh o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o‘qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma’lumot olish va ulardan foydalanish uchun o‘qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o‘qish maqsadlarining har birida to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish, g‘oyalari va axborotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

## XULOSA

Demak xulosa qilib aytishimiz mumkinki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati, har qanday ta’lim vazifasini hal qilishda uning tashabbuskorligi, ixtirochiligi,yaratuvchanligini mustaqilligini namoyon etishi mumkin. STEAM texnologiyasi orqali biz o‘quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishimiz va ularda kreativlikni oshirishga erishamiz. Ijodkorlik va o‘rganish jarayonini o‘zaro bog‘lab, odatda ijodiy va ijodiy shaxsning xarakterli xususiyatlari sifatida aniqlangan barcha tinglovchilarning fazilatlari va moyilligining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga hissa qo’shadigan bunday sharoitlarni yaratish haqida gapirish kerak.

Bilamizki STEAM - ta'limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi.

Kreativ kompetentlik o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini mustahkamligi va mukammalligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim
2. Epifani D.B. Ijodkorlik psixologiyasi. Darslik. Foyda. - M.: Akademiya, 2002.- 320s.
3. Levin, V.A. Ijodkorlikni tarbiyalash. - Tomsk: Peleng, 1992 yil
4. 1. Uzluksiz ta`lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolarl Ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri.
5. 2.F.Zakirova va boshq.Elektron o`quv-metodik majmular vat a`lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo`lkanma, T.: OO`MTV, 2010. – 57b.
6. 3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

## АРРАЧАЛИ БАРАБАННИНГ ПАХТА БИЛАН ЎЗАРО ТАЪСИР ШАРТЛАРИ

**Хакимов Шерқул Шергозиевич**

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

E-mail: [lionandlion9@mail.ru](mailto:lionandlion9@mail.ru)

**Юлдашев Жалоладдин Абдурахим ўғли**

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

E-mail: [anyozovjaloladdin@gmail.com](mailto:anyozovjaloladdin@gmail.com)

**Абдихамидов Нурбек Урал ўғли**

Термиз мухандислик-технология институти

[abdixamidov9393@gmail.com](mailto:abdixamidov9393@gmail.com)

**Аннотация:** Мақолада пахтани йирик ифлосликлардан тозалашда аррачали барабан ишлаш жараёнида пахта ва йирик ифлосликлар билан ўзаро таъсири жараёни бўйича илмий ва амалий изланишлар олиб борилганлиги ёритилган. Аррачанинг ишлаш муддатини ошириш учун такомиллаштирилган аррачалар устида тадқиқотлар олиб борилган.

**Калит сўзлар:** пахта, тозалагич, аррача, йирик ифлослик.

## CONDITIONS FOR THE INTERACTION OF THE SAW DRUM WITH COTTON

**Abstract:** The article carried out scientific and practical research on the process of interaction of cotton with large impurities in the process of processing saw drum when cleaning cotton from large impurities. Research has been conducted on improved saws to increase saw life.

**Keyword:** Cotton, cleaner, saw, large impurities.


### КИРИШ

Пахта тозалаш корхоналарининг қуритиш тозалаш цехларида пахта 8% гача қуритилганидан кейин пахта тозалаш машиналарига узатилади. Хозирги кунда пахта тозалаш корхоналарида универсал УХК агрегатларидан кенг фойдаланилмоқда. УХК агрегати асосан учта бўлимдан иборат бўлади. Хар бир бўлимда тўртда козиқчали барабан, пахта ажратиш учун чўткали барабан,

пахтани йўналтириш учун чўткали барабанлар ва пахта таркибидаги йирик ифлосликлардан тозалаш учун аррачали барабанлардан фойдаланилади [1].

## АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Пахта майда ифлосликлардан тозаланиб ва яхшилаб титилгандан кейин пахта аррачали барабанларга узатилади. Пахта аррачали барабанларга илаштирувчи чўтка орқали илаштирилади. Аррачали барабанга илашган пахта бўлаклари марказдан қочма куч тасирида колосникларга урилиши натижасида йирик ифлосликлар ва қисман майда ифлосликлар пахта таркибидан ажралади. Колосниклар орасидаги бўшлиқдан йирик ифлосликлар (тош, чанқ, ғўза шохлари...) билан пахта бўлаклари хам ажралади (1-расм). Аррачали барабан пахта билан аралашиб келган 40мм дан катта бўлмаган тошлар ва оғир аралашмалар аррачали барабан тишлари билан таъсирлашади[2]. Таъсир натижасида тишларда пластик деформацияга ёки тишни синишига олиб келади. Пахта биринчи аррачали барабанда тозаланади ва колосниклар орасидан майда



ва йирик ифлосликлар, пахта бўлаклари ўтади.


**Расм 1. УХК агрегатининг биринчи бўлимидан ифлосликларнинг ажралиши жараёни**

**1-пахта, 2-майда ифлослик, 3-chanq,  
4-тош ва оғир аралашма**

Бу ифлосликлар ва ифлосликларга қўшилган пахта аррачали регенерация барабанига тушади. Аррачали регенераця барабан аррачалари ифлослик таркибидаги оғир аралашмалар билан таъсири ошади ва аррачалар бу бўлимда кўпроқ шкастланади.

## НАТИЖАЛАР

Пахта таркибидаги оғир аралашмалар пахта оғирлигининг 0.2-0.3% ни ташкил қиласди. Агар тош ушлагичнинг самарадорлиги 95% деб тахмин қилинса, 160-240 кг тош ушланади, 40 мм гача тошларнинг пахтага қўшилиб кейинги жараёнга қўшилиши 8-12 кг ни ташкил қиласди ва пахтани тозалашда қийинчилик туғдиради. Аррачали барабанинг аррачалари шакли (2-расм) келтирилган аррачаларнинг матирияли Ст50 ва металлургия заводлари томонидан иссиқлик билан ишлов берилган лента қўринишидаги НКС<sub>Э</sub> 20—25 қаттиқликдаги листдан тайёланган. Бироқ тадқиқотлар шуни кўрсатадики аррача тишининг қаттиқлиги НКС<sub>Э</sub> 40 бўлган аррачалар ишлаб чиқаришда тавсия қилинади [3].




**Расм 2. Аррача қўриниши**

## МУХОКАМА

Биз ўтказган экспериментал тажрибаларимизда турли қаттиқликдаги аррачаларни зарба кучига бардошлилиги текширилди. Аррачаларнинг оптималь қаттиқлиги НКС<sub>Э</sub> 38-43 бўлганда зарбага бардошлилиги юқори эканлиги экспериментал тадқиқотлар асосида аниқланди(3-расм).



**Махаллий аррача натижаси**



**Таклиф қилинаётган аррача  
натижаси**

**Расм 3. Аррача учи қаттиқлигини ТК-2М лабаратор  
дастгохида аниклаш жараёни**

Аррачаларни УХК ва РХ тозалагичларнинг аррачали барабанларига ҳар хил қаттиқликдаги экспериментал намуналар жойлаштирилди. УХК агрегатининг регенерация аррачали барабанига ўрнатилган аррачалар смена бошида текширилди ва сменанинг охирида аррачали барабан текширилди. Натижаларни ишончлилиги юкори бўлиш учун 8 соатлик ишлаш вақти етарли эмаслиги аниқланди.

## ХУЛОСА

Синов натижаларига кўра таклиф қилинаётган аррача тишлари уч сменалик иш кунида 5-6 кун ишлагандан аррача тишлари мавжуд аррачалар билан солиширилди. Таклиф қилинаётган аррача тишларининг шкастланиш даражаси мавжуд аррачаларникига қараганда 20% га камлиги аниқланди. Бу жараёнда аррачаларнинг ишлаш муддати ошганлигини кўрсатади.

**АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. Пахтани дастлабки ишлашнинг мувофиқлаштирилган технологияси. «Тошкент» 2012 й, 13 - 14 б.
2. Г.Ж.Жабборов. Чигитли пахтани ишлаш технологияси Тошкент. Ўқитувчи». 1987 й. Б.84-92
- 3 Махкамов.Р.Г “Повышение технологической надежности хлопкоочистительных машин. Работающих в ударном режиме”, 58 -59 б

## ЁФ-МОЙ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИ ХИСОБИННИГ НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Боронов Бобур Фарходович**

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти докторанти, и.ф.ф.д (PhD),

E-mail: [bobur-boronov@mail.ru](mailto:bobur-boronov@mail.ru)

**Аннотация.** Ушбу мақолада корхоналарда ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобини ташкил этиш, хусусан ёғ-мой саноати корхоналарида ушбу харажатларнинг назарий асосларини такомиллаштириш мақсадида “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низом” бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** ёғ-мой саноати корхоналари, ёғ-мой маҳсулотлари, бухгалтерия ҳисоби, ишлаб чиқариш харажатлари, бевосита харажатлар, билвосита харажатлар маҳсулот таннархи.

**Аннотация:** В данной статье в целях совершенствования теоретической базы данных затрат для организации хозяйственного учета на предприятиях, в частности, на предприятиях масложировой промышленности, разработаны предложения и рекомендации по «Положения о составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов».

**Ключевые слова:** предприятия масложировой промышленности, масложировая продукция, бухгалтерский учет, себестоимость продукции, прямые затраты, косвенные затраты, себестоимость продукции.

**Abstract:** In this article, in order to improve the theoretical database of costs for the organization of economic accounting at enterprises, in particular, at enterprises of the oil and fat industry, proposals and recommendations have been developed on the "Regulations on the composition of costs for the production and sale of products (works, services) and on the procedure for the formation of financial results.".

**Key words:** oil and fat industry enterprises, oil and fat products, accounting, production cost, direct costs, indirect costs, production cost.

## **Кириш.**

Ўзбекистон Республикасида солиқ кодексига мувофиқ, даромад ва харажатларни бухгалтерияда ҳисобга олишнинг методологиясини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори<sup>6</sup> қабул қилинган.

Мамлакатимизда бу каби норматив-ҳукуқий хужжатларнинг ишлаб чиқилганига қарамасдан, бугунги кунда, ушбу меъёрий-ҳукуқий хужжатларни хўжалик юритувчи субъектларнинг турли фаолиятларини инобатга олган ҳолда, халқаро стандартлар талабларидан келиб чиқсан ҳолда такомиллаштиришга эҳтиёж сезилмоқда. Хусусан, ёғ-мой саноати корхоналарида уларнинг ишлаб чиқариш жараёнларидағи хусусиятлари ва маҳсулот таннархини аниқлаш жараёнларини инобатга олган ҳолда Республикасида фаолият кўрсатаётган 500 тадан ортиқ турли мулкчилик шаклидаги хўжалик юритувчи субъектлар учун “Ёғ-мой саноати корхоналарида маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом” лойиҳасини ишлаб чиқиш зарурияти мавжуд, деб ўйлаймиз. Ёғ-мой саноати корхоналарида ушбу низомни кўллаш маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини тўғри ҳисобга олишга, билвосита харажатларни маҳсулот таннархига олиб бориш тартибларини аниқлашга ва ҳисоблашга ҳамда молиявий ҳисбот шаклларида шаффоф акс эттиришга имкон беради. Шу боис, ёғ-мой саноати корхоналарида ушбу масалаларни тўғри ҳал этиш бугунги куннинг ҳисоб олдидаги долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

## **Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.**

Хинди斯顿нинг харажат ва ишлар бухгалтерлари институтида кичик ҳисоб ходимлари имтиҳони учун учун тайёрланган “Бошқарув ҳисоби” ўқув материалларида “Харажатларни ҳисобга олишнинг мақсади ички менеджерларга операцияларни яхшироқ режалаштириш ва назорат қилиш ҳамда ўз вақтида, қарорлар қабул қилиш учун маълумот беришдир. Дастробки босқичларда харажатлар ҳисоби молиявий ҳисобнинг кенгайтмаси сифатида қаралади.”<sup>7</sup>, деб келтирилган.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори. 1999 йил 5 февраль. 54-сон.

<sup>7</sup> Management Accounting. Study material prepared by ICWAI for J.A.O. (CIVIL) examination. [https://cga.nic.in/writereaddata/management\\_accounting.pdf](https://cga.nic.in/writereaddata/management_accounting.pdf)

Бошқа таниқли рус олими Я.В.Соколов эса, харажатларни қўйидагича таснифлайди: “Харажатларни ҳисоблаш икки ҳолатда зарур: режалаштирилган ва режалаштирилмаган. Биринчиси, кутилаётган рентабелликни аниқлаш мақсадида маҳсулот ишлаб чиқариш ва нархларни белгилаш тўғрисида қарор қабул қилиш учун мўлжалланган. Айнан ушбу калькуляция корхонадаги иқтисодий ишларнинг характеристини белгилайди. Иккинчиси, айрим турдаги маҳсулотларнинг ишлаб чиқарилиши билан боғлиқ иқтисодий, ёки назорат масалалари билан боғлиқ ҳолда, шунингдек бир вақтнинг ўзида барча турдаги маҳсулотларнинг таннархини ҳисоблашнинг статистик муаммоси билан боғлиқ ҳолда пайдо бўлиши мумкин”<sup>8</sup>.

Ишлаб чиқариш таннархи – бу маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва сотиш билан боғлиқ харажатлар йигиндиси. Маҳсулот таннархи калькуляцияси – ишлаб чиқариш бирлиги ёки бирликлар гурухини ишлаб чиқаришга ёки ишлаб чиқаришнинг айрим турларига тегишли бўлган қиймат шаклдаги харажатларни ҳисоблаш<sup>9</sup>.

### **Таҳлил ва натижалар.**

Юқорида келтирилган тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб айтишимиз мумкинки, ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатларининг тавсифи ва таснифий асослари, шунингдек ёғ-мой маҳсулотларининг асосий, ёндош ва ёрдамчи маҳсулот турлари бўйича уларнинг таннархини аниқлаш тартиблари маҳсус норматив-хуқуқий хужжатларда ўз аксини топмаган. Бугунги кунга қадар, барча хўжалик юритувчи субъектлар қатори ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналари ҳам бухгалтерия ҳисобини юритишда Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори<sup>10</sup>га асосан амалга ошириб келишган. Аммо, ушбу Низомда ёғ-мой саноати корхоналарида ишлаб чиқариш жараёнлари ва ушбу жараёнда харажатларни ҳисобга олиш ва маҳсулот таннархини аниқлашнинг ўзига хос хусусиятлари инобатга олинмаган. Бу эса, ушбу тармоқ корхоналарида молиявий ва бошқарув ҳисобининг камчиликларидан ҳисобланиб, бошқарув ходимлари томонидан тўғри қарорлар қабул қилишга имкон бермайди ҳамда корхоналар томонидан солик ва

<sup>8</sup> Соколов Я.В. Управленческий учет: Учебное пособие / под ред. Я.В.Соколова.— М.: Магистр, 2012 .— 431 с. — (Бакалавриат). — ISBN 978-5-9776-0077-4.

<sup>9</sup> <https://glavkniga.ru/situations/s505405#>

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори. 1999 йил 5 февраль. 54-сон.

статистика ҳисоботларига тақдим этиладиган ҳисоботларнинг реаллигига таъсир кўрсатади.

Бизнингча, ушбу муаммоларни бартараф этиш ҳамда ёғ-мой саноати корхоналарида бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш мақсадида “**Ёғ-мой саноати корхоналарида маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом**” лойиҳасини ишлаб чиқиш ва уни ушбу саноат тармоқларида фаолият кўрсатаётган 500 тадан ортиқ хўжалик юритувчи субъектларнинг фаолиятига жорий этиш лозим, деб ҳисоблаймиз.

Тадқиқот давомида, ушбу Низомда “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низом”да келтирилган бандларда ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарининг фаолиятлари билан боғлиқ бўлган жиҳатларни белгилаб чиқдик.

**1-жисҳат.** “*Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариши ва сотииш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириши тартиби тўғрисидаги Низом*”нинг “Б” бандида келтирилган “*Маҳсулотларнинг ишлаб чиқариши таннархига киритиладиган харажатлар*” таркиби бўйича таклифлар.

Ушбу банд бўйича, **1-таклиф.** Ушбу Низомга мувофиқ, корхонанинг маҳсулот ишлаб чиқариш таннархига қуидаги харажатлар кириши белгилаб берилган:

- \* бевосита ва билвосита моддий харажатлар;
- \* бевосита ва билвосита меҳнат харажатлари;
- \* бошқа бевосита ва билвосита харажатлар, шу жумладан ишлаб чиқариш хусусиятига эга бўлган устама харажатлар<sup>11</sup>.

Ушбу норматив ҳужжатда маҳсулот таннархига киритиладиган харажатларни таснифлашда билвосита ва устама харажатлар алоҳида харажатлар сифатида кўрилган. Бизнинг фикримизча, хўжалик юритувчи субъектларда маҳсулот ишлаб чиқариш таннархига олиб бориладиган харажатлар таркибини аниқ кўрсатиш, яъни билвосита ва устама харажатларни битта гуруҳда, алоҳида акс эттириш ҳамда уларни бевосита харажатлардан ажратиб олиш лозим, деб ўйлаймиз. Тадқиқот давомида М.А.Набиевнинг бу борадаги фикрини ўрганиб чиқдик: “бильвосита моддий ва билвосита меҳнат харажатларини устама

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори. 1999 йил 5 февраль. 54-сон.

харажатлар таркибига киритиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади”<sup>12</sup>. Бизнингча, ушбу қараш ҳақиқатга яқин ҳисобланиб, биз ҳам ушбу фикрга қўшиламиз ва ёфмой саноати корхоналарида харажатларни таснифлашда ушбу жиҳатларни ҳисобга оламиз.

### 1-жадвал

#### **Маҳсулотларнинг ишлаб чиқариш таннархига киритиладиган харажатлар таркиби бўйича таклиф<sup>13</sup>**

Харажатлар таркиби	Таклиф
а) бевосита ва билвосита моддий харажатлар	а) бевосита моддий харажатлар
б) бевосита ва билвосита меҳнат харажатлари	б) бевосита меҳнат харажатлари
в) бошқа бевосита ва билвосита харажатлар, шу жумладан ишлаб чиқариш хусусиятига эга бўлган устама харажатлар	в) бошқа бевосита харажатлар
	г) билвосита харажатлар, шу жумладан ишлаб чиқариш хусусиятига эга бўлган устама харажатлар

**2-таклиф.** Ушбу Низомга мувофиқ, корхонада иқтисодий мазмунига кўра, маҳсулот ишлаб чиқариш таннархини ташкил этувчи харажатларнинг гуруҳлари белгилаб берилган:

- \* ишлаб чиқариш моддий харажатлар (қайтариладиган чиқитлар қиймати чиқариб ташланган ҳолда);
- \* ишлаб чиқариш хусусиятига эга бўлган меҳнатга ҳақ тўлаш харажатлари;
- \* ишлаб чиқаришга тегишли бўлган ижтимоий суғуртага ажратмалар
- \* асосий фондлар ва ишлаб чиқариш аҳамиятига эга бўлган номоддий активлар амортизацияси;
- \* ишлаб чиқариш аҳамиятига эга бўлган бошқа харажатлар<sup>14</sup>.

Бизнинг фикримизча, Низомда маҳсулот таннархига киритиладиган харажатларни иқтисодий мазмунига кўра гуруҳларга бўлингандা, худди, юқорида таклиф этилган харажатлар таркиби бўйича гуруҳларга ажратиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Мазкур харажатлар гуруҳидаги 2 ва 3-бандлар, яъни “Ишлаб чиқариш хусусиятига эга бўлган меҳнатга ҳақ тўлаш харажатлари” ва “Ишлаб чиқаришга

<sup>12</sup> Набиев М.А. Автосаноат корхоналарида тайёр маҳсулотлар ва уларни сотиш ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати. -Т.: 2021. 17-бет.

<sup>13</sup> Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги Қарори. 1999 йил 5 февраль. 54-сон.

тегишли бўлган ижтимоий суғуртага ажратмалар” харажатлари бир-бири билан боғлиқ бўлганлиги, яъни ходимларга тўланган иш ҳақи қайси харажатларга олиб борилса, ижтимоий солик харажатлари ҳам, айнан ўша харажатларга олиб борилиши боис, ушбу бандларни бирлаштириш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз ҳамда бугунги кунда, “ижтимоий суғуртага ажратмалар” атамаси ишлатилмаслиги боис, ушбу атамани “иқтимоий солик” атамасига ўзгартириш таклиф этилади. Бизнингча, ушбу икки харажатлар гуруҳини бирлаштирган ҳолда, **“Ишлаб чиқариш хусусиятига эга бўлган меҳнатга ҳақ тўлаш ва ижтимоий солик харажатлари”** деб номлаш мақсадга мувофиқ, деб ўйлаймиз.

Шунингдек, ушбу харажатлар гурухининг 4-бандидаги “асосий фондлар ва ишлаб чиқариш аҳамиятига эга бўлган номоддий активлар амортизацияси” номини ўзгартириш ва 21-сон БҲМСга мувофиқ “асосий фондлар” атамасини “асосий воситалар” атамаси билан алмаштириш лозим, деб ҳисоблаймиз. Шунингдек, ишлаб чиқариш корхоналарида сотиб олинган барча турдаги номоддий активлар аҳамиятига кўра, ишлаб чиқариш жараёнларини ташкил этиш мақсадида олиниши боис, ушбу гуруҳдаги “ишлаб чиқариш аҳамиятига эга бўлган номоддий активлар” атамасини “номоддий активлар” деб, номлашни тавсия қиласиз.

## 2-жадвал

### **Иқтисодий мазмунига кўра, маҳсулот ишлаб чиқариш таннархини ташкил этувчи харажатларнинг гуруҳлари бўйича таклиф<sup>15</sup>**

Харажатлар гуруҳи	Таклиф
Ишлаб чиқариш моддий харажатлар (қайтариладиган чиқитлар қиймати чиқариб ташланган ҳолда);	Ишлаб чиқариш моддий харажатлар (қайтариладиган чиқитлар қиймати чиқариб ташланган ҳолда);
Ишлаб чиқариш хусусиятига эга бўлган меҳнатга ҳақ тўлаш харажатлари	Ишлаб чиқариш хусусиятига эга бўлган меҳнатга ҳақ тўлаш ва ижтимоий солик харажатлари
Ишлаб чиқаришга тегишли бўлган ижтимоий суғуртага ажратмалар	
Асосий фондлар ва ишлаб чиқариш аҳамиятига эга бўлган номоддий активлар амортизацияси	Асосий воситалар ва номоддий активлар амортизацияси
Ишлаб чиқариш аҳамиятига эга бўлган бошқа харажатлар	Ишлаб чиқариш аҳамиятига эга бўлган бошқа харажатлар

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида, иқтисодий мазмунига кўра, маҳсулот ишлаб чиқариш таннархини ташкил этувчи харажатларнинг ушбу гуруҳлари бўйича биз томонимиздан ишлаб чиқилган юқоридаги тавсиялар

<sup>15</sup> Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

“Махсулот (ишилар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби түғрисидаги Низом”ни мазмунан түлдиришга ва такомиллаштиришга хизмат қиласы, деб ўйлаймиз.

Энди, юқоридаги бандда келтирилган харажатлар бўйича ёғ-мой саноати корхоналарининг фаолиятлари билан боғлиқ бўлган жиҳатларини белгилаб чиқамиз (3-жадвал):

### 3-жадвал

#### Махсулотларнинг ишлаб чиқариш таннархига киритиладиган харажатлар таркиби бўйича жиҳатлар<sup>16</sup>

№	Харажатлар таркиби	Харажат турлари	Харажатларни тан олиш учун асос бўлувчи хужжат турлари
1	Ишлиб чиқариш моддий харажатлар (қайтариладиган чиқитлар киймати чиқариб ташланган ҳолда);	<ul style="list-style-type: none"> <li>* ўсимлик хом ашёси;</li> <li>* филтрли камар (фильтр белтинг);</li> <li>* фаоллаштирилган оқартирувчи тупроқ;</li> <li>* катион алмаштиргич;</li> <li>* лимон кислотаси;</li> <li>* каустик сода;</li> <li>* ёдланган озиқ-овқат тузи;</li> <li>* филтрли камар;</li> <li>* катион алмаштиргич;</li> <li>* лимон кислотаси;</li> <li>* мембрани фильтр;</li> <li>* филтрли камар;</li> <li>* ПЭТ преформа (капсула);</li> <li>* плёнка п/этилен;</li> <li>* қадоқ қоппоғи;</li> <li>* полимер тутқичлар;</li> <li>* этикетка;</li> <li>* қадоқ галстуги;</li> <li>* гофрокоробка;</li> <li>* клей;</li> <li>* скотч.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>* асосий омбор ва ишлаб чиқариш бўлимлари мудирларининг ҳисботлари;</li> <li>* ишлиб чиқариш бўлимлари талабномалари;</li> <li>* ишлиб чиқариш бўлимлари ўртасидаги қабул қилиш-топшириш далолатномалари;</li> <li>* материалларни хисобдан чиқариш бўйича далолатномалар;</li> <li>* ишлиб чиқариш бўлимлари накладнойлари;</li> </ul>
2	Ишлиб чиқариш хусусиятига эга бўлган меҳнатга ҳақ тўлаш ва ижтимоий солиқ харажатлари	<ul style="list-style-type: none"> <li>* ишлиб чиқариш бўлимлари ходимларига ҳисобланган иш ҳақи;</li> <li>* ишлиб чиқариш бўлимлари ходимларига ҳисобланган меҳнат таътили;</li> <li>* ишлиб чиқариш бўлимлари ходимларига ҳисобланган иш ҳақи бўйича ижтимоий солиқ;</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>* ишлиб чиқариш бўлимлари нарядлари;</li> <li>* ишлиб чиқариш бўлимлари табеллари;</li> <li>* фармойиш ва бўйруқлар;</li> <li>* хисоб қайдномалари;</li> <li>* ижтимоий солиқ ҳиоб-китоблари бўйича айланма қайдномаси;</li> </ul>

<sup>16</sup> Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

		<ul style="list-style-type: none"> <li>* ишлаб чиқариш бўлимлари ходимларига ҳисобланган меҳнат таътили бўйича ижтимоий солик;</li> <li>* ишлаб чиқариш бўлимлари ходимларига ҳисобланган бошқа меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича харажатлар;</li> <li>* ишлаб чиқариш бўлимлари ходимларига ҳисобланган бошқа меҳнатга ҳақ тўлаш бўйича ижтимоий солик.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>* солик ҳисоботлари, карточкаси ва акт-сверкаси;</li> <li>* тўлов қайдномалари;</li> <li>* банк пластик-карта реестрлари.</li> </ul>
3	Асосий воситалар ва номоддий активлар амортизацияси	<ul style="list-style-type: none"> <li>* ишлаб чиқариш бўлимларида фойдаланилаётган асосий воситалар ва номоддий активлар амортизацияси.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>* Амортизациялар бўйича айланма қайдномалари;</li> </ul>
4	Ишлаб чиқариш аҳамиятига эга бўлган бошқа харажатлар	<ul style="list-style-type: none"> <li>* совутиш жараёни бўйича харажатлар;</li> <li>* иссиқлик ва буг бериш жараёни бўйича харажатлар;</li> <li>* электро-энергия бўйича харажатлар;</li> <li>* сув ва оқова бўйича харажатлар;</li> <li>* табиий газ бўйича харажатлар;</li> <li>* чиқиндилиарни ташиш бўйича харажатлар;</li> <li>* мол-мулкни сугурталаш бўйича харажатлар;</li> <li>* машина ва асбоб-ускуналарни сақлаш бўйича харажатлар;</li> <li>* машина ва асбоб-ускуналарни таъмирлаш бўйича харажатлар;</li> <li>* машина ва асбоб-ускуналарнинг бутлигини таъминлаш бўйича харажатлар;</li> <li>* бошқа харажатлар.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>* таъминотчилардан олинган ҳисоб-фактуралар;</li> <li>* ҳисобдан чиқариш далолатномалари;</li> <li>* бошқа бухгалтерия хужжатлари.</li> </ul>

Тадқиқотлар давомида, ёғ-мой саноати корхоналарида маҳсулотларнинг ишлаб чиқариш таннархига киритиладиган харажатлар таркиби бўйича таклиф этилган ушбу жиҳатлар ушбу тармоқ корхоналарида харажатлар ҳисобини такомиллаштиришга хизмат қиласиди.

## 2-жисъат. Маҳсулот таннархини ҳисоблаш бўйича таклифлар.

Олдинги бобларда келтирилган тадқиқот натижаларидан маълумки, ёғ-мой саноати корхоналарида биргаликда ишлаб чиқарилган тайёр маҳсулотлар асосий, ёндош ва ёрдамчи маҳсулот турларига бўлинади. Ушбу маҳсулот турлари турли хил ўлчов бирликларида ва турли хил кўринишда сотилади.

Мисол, асосий маҳсулот ҳисобланган ёғлар турли ўлчамдаги, жумладан 1 литрлик, 3 литрлик, 5 литрлик қадоқланган идишларда сотилади. Шунингдек, ёндош маҳсулотлар ҳисобланган пахта шелухаси, шрот маҳсулотлари тонналарда, ёрдамчи маҳсулотлар ҳисобланган соапстоклар литрларда, қадоқланмаган ҳолатда сотилади. Бундан кўриниб турибдики, ёғ-мой саноати корхоналарида ишлаб чиқарилган маҳсулотлар турли хил кўриниш ва ўлчовларда сотилсада, бироқ ушбу маҳсулотларни аниқ бир ўлчов бирликларида калькуляция қилиш лозим, деб ҳисоблаймиз. Мисол, ёғларни қадоқланган идишларнинг турлари бўйича эмас, балки бир литр ёғга тўғри келадиган маҳсулот таннархини ҳисоб-китоб қилиш талаб этилади.

Биз томонимиздан ёғ-мой саноати корхоналарида бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш мақсадида ишлаб чиқилган “Ёғ-мой саноати корхоналарида маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом” лойиҳаси корхоналарда ишлаб чиқариш харажатларини тўғри ҳисобга олишга, бевосита ва билвосита харажатларни маҳсулот таннархига олиб бориш тартибларини аниқлашга ва ҳисоблашга, шунингдек молиявий ҳисобот шаклларида шаффоф акс эттиришга хизмат қиласи, деб ўйлаймиз.

### **Хуласа ва таклифлар.**

Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари асосида қўйидаги хуласаларга келинди:

Биринчидан, хорижий ва маҳаллий адабиётларда келтирилган “ишлаб чиқариш харажатлари”, “маҳсулот таннархи” бўйича таърифлар ўрганилди. Айтиш мумкинки, олимлар томонидан берилган таърифлар муҳим аҳамият касб этсада, бироқ ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнларининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилган яхлит бир таъриф мавжуд эмас.

Иккинчидан, олиб борилган тадқиқот натижалари асосида, ёғ-мой саноати корхоналари фаолиятларини тартибга солиш учун мўлжалланган “Ёғ-мой саноати корхоналарида маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом” лойиҳаси ишлаб чиқилди. биз томонимиздан ишлаб чиқилган ва тавсия этилган ушбу Низом ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини уларнинг ишлаб чиқариш жараёнлари хусусиятларини инобатга олган ҳолда ҳисобга олишга, ишлаб чиқариш жараёнидаги бевосита ва билвосита харажатларни маҳсулот таннархига олиб

бориши тартибларини аниқлашга, шунингдек молиявий ҳисобот шаклларида ушбу жараён натижаларини реал акс эттиришга муайян даражада хизмат қилади, деб ҳисоблаймиз.

Бизнинг фикримизча, ушбу тадқиқот натижалари бухгалтерия ҳисобини назарий ва методологик асосларини такомиллаштиришга муайян даражада хизмат қилади, деб ўйлаймиз.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш хақида”ги Қарори. 1999 йил 5 февраль. 54-сон.
2. Management Accounting. Study material prepared by ICWAI for J.A.O. (CIVIL) examination. [https://cga.nic.in/writereaddata/management\\_accounting.pdf](https://cga.nic.in/writereaddata/management_accounting.pdf)
3. Соколов Я.В. Управленческий учет: Учебное пособие / под ред. Я.В.Соколова.— М.: Магистр, 2012 .— 431 с. — (Бакалавриат) .— ISBN 978-5-9776-0077-4.
4. Набиев М.А. Автосаноат корхоналарида тайёр маҳсулотлар ва уларни сотиш ҳисобини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати. -Т.: 2021. 17-бет.
5. <https://glavkniga.ru/situations/s505405#>

УДК 677.017.02

**ПАХТА ТАРКИБИДАГИ ОҒИР АРАЛАШМАЛАРНИ ТУТИШ  
УСКУНАСИДАН ТОШЛАРНИ УЗЛУКСИЗ ЧИҚАРИШ ЧҮНТАК  
МОСЛАМАСИННИГ ТАХЛИЛИ**

**Джамолов Рустам Комолиддинович**

“Пахтасаноат илмий маркази” АЖ

E-mail: [Rustam-djamolov1972@mail.ru](mailto:Rustam-djamolov1972@mail.ru)

**Холийгитов Шерзод Норбай ўғли**

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

E-mail: [Sher\\_1993@mail.ru](mailto:Sher_1993@mail.ru)

**Холийгитов Омонбай Алимович**

Жиззах политехника институти

**АННОТАЦИЯ**

Мақолада пахта таркибидаги тош ва бошқа оғир жисмларни тутишдан сўнг уни ташқарига чиқариш бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижалари келтирилган бўлиб, ушбу йўналишда бажарилган ишлар ва уларнинг камчиликлари баён этилган. Аниқланган камчиликларни бартараф этиш учун такомиллаштирилган чўнтақ мосламаси таклиф этилган. Назарий томондан пахта оқимидан майда тошларни йиғиш чўнтақ мосламаси патнисининг тебранишларини ифодаловчи математик модели олинди. Сонли ечим орқали алоҳида патнисни оғма тебраниш қамровини ўзгариш қонуниятлари унинг ҳарақатларига боғлиқлигини аниқланди.

**Калит сўзлар:** Тош туткич, чўнтақ мосламаси, тутиш самараси, майда тошлар, аралашмалар, оғир, камера, тебраниш, патнис.

**АННОТАЦИЯ**

В статье представлены результаты исследований по удержанию камней и других тяжелых примесей из хлопка-сырца, описаны работы, проделанные в этом направлении, и их недостатки. Предлагается усовершенствованное карманное устройство для преодоления выявленных недостатков. С теоретической точки зрения получена математическая модель, представляющая колебания лотка карманного устройства для сбора мелких камней из хлопкового потока. Путем численного решения установлено, что законы изменения диапазона колебаний отдельного лотка зависят от его перемещений.

**Ключевые слова:** камнеуловитель, карманное устройство, улавливающий эффект, мелкие камни, смеси, груз, камера, вибрация, лоток.

## ABSTRACT

The article presents the results of the research on removing stones and other heavy objects from cotton, and describes the work done in this direction and their shortcomings. An improved pocket device is proposed to overcome the identified shortcomings. From a theoretical point of view, a mathematical model representing the vibrations of the tray of the pocket device for collecting small stones from the cotton stream was obtained. Through a numerical solution, it was determined that the laws of variation of the vibration range of a separate tray depend on its movements.

**Key words:** Stone scoop, pocket device, catch effect, small stones, mixtures, heavy, camera, vibration, tray.


## КИРИШ

Жаҳон тажрибасида пахтани дастлабки ишлашнинг техника ва технологиясини такомиллаштириш бўйича кенг миқёсда илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Пахтани териш, сақлаш пайтида унинг орасига турли ёт жисмлар қўшилиб қолиши эҳтимоли бор. Тадқиқотларнинг кўрсатишича, улар пахта массасининг 0,2-0,3 фоизини ташкил қилиши мумкин. Бу эса қайта ишлаш жараёнига пахтани оғир аралашмалардан ажратиб олувчи мосламалар татбиқ этилишини талаб этади. Акс ҳолда, тошлар ва металл парчалари жин, линтер ва тозалаш машиналарининг ишчи камераларига кириб, уларнинг бир маромда ишлашига ва ишчи органларига салбий таъсир кўрсатади ва натижада ускуналарнинг ишлаб чиқариш унумдорлиги пасайиб кетади.

## АДАБИЁТЛАР ТАХЛИЛИ

Пахта тозалаш корхоналарида ишлатилаётган тоштугичларнинг асосий камчиликларидан бири унинг ишлаш жараёнида тош йифиш камераларига тошлар билан маълум миқдорда пахтани тушиб қолишидир.

Профессор Р.Мурадов [1] ўз тадқиқотларида уч турдаги тоштукичларни қуритиш барабанидан олдин, тозалаш цехида ва тозалаш билан жин- линтерлаш цехлари орасига ўрнатиб текшириб, бу камчиликни кўрсатиб берган ва ушбу муаммоларни хал қилиш бўйича муаллифлар [2] томонидан тоштукич камерасига тушиб қолган пахта бўлакларини олиш қурилмани ишлаб чиқсан (1-расм).




**1-расм. Пахта бўлакларини ажратгич схемаси.**

1-вертикал шахта, 2-силжувчи тирқиш, 3-решеткали тирқиш.

Курилма қуйидагича ишлайди. Оғир аралашмалар тош ушлагич чўнтағидан шахтага юқори тирқиш юзасига тушади, бунда пахта бўлаклари ҳам тушиб қолиши мумкин. Юқори тирқиш секциясини тўлиши билан олдин пастки силжитиш тирқиши очилади, сўнг юқори тирқиш очилади, ундаги оғир аралашмалар пастга оралиқ решеткали тирқиш устига тушади. Бу ҳолда, атмосфера босими ва тушириш камераси ичидаги босим ўртасидаги фарқ натижасида ҳосил бўлган эжекцион оқими таъсирида енгил фракция (пахта бўлаклари) тутиш камералари орқали яна ажратиш камерасига қайитиб киради ва асосий пахта хом ашёсининг массаси билан аралашиб, йўналишда давом этади. Оғир аралашмалар решетка устида қолади ва юқори тирқиш ёпилиши билан эжекцион оқимнинг таъсири ёқолади. Ўрта решеткани силжитиш билан ундаги оғир аралашмалар пастга тўкилади. Ушбу жараёнларнинг қўлда бажарилиши унинг камчиликларидан биридир.

Тоштуткичда тошларни чўнтақка тўкилиши ва чиқаришда пастдан келадиган ҳаво оқими билан майда тошларни қайта пахта йўналишига қўшилиб кетишини олдини олиш учун чўнтақларда ўрнатилган резинали мосламалар чўнтақ кўндаланг кесимининг катта қисмини эгаллайди. (2-расм) [3].

Чўнтақларни резина мосламалар билан беркитилишидан, пахта ҳаво оқими ёрдамида камерага кирганида ундаги оғир аралашмалар ўз оғирлиги билан резинани эгиб пастга тош йиғиш камерасига ўтади ва резина ўз холатини тиклайди. Лекин тошларнинг оғирлиги ҳар хил бўлганлиги сабабли резинани танлаш мухим хисобланади ва майда тошларнинг оғирлиги резинани босишга етмаслиги мумкин.



**2-расм. Чўнтакларда резина йўналтиргичларнинг ўрнатилиши.**

1-кириш қувури; 2-ажратиш камераси; 3-чиқиш қувури; 4-резинали  
йўналтиргич; 5-тош тўплагич; 6-чўнтак.

## НАТИЖАЛАР

Амалда ишлаётган тош тутиш ускуналарининг чўнтак мосламалрида йифилган тошларни ташқарига чиқариш вақтида майда тошлар ташқаридан камерага кираётган ҳаво оқими билан камерага қайитиб кириб кетиши ва пахтага қўшилиб кетиши каби камчиликлар кўзатилган, шунинг учун тошларни ташқарига узлуксиз чиқариб турувчи иккита тош йиғувчи патнислардан ташкил топган ва патнисларнинг очилиш вақтлари ҳар хил бўлган мослама таклиф этилди [4].

Тошни йиғиб ташқарига узлуксиз чиқариш чўнтак мосламаси юқори ва пастки патнис 1, 2, шарнирли ричаг 3, қарши юк 4 дан иборат бўлиб, юқори патнис 1 юзасида тош йиғилганидан сўнг массаси билан патнис 1ни босиб, тирқиши очилади, тошлар пастки патнис 2га тушади ва юқори патнис 1 бўшаганидан сўнг қарши тош 4 ўзининг массаси билан ричаг 3 ни босиб патнисни ёпади (3-расм).




**3-расм. Таклиф этилган оғир аралашмаларни узлуксиз чиқариш чўнтақ мосламаси.**

Тош тутгичда пахта бўлакларидан ажralган асосий майда тошлар қувурдан оғма патнисларга тушади. Патнислар корпусга шарнир орқали ўрнатилган бўлиб, посонги юк (масса) осилган ричаг билан жиҳозланган.

Майда тошлар оғма жойлашган патнис сиртида йиғилиб, максимум йиғинди массага етганида патниснинг оғишига олиб келади. Натижада йиғилган тошли масса ташқари зонасига ўтади.

4-расмда оғма патниснинг тебранишини ифодаловчи ҳисоб схемаси келтирилган.



**4-расм. Тош тутгич қувурида келаётган майда тошларни йифиб узатувчи патнисни тебранишини ифодаловчи ҳисоб схемаси**

Патниснинг келтирилган инерция моментини инобаттга олиб унинг бурчак тебранишларини ифодаловчи дифференциал тенгламани [5, 6] да келтирилган услугуга асосан ҳосил қиласиз.

$$J_{kn} \frac{\lambda^2 \varphi_n}{dt^2} = l_1 g m_{nt} \sin \beta_1 + l_2 g k_m \cdot m_{mu} \cdot \sin \beta_1 - m_n l_3 g \sin \alpha_n \quad (1)$$

Бу ерда,  $J_{kn}$ -патниснинг келтирилган инерция моменти;  $\varphi_n$ -патниснинг оғма тебраниш бурчаги;  $l_1$  -патнис оғирлик марказининг цилиндрга нисбатан узунлиги;  $l_2$ -патнисга тушган майда тошларни умумий оғирлик марказини марказгача бўлган масофа;  $l_3$ -патнис ричаги посонгини ташки шарниргача бўлган узунлитги,  $\bar{G}_{nm}, \bar{G}_{mu}, \bar{G}_n$ -мос равишда патнисни, тошларни йифилган холда посонги юкнинг оғирликлари;  $\beta_1, \alpha_n$ -патнис ва патнис ричаги оғиш бурчаглари,  $g$ -эркин тушиш тезланиши.

## МУХОКАМА

Масалани сонли ечими параметрларининг қўйидаги қийматларида амалга оширилди:

$$g = 9.81 \text{ м/с}^2;$$

$$J_{kn} = 2.39 \text{ кгм}^2;$$

$$m_m = (0.2 \div 2.4) \cdot 10^{-1} \text{ кг};$$

$$l_1 = (0.2 \div 2.4) \cdot 10^{-2} \text{ м};$$

$$l_2 = (2.0 \div 9.0) \cdot 10^{-2} \text{ м};$$

$$l_3 = (2.0 \div 4.0) \cdot 10^{-2} \text{ м};$$

$$K_m = (30 \div 50);$$


$$m_m = (0.7 \div 0.9) \text{ кг};$$

$$\beta_1 = (60^\circ \div 75^\circ);$$

$$\alpha_n = (20^\circ \div 30^\circ);$$

Сонли ечим асосида параметрларни боғланиш графиклари қўрилди. 5-расмда тош тутгич тошни йигиши қувуридаги патниснинг тебраниш қамровини йиғилган тошларнинг умумий массасига боғлиқлик графикларикелтирилган. Патнис сиртига йиғилган майда тошларнинг келтирилган умумий массаси 0.45 кг дан 30 кг гача ортганида ва патнисга урилишида инерция моменти  $3.0 \text{ кгм}^2$  - бўлганида патнисни оғма тебраниш қамровини қийматлари 0.76 градусдан 3.11 градусгача ортади. Мос равишда патнис инерция моменти  $1.5 \text{ кгм}^2$  гача камайганида унинг тебраниш қамрови қийматлари 3.15 градусдан 7.62 градусгача ноҳизиқли қонуниятда ортиб боради. Чунки патнис массаси ортиши билан уни тебраниш қамрови мос равишда камаяди.

$\Delta\varphi, \text{град}$




$$1 - J_{kn} = 3.0 \text{ кгм}^2; \quad 2 - J_{kn} = 2.5 \text{ кгм}^2;$$

$$3 - J_{kn} = 2.0 \text{ кгм}^2; \quad 4 - J_{kn} = 1.5 \text{ кгм}^2;$$

**5-расм. Тош тутгич тошни йигиши қувуридаги патниснинг тебраниш қамровини йиғилган тошларнинг умумий массасига боғлиқлик графиклари**

**To'g'ridan-to'g'ri tarqalish** turi bo'lgan tarmoqlarda kirish neyronlaridan barcha ulanishlar qat'iy ravishda chiqishga yo'naltiriladi. Bu tarmoqlarga oddiy perseptron va ko'p qatlamlili perseptron kiradi. Perseptron neyron tarmoqlarning birinchi modellaridan biridir. O'zining soddaligiga qaramay, perseptron juda murakkab muammolarni o'rghanishga va hal qilishga qodir. U hal qiladigan asosiy matematik muammo - chiziqli bo'linishni ta'minlash deb ataladigan har qanday chiziqli bo'limgan to'plamlarni chiziqliga ajratish. Shuni ta'kidlash kerakki, Rosenblatt perseptroni perseptronni amalga oshirish usullaridan biridir. Ko'p qatlamlili perseptronning tipik arxitekturasi sxematik tarzda 1-rasmida ko'rsatilgan.




1-rasm - Ko'p qatlamlili perseptron arxitekturasi

Perseptron uch turdag'i elementlardan iborat, xususan: sensorlardan keladigan, assosiativ elementlarga, so'ngra reaksiyaga kirishuvchi elementlarga uzatiladigan

signallar. Shunday qilib, perseptronlar kirish stimullari va kerakli chiqish reaktsiyasi o‘rtasida "assotsiatsiyalar" to‘plamini yaratishga imkon beradi [7]. Biologik nuqtai nazardan, bu, masalan, vizual ma’lumotlarning neyronlarning fiziologik reaktsiyasiga aylanishiga mos keladi.

Perceptron klassik mashinalarni o‘rganish muammolarini (tasniflash, regressiya) yechishda alohida model sifatida ham, murakkabroq modellarning bir qismi sifatida ham ishlatiladi.


**Radial asosli funksiyalar** tarmog‘i radial elementlardan va chiziqli elementlarning chiqish qatlidan iborat yashirin qatlama ega bo‘lgan neyron tarmoq turidir (2-rasm). Bu turga mansub tarmoqlar ixcham hisoblanadi va tez o‘zlashtiriladi [16]. Birinchi marta Radial asosli funksiyalar tarmog‘i Broomhead va Loular tomonidan 1988 yilda hamda Moody va Darkinlar tomonidan 1989 yilda tilga olingan. Ushbu turdagi tarmoqlar quyidagi xususiyatlarga ega: bitta yashirin qatlam mavjud, faqat yashirin qatlamning neyronlari chiziqli bo‘lmagan faollashtirish funksiyasiga ega hamda kirish va yashirin qatlamlarga tegishli sinaptik og‘irliklar birga teng.



2-rasm. Radial asosli funksiyalar tarmog‘i arxitekturasi

O‘z-o‘zini tashkil etuvchi xaritalar yoki Kohonen tarmoqlari - bu o‘qituvchisiz o‘qitilgan va tanib olish, bashorat qilish va yaqinlashtirish masalalarida muvaffaqiyatli qo‘llaniladigan tarmoqlar sinfidir. Mazkur tarmoq strukturası 3-rasmida keltirilgan. Ushbu toifadagi tarmoqlar kirish ma’lumotlaridagi yangilikni aniqlay oladi: agar o‘rganishdan so‘ng tarmoq ma’lum namunalarning birortasiga o‘xshamaydigan ma’lumotlar to‘plamiga duch kelsa, u bu to‘plamni tasniflay olmaydi va shu bilan uning yangiligini ochib beradi. Kohonen tarmog‘i faqat ikkita radial elementlardan iborat bo‘lgan kirish va chiqish qatlamlaridan iborat [1,6,10].

Kohonen tarmoqlari vizualizatsiya va birlamchi ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi.



3-rasm. Kohonen tarmog‘i

1-jadvalda SNTlar yordamida hal qilinadigan iqtisodiy muammolar keltirilgan.

1-jadval

*SNT lar va ular hal qiladigan iqtisodiy muammolar*

Muammo turi	Qo'llaniladigan SNT
Prognozlash muammosi	perseptron Radial asosiy funktsiyalar tarmog‘i
Approksimatsiya muammosi	perseptron Radial asosiy funktsiyalar tarmog‘i
Optimallashtirish muammosi	Kohonen tarmog‘i

Jadvalda tavsiflangan vazifalarni hal qilish aniq neyron tarmoqlarning kattaliklar orasidagi funktsional bog‘liqlikni faqat kirish va mos keladigan chiqish qiymatlari asosida aniqlash qobiliyati tufayli mumkin. Funksianing yaqinlashuvini alohida masalaga olib tashlash neyron tarmoqlari keng ko‘lamli qo'llaniladigan masalalarda qo'llanishi bilan bog‘liq, masalan: prognozlash, filtrlash, tekislash, optimallashtirish, ob’ektni boshqarish kabi aniq va yashirin ifodalangan funktsional bog‘liqliklarni yaqinlashtirish uchun keng strukturaviy va parametrik noaniqlik sharoitida, moddiy ob’ektlarni loyihalash va boshqalar kabi [3,8,9].

Neyron tarmoqlarni amaliy qo'llash, ayniqsa loyihalash muammolarida, shu jumladan moddiy ob’ektlarni sintez qilishda, ushbu aniq sohaga xos xususiyatlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish bilan bog‘liq, shuning uchun ularni hal qilishga yondashuvlar klassiklardan farq qilishi kerak.

Funktsiyani taxminiy baholash uchun an'anaviy ravishda nochiziqli faollashtirish funktsiyasiga ega bo'lgan ko'p qatlamlı neyron tarmoq qo'llaniladi, u teskari tarqalish algoritmi yordamida o'rganiladi. Ikki qavatli neyron tarmoq har qanday uzluksiz funktsiyani taxmin qilish uchun yetarli ekanligi isbotlangan, ammo uchta qatlamdan foydalanish maqbuldır. Bunday arxitektura va o'rganish usulini qo'llashda ikkita asosiy muammo mavjud: tarmoq paralizi va o'rganish algoritmini mahalliy minimal darajaga yetkazish.

Tarmoq paralizi sinaptik ulanishlarning og'irlik koeffitsientlarining sezilarli o'sishiga olib keladi, natijada neyronning boshlang'ich qiymatlari ko'tariladi (bu faollashtirish funktsiyasining keskinligi past bo'lgan joylarga mos keladi). Bu, o'z navbatida, faollashtirish funktsiyasi hosilasi qiymatining pasayishiga olib keladi va shunga mos ravishda teskari kurs davomida xatoning kattaligi kamayadi, o'rganish deyarli to'liq to'xtashgacha sekinlashadi. O'rganish paytida tarmoqning mahalliy minimal darajaga tushishi hisoblash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq (masalan, gradient tushish usulidan foydalanganda u ko'pincha o'zini namoyon qiladi). Mahalliy minimal nuqtada barcha yo'naliishlarda harakatlanish o'rganish xatosining oshishiga olib keladi va tarmoq undan o'z-o'zidan chiqqa olmaydi.

Neyron tarmoqlar optimallashtirish muammolarida ancha foydali hisoblanadi. Masalan, tovar-pul oqimlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish jarayonlari, logistika, risklarni baholash. Bugungi kunda har qanday marketing tadqiqotlari neyron tarmoqlardan foydalanish bilan birga olib boriladi va bu natijalarni sezilarli darajada yaxshilaydi. Bundan tashqari, hozirda ilgari faqat ekspert baholash usuli bilan tahlil qilinishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni qisman bo'lsa ham baholash mumkin.

Sun'iy neyron tarmoqlar nazariyasi mavjud bo'lganiga yarim asrdan kamroq vaqt ichida ularni ko'plab real muammolarni hal qilishda qo'llash samaradorligi isbotlangan. SNT moliyaviy bozorda tahlil va bashoratlashda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelmoqda:

- Yangi mahsulot/xizmatga talab darajasini bashorat qilish;
- Bank mijozlarining to'lov qobiliyatini baholash;
- Ko'p sonli ko'rsatkichlar asosida loyihibar samaradorligini baholash;
- Xavf-xatarni baholash;
- Savdo hajmini bashorat qilish.

Neyron tarmoqlar fanning robototexnika va boshqaruv tizimlari kabi sohalarida juda keng tarqalgan. Buning yaqqol misoli sifatida o'zini "tirik" mavjudot kabi tutadigan, individual xarakterli xususiyatlarga ega bo'lishi va o'qitilishi mumkin bo'lgan elektron maishiy texnikalarni ko'rsatish mumkin [5].

Muammoni hal qilish uchun faqat aniq algoritmni yaratish mumkin bo‘lgan har qanday sohada neyron tarmog‘ini qurish printsipi o‘rnataladi: matnni aniqlash, alohida rasm elementini tanlash, musiqa yozish, ob-havo bashorati va boshqalar.

Neyron tarmoqlarni qurishning juda samarali printsipi: bir-biridan mustaqil eng oddiy kompyuterlar tomonidan ma’lumotlarni taqsimlangan qayta ishslash.

### Xulosa

SNT oddiy hisoblash qurilmalarini birlashtirish printsipiga asoslanadi hamda ulardan kuchli dasturiy ta’mnot, yuqori darajadagi ishonchlilik va parallelilik shartlarini bajarishga ega hisoblash tizimlarini yaratishga qodir.

Shunday qilib, neyron tarmoqlar o‘zining moslashuvchanligi va ko‘p qirraliligi tufayli keng ko‘lamli amaliy muammolarni hal qilish uchun samarali vositadir. Biroq, ulardan foydalanish odatda ma’lum bir amaliy qo‘llashga xos bo‘lgan masalalarni hal qilish bilan bog‘liq.

Neyron tarmoqlarning arxitekturasi va o‘rganish qoidalari, qoida tariqasida, situatsion xarakterga ega - ular ma’lum (yoki bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir guruh) vazifalarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan, shuning uchun ularning ishining tamoyillari va xususiyatlarini tushunish muhimdir, bu tayyor o‘qitilgan ma’lumotlarni tanlash yoki yangi o‘quv algoritmlarini ishlab chiqish masalasiga professional yondashish zarur.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Бодянский Е.В. Искусственные нейронные сети: архитектуры, обучение, применения / Е.В. Бодянский, О.Г. Руденко — Харьков: ТЕЛЕТЕХ, 2004. — 369с.
2. Гайнуллин Р. Н. и др. Прогнозирование бизнес-процессов на основе нейронных сетей // Вестник Казанского технологического университета. – 2017. – Т. 20. – №. 3.
3. Гусева, Анна Ивановна. Вычислительные системы, сети и телекоммуникации: учебник для студентов вузов / А. И. Гусева, В. С. Киреев. - М.: Академия, 2014. - 288 с.
4. Катасёв А. С., Катасёва Д. В., Кирпичников А. П. Нейросетевая биометрическая система распознавания изображений человеческого лица // Вестник Казанского технологического университета. – 2016. – Т. 19. – №. 18.
5. Климанов С.Г. Долгосрочное прогнозирование объемов продаж продукции компаний на международных рынках обогащенного урана в условиях ограничений и квот/С. Г. Климанов и [др.] // Вестник национального

исследовательского ядерного университета "МИФИ". - 2016. - т. 5, № 3. С. 254-261.

6. Круглов В.В. Искусственные нейронные сети. Теория и практика / В.В. Круглов, В.В. Борисов. — М.: Горячая линия — Телком, 2002. — 382с. — ISBN 5-93517-031-0.
7. Посмаков Н.П., Емельяненко А.С. Архитектура нейронной сети // ТПИ Наука. – 2017. – №6(18) – С.34-43.
8. Сидоренко Е.В. Средства визуализации и отображения взаимосвязей финансовых показателей в системах поддержки принятия управленических решений / Е. В. Сидоренко, А. Н. Тихомирова; рец. А. И. Гусевой // Аудит и финансовый анализ. - 2010. - N 2. - С. 354-357
9. Тихомирова А.Н., Сидоренко Е.В. Математические модели и методы в логистике: Учебное пособие. - М.: НИЯУ МИФИ, 2010. – 320с.
10. Хайкин С. Нейронные сети. Полный курс / С. Хайкин — М.: Вильямс, 2006 — 1104 с.
11. Червяков Н. и др. Применение искусственных нейронных сетей и системы остаточных классов в криптографии. – Litres, 2018.
12. Amari S.I. Statistical theory of learning curves under entropic loss criterion / S.I. Amari, N. Murata // Neural Computation. — Vol. 5, N 1. — 1993. — P. 140–153.
13. Goodfellow I. Deep Learning / Goodfellow I., Bengio Y. and Courville A.; Cambridge MA: MIT Press [2017] – 777 pages.
14. LeCun Y. Deep learning / Y. LeCun, B. Yoshua, H. Geoffrey // Nature. — Vol. 521, N 7553. — 2015. — P. 436–444.
15. McCulloch W.S. A logical calculus of the ideas immanent in nervous activity / W.S. McCulloch, W. Pitts // The bulletin of mathematical biophysics. — Vol. 5, N 4. — 1943. — P. 115–133.
16. Rosenblatt F. The Perceptron: a probabilistic model for information storage and organization in the brain/ F. Rosenblatt // Cornell Aeronautical Laboratory, Psychological Review — 1958 — vol.65, No. 6 — P. 386—408.
17. Rumelhart D.E. Learning representations by back-propagating errors / D.E. Rumelhart, G.E. Hinton, R.J. Williams // Cognitive modeling. — Vol. 5, N 3. — 1988. — P. 213–220.

# ПРОПИЛЕН ГОМО- ВА СОПОЛИМЕРЛАРИ АСОСИДА ОЛИНГАН ИККИЛАМЧИ ХОМАШЁЛАРИНИНГ ТЕРМООКСИДЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ

**Сапашов Икрамжан Яумытбаевич**

Бухоро мухандислик – технология институти, таняч докторанти.

**Фозилов Садриддин Файзуллаевич**

Бухоро мухандислик-технология институти профессор,  
техника фанлари доктори.

[sapashov85@mail.ru](mailto:sapashov85@mail.ru)

**Аннотация:** Ушбу маколада пропилен гомо- ва сополимерлари асосида олинган иккиламчи хомашё материалларининг термооксидланиши ўрганилган. Полиолифинга асосланган пайвандланган сополимерларни турли йўллар билан олиши муҳакама қилинган бўлиб, уларнинг олиниш йўллар усуллари келтирилиб ўтилган. Сополимерланиш механизми, радикалларнинг маънбалар, полимерларнинг оксидланиш мумкин бўлган йўналишлари келтирилиб ўтилган. Олинган иккиламчи хом ашёнинг оқилона фойдаланишига тўсқинлик қилувчи асосий муаммолари ва уларни хал қилишнинг турли усуллари муҳакома қилинган.

**Калит сўзлар:** полипропилен, гомополимер, сополимер, кимёвий модификациялаш, пайвандлаш, радикал, термооксидланиш.

**Abstract:** In this article, the thermal oxidation of secondary raw materials obtained on the basis of propylene homo- and copolymers has been studied. The preparation of graft copolymers based on polyolefin by various methods is discussed and methods for their preparation are presented. The mechanism of copolymerization, sources of radicals, directions of possible oxidation of polymers are presented. The main problems that impede the rational use of the obtained secondary raw materials and various ways to solve them are discussed.

**Key words:** polypropylene, homopolymer, copolymer, chemical modification, welding, radical, thermal oxidation.

Полипропилен бошқа полиолефинлар орасида енг юқори талабга ега бўлиб, полиолефинларга бўлган умумий талабнинг 40 % ини ташкил етади. Полипропиленга бўлган глобал талаб 2012 йилда 47 миллион тоннагача бўлган бўлса, 2032 йилга қадар йилига 4,2 % га ўсиши бошорат қилинмоқда.

Полипропилен тузилиши жиҳатидан (изо-, синдио-, атактик, стереоблок) макромолекулаларидан ташкил топган бўлиб физикавий, механик ва кимёвий хоссалари билан жуда катта фарқ қиласи.

Республикамизда биринчи полипропилен гранулаларини ишлаб чиқариш, Uz-Kor Gas Chemical корхонаси ишга туширилиши билан амалга оширилди. Бу ўз навбатида ички бозорнинг полипропиленга бўлган талабини қондириш билан бирга экспорт салоҳиятига ҳам ўз ҳиссасини қўшмоқда.

Тадқиқот учун танлаб олинган полипропилен ишлаб чиқариш жараёнинг иккиласми маҳсулоти ҳисобланган полимер кукунинг ҳеч қандай қўшимчаларсиз ўрганилганда 97-98 % гача изотактик 2-3 % атактик қисмларни ташкил қилиши ўрганилди. Адабётларга таянадиган бўлсак изотактик полипропилен юқори қайновчи *n*-алканларда эrimайди, юқори ҳароратда ароматик углеводородларда чекланган даражада эрийди. Атактик полипропилен *n*-гептанда ва қўпгина ароматик углеводородларда яхши эрийди.

Изотактик ва атактик полипропилен 140 °Сда п-ксилолда эрийди, эритма 25 °С гача совитилганда изотактик қисми чўкади ва атактик қисми п-ксилолда эрийди. Ажратиб олинган атактик қисмга радикал механизм пайванд сополимерланиши амалга ошириш мумкин. [1].

ПП толасини оксидланиши толуол муҳитида ҳаво кислороди иштирокида 70-120 °С ҳароратда радикалли инициаторлар иштирокида ва улар иштирокисиз ўрганилган [2].

Полимерларни кимёвий модификациялашдан мақсад уларнинг кимёвий тузилишини бошқа кимёвий табиатли функционал гуруҳни макромолекула таркибига кириш йўли билан ўзгартиришдан иборатdir. Баъзи ҳолларда кимёвий модификациялаш усули ҳажм бўйича материаллар хоссасини ўзгартирмаган ҳолда полимер юзаси тавсифини яхшилаш учун зарур бўлади, шунингдек бунда полимер материал шакли (тола, плёнка, ҳажмли буюмлар) ҳам ўзгармайди. Бу шунинг учун зарурки, масалан, материалнинг керакли йўналишдаги хоссалари ҳўлланиш, сорбцияланиш, адгезияланиш ва электрик тавсифи ўзгаради. Полимерларни самарали модификациялаш усулларидан бири тикилган полимерларни олишdir.

Полимер материалларнинг юзасини модификациялашни самарали усулларидан бири оксидлаш ҳисобланади, маълумки 90 °С ҳароратдан пастда жараён асосан юзада боради, термооксидланиш деструкцияси полимер ҳажми бўйича бормайди. Оксидланиш полимер юзасини олдиндан фаоллаштиришни қулай усули бўлиб натижада кейинчалик кимёвий модификациялаш фаол маркази бўлган кислород сақлаган функционал гуруҳлар ҳосил бўлишига олиб келади. Масалан, полиолефинлар (полиэтилен, полипропилен) оксидланганда

гидроксил гурухлар ҳосил бўлиши амалга ошади. Сўнгра гидроксил гурухларларни термик парчаланиши натижасида юзада эркин радикаллар ҳосил бўлади ва тикилган занжир ўсишини инициирлади.

Полиолифинга асосланган пайвандланган сополимерларни турли йўллар билан олиш мумкин, аммо улардан фақат бир нечтаси амалий аҳамиятга эга бўлади. Буларга, биринчи навбатда, макромолекуляр эркин радикал инициаторларидан фойдаланган холда модификацияга учрайди.

Бундай инициаторларни, масалан, полиолефинларнинг оксидланиши билан кўп функцияли инициаторларни гидроперекис гурухларини киритиш билан олиш мумкин.

Полипропилен макромолекуласининг чидамли полимер пероксидларни ҳосил қилиш қобиляти кўп жиҳатдан унинг тузилишига боғлиқ. Атактик полипропиленнинг оксидланиши айниқса асон. Ушбу усуслардан фойдаланиб, Ц.Натта [3-4] стирол, метилметакрилат ва винилхлоридни полиолефинларга пайванд қилди. Маълум бўлишича, пероксид бирикмаларнинг шакилланиши полимерларни сезиларли даражага учратмасдан 70-80 °C да содир бўлади. Изотактик полимерларнинг гидроперокисидланиши фақат кристаллар юзасида ёки кристалларро аморф минтақаларда амалга оширилади. [3].

Худди шундай, пероксидланган полипропиленга винил ацетат, 2-ва 4-винилпиридин, метил метакрилат ва винилхинолин пайванд қилинган. [3-5].

Полиолефинларнинг сувли суспензияда оксидланишининг ўзига хос усули француз тадқиқотчилари томонидан таклиф қилинган. Сувда полипропилен кукунининг суспензияси (заррача ҳажми 100-600 микрон) орқали кислород ва озон аралашмаси кўпикланади. Азот пуфлангандан сўнг, суспензияга 2-винилпиридин қўшилади ва пайвандланган сополимерлар азот оқимида суспензияни иситиши орқали амалга оширилади. [6].

Винилпиролидон, акриламид ва бошқа мономерларнинг пайвадланган сополимеризацияси орқали полипропиленни ўзгартириш органик пероксидлар ва кўчли Люис, Бронстед кислоталари иштироқида амалга оширилади. [7]

Гидропероксиднинг парчаланиши натижасида мономернинг гомополимерланишига олиб келувчи OH радикаллари ҳосил бўлади. Ушбу ён реакцияни истисно қилиш учун оксидлавчи-қайтарувчи тизимларидан фойдаланиш таклиф қилинди. Дастреб, ушбу тизимларнинг илмий самараси церий тузларида спиртлар, тиоллар ва бошқалар каби органик қайтарувчи моддалар мавжудлигига топилган. [8]

Муаллифлар [9] полиакрил кислота  $\text{FeSO}_4$  иштироқида изотактик полипропилен билан пайванд қилиган.

Бундан ташқари, фотокимёвий модификация, эъхтимолий жиҳатдан бошқа реакциялар билан бирга бўлиши мумкин. Т. Олисика [10] хлорли изотактик полипропиленга мономерларни пайвандлашни ўрганиб чиқди ва бу ҳолда сополимерланиш иккита рақобатлашувчи механизм орқали амалга оширилади деган холосага келди:

- 1) С-С<sub>1</sub> боғининг ажралиши пайтида ҳосил бўлган макрорадиал билан пайвандлаш,
- 2) аморф минтақаларда учламчи углерод атомларида ҳосил бўлган гидропероксидларнинг парчаланиши натижасида парчалаш. Бунда ўрганилган тўртта мономердан метил метакрилат енг яхши пайвандланган ҳисобланади.

Радикалларнинг манбалари сифатида бензоил пероксид, лауройл пероксид, кумен пероксид, азобизобутироитрил, гидропероксидлар ва бошқалардан фойдаланиш таклиф этилади. [11]


Ўз-ўзидан кўриниб турибдикি, материалларнинг керакли шаклини яратиш учун юзани кимёвий модификациялашни мураккаб технологиясини яратишга иқтисодий харажатлар сарфлаш зарурияти йўқ. Шунинг учун ишлаб чиқариш жараёнларинг иккиласми маҳсулотлари бўлган иккиласми полипропилен кукунини юзасини оксидлашини ва улар асосида маҳсулотлар олишнинг оддий ва технологик усуllibарни ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Полипропилен майдо кукуни нисбатан паст зичкли, кимёвий барқарорлиги ва орzon нархларда бўлганлиги сабаб корхоналарда уни ийғилип қолиши холатлари кўзатилмаганлигдан муомма тариқасида қаралмайди. Полипропиленни қимматли хусусиятлари асосан уни кристаллик даражасини юқори бўлиши билан боғлиқ бўлганлигидан, уни олишда ишлатиладиган катализаторлар юқори стереоспецификликка эга бўлишлари керак. Ушбу муоммалар юзасидан полипропилен майдо кукунини чиқиши миқдорини камайтириш бир қанча мушқул вазифалардан ҳисобланади, бундан ташғари этилен қўшилувчи маркаларда эса майдо кукун умуман чиқиши кўзатилмайди лекин полипропилен маҳсулотинг гомополимер полипропиленга талаб катта ҳисобланганлиги сабаб хом-ашёning чиқиши миқдори анча катта.

Сўнги вақтларда атактик полипропилен чиқиндиларини янги ва истиқболли қайта ишлаш йўналишлари қўйдагича: Атактик полипропиленни термик-оксидлаш усули билан кимёвий модификациялаш [12], битум-полимер боғловчилари (БПБ)[13], эзилган тош-мастик асфалт-бетон учун стабилизаторлар [14], антикоррозион материаллар [15], термопластик зичлантиргичлар (герметик) [16], моддалар, материаллар ва маҳсулотлар учун кимёвий маркерлар [17].

Полимерларнинг оксидланиш мумкин бўлган қўйдаги учта йўналишни келтириш мумкин:


1. Углерод занжирини бўзмасдан, яъни углерод атомлар сони ўзгаришсиз қолади.
2. Оксидланиш корбонил ва гидроксил қош боғлари ҳосил бўлиши орқали ўтади.
3. Углерод занжирининг узулиши билан қўш ва битта боғланишда оксидланиши мумкин. Атактик полипропиленда (С-Н боғи) енг заиф хисобланади.



**Расм-1. IRAffinity-1S FOURIER TRANSFORM INFRARATED SPECTRO-PHOTOMETER (SHIMADZU) да олинган қўйи молекулали полипропиленнинг ИК спектри.**

Қўйи молекулали полипропилен (1-расм) ва метилакрилатнинг пайванд сополимерининг (2-расм) ИК спектри IRAffinity-1S FOURIER TRANSFORM INFRARATED SPECTRO-PHOTOMETER (SHIMADZU) да олинди.

1-расмдаги қўйи молекулали полипропиленнинг ИК спектридан кўриниб турибдики, 2848,86 см⁻¹ ютилиш соҳаси CH<sub>3</sub> гуруҳидаги С-Н боғининг  $\gamma_{\text{сим}}$  тебранишларига, шунингдек 1462,04 см⁻¹ ютилиш соҳаси CH<sub>3</sub> гурухи С-Н боғининг  $\delta_{\text{асим}}$  деформацион тебранишига тегишлидир.



**Расм-2. IRAffinity-1S FOURIER TRANSFORM INFRARATED SPECTROPHOTOMETER (SHIMADZU) да олинган қүйи молекулали полипропилен ва метилакрилатнинг пайванд сополимерининг ИК спектри.**

ИК спектри (2-расм) дан кўриниб турибдики,  $2866,22\text{ см}^{-1}$  ютилиш соҳаси  $\text{CH}_3$  гурухидаги С-Н боғининг  $\gamma_{\text{сим}}$  тебранишларига,  $2958,80\text{ см}^{-1}$  ютилиш соҳаси ушбу гурухни  $\gamma_{\text{асим}}$  валент тебранишларига, шунингдек  $1375,25\text{ см}^{-1}$  ютилиш соҳаси С-Н боғининг  $\delta_{\text{асим}}$  деформацион тебранишига,  $2918,30\text{ см}^{-1}$  ютилиш соҳаси  $\text{CH}_2$  метилен гурухи С-Н боғининг  $\gamma_{\text{сим}}$  валент тебранишларига,  $2839,22\text{ см}^{-1}$  ютилиш соҳаси  $\text{CH}_2$  метилен гурухи С-Н боғининг  $\gamma_{\text{сим}}$  валент тебранишларига,  $2357,01\text{ см}^{-1}$  ютилиш соҳаси С-О гурухи тебранишига,  $1734,01\text{ см}^{-1}$  ютилиш соҳаси С=О гурухи тебранишига,  $1166,93\text{ см}^{-1}$  С-С боғининг деформацион тебранишларига тегишлидир.

Паст молекулали полипропиленни оксидланиш маҳсулотлари полиметил алмаштирилган алканларнинг ягона молекуляр оғирлиги тақсимотига эга сабаб дизель ёқилғилари учун кўндиrmалар олиш имконини беради.

Бундан ташқари атактик полипропилен макромолекуласининг кимёвий тузилиши, 15 % қўш боғни ўз ичига олади бу эса полимерларнинг кимёвий ва термомеханик модификациясини амалга ошириш имконини беради.

Бу эса ўз ўрнида махаллий иккиласи хом ашёлар асосида дизель ёқилғилари учун кўндиrmалар ишлаб чиқаришни ташкил этишга асос бўлиб хизмат қиласи.

**Адабиётлар рўйхати:**

1. Сапашов И.Я., Фозилов С.Ф. (2022). Полипропилен кукуни асосида дизель ёқилғилари учун қўндирилалар ишлаб чиқиши. *Қорақалпоғистон минтақасида олий таълим ва илм-фан тараққиётида Қорақалпоқ давлат университетининг ўрни: кеча, бугун, эртага (Қорақалпоқ давлат университетининг ташкил этилганлигининг 45 йиллигига бағишиланади) мавсусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами.* 127.
2. Базунова М.В., Хакимзянов Р.И., Бабаев М.С., Колесов С. В. (2008). Окисление отходов волокнистых и пленочных материалов из полиэтилена и полипропилена. *Вестник Башкирского университета.* Т. 13. №3. с. 501.
3. Natta G.J. *Polym. Sci.*, 1959. vol. 34. p. 685.
4. Nalla G. *Cliim. Ind.*, 1965, vol. 47, p 14
5. Патент. 618950 Канада. 1961
6. Пат. 2292715. Франция. (1977) Опубл. в РЖХим, № 15, 15C276П
7. Филимошкин А.Г., Воронин Н.И. (1988) *Химическая модификация полипропилена и его производных.* Томск.
8. Mino G., Kaiserman S. J. (1958). The new method of synthesis of graft copolymers. *Polymer Sci.* Vol. 31. - P. 242.
9. Жун-Жуй У. (1961). *Хим. Волокна.* 15, 18
10. Ohsika T. Kogyo Kagaku Zasshi. (1961). vol. 64, p. 1864
11. Заявка на пат. № 55-2589 Япония. (1980).
12. Патент РФ № 2301812. (2007). *Окисленный атактический полипропилен с полярными функциональными группами, способ его получения и установка для осуществления способа.* Бюлл. № 18, Нехорошев В. П., Регнер В. И., Нехорошева А. В., Гаевой К. Н
13. Патент РФ № 2181733.(2002). *Битумно-полимерное вяжущее.* Бюлл. № 12, Нехорошев В. П., Попов Е.А., Нехорошева А.В.
14. Заявка на изобретение РФ № 2007107626. (2008) *Стабилизатор для щебеночно-мастичного асфальтобетона.* Бюл. № 25, Киселев М.А., Воронина А.Н., Веник В.Н., Эфа А.К., Базуев В.П.
15. Попов Е.А., Нехорошев В.П., Нехорошева А.В. (2002). *Модифицированная антакоррозионная композиция на основе пушечной смазки // Химия и техн. топлив и масел.* № 4, С. 35-36 3. М. В.
16. Патент РФ № 2309969. (2007) *Термопластичный герметизирующий материал и способ его получения.* Бюл. № 31, Нехорошев В. П., Лапутина Г. М., Коновалов С. И., Колесов А. В., Нехорошева А. В., Гаевой К. Н.
17. Гаевая Л. Н. (2010). Маркировка дизельного топлива. *Мат. X Окружной конф. «Наука и инновации XXI века».* Сургут, Т. 1. С. 85-86

UDK 629.114.2.002

## ОСНОВНЫЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ТРАНСПОРТНЫХ МАШИН

Доцент Г.К.Убайдуллаев

Ташкентский государственный транспортный университет

[gayratubaydullaev1948@gmail.com](mailto:gayratubaydullaev1948@gmail.com)

стар. преп. Н.Т.Эргашев

Ташкентский государственный транспортный университет

[ergashev\\_nurillo@mail.ru](mailto:ergashev_nurillo@mail.ru)

стар. преп. А.М.Рашидов

Ташкентский государственный транспортный университет

[azicko0812@gmail.com](mailto:azicko0812@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются основные закономерность и современные тенденции развития транспортных машин. Анализируется фазы развития машин и отмечаются их характерные особенности. С учетом развития конструкции выпускаемых и используемых транспортных машин выделяется общие тенденции пути их развития.

**Ключевые слова.** Эволюционное и революционное стадии, фазы развития, тенденция развития, серийность, разномарочность, эксплуатационные затраты, материалоемкости машин, надежность, механические системы и единичная мощность.

### Введение

Главной закономерностью развития транспортных машин заключаются в чередования эволюционных и революционных стадий [1,2]. Эволюционная стадия характеризуется незначительным изменениям конструкции внесением в нее усовершенствований и накопления научно-технической информации.

В процессе эволюции машин можно выделить три фазы ее развития.

В начальной фазе (см. рис 1) происходит зарождение новой конструкции машины и рост ее функциональных параметров. Причём рост параметров незначительная, но оно имеет тенденцию к возрастанию.

В центральной фазе происходит интенсивные развития конструкции машин. В этой фазе наблюдается наибольшая скорость возрастания параметров. Однако примерно в середине фазы происходит перегиб кривой, после которого скорость приращения параметров начинает непрерывно уменьшаться под влиянием сдерживающих факторов для данного вида машин [3,4].

В заключительной фазе, который охватывает период морального старение в конструкции машин исчерпывается возможности их дальнейшего совершенствования на старых принципах. В этой фазе развития скорости приращения параметров небольшая и это имеет тенденцию к уменьшению. При этом только принципиально новые решения даёт качественный скачок параметров и преодолевает сдерживающие факторы [5].

Замена старых машин новыми работающими на совершенно иных принципах означает революционную стадию их развития.




Рис 1. Логическая S – образная кривая развития машин.

$0 - t_a$  начальная фаза,  $t_a - t_b$  центральная фаза и  $t_b - t$  заключительная фаза.

Эволюционная стадия подготавливает условия коренных качественных изменений замены традиционных машин принципиально новыми, т.е. переход к революционный стадии развития.

Преодоление противоречий, единство и борьба противоположностей является другой закономерностью развития машин.

У машин есть несколько важнейших параметров, характеризующих степень их совершенство и их возможности. Это масса, габаритные размеры, мощность, производительность, безопасность, надежность и т.п. Между этими параметрами существует определении взаимосвязи. Так не ед. **мощности** требуется определенная масса конструкции. Чтобы улучшить один параметр приходится поступиться другим параметром.

Разработчик, учитывая конкретные условия должен выбрать наиболее благоприятное сочетания параметром, в чем-то выиграть, в чем-то проиграть. При этом выигрыш должен превалировать над проигрышем. При принятии решения, необходимо выделите главное. Если не удается выделить главное, то надо определить допустимое. Допустимое-это некоторое невыполнения заданных технических условий, то из принятия компромиссного решение для решение конкретной технической задачи.

С учетом развития конструкции выпускаемых и используемых транспортных машин можно выделить общие тенденции их развития. Оно включает:

- расширение ассортимента выпускаемых машин;
- ускорение темпов сменяемости моделей машин;
- усложнение конструкции машин;
- увеличение единичной мощности;
- улучшения качестве, повышение надежности и долговечности.

Эти тенденции взаимно тесно связаны и взаимообусловлены.

Ассортимент, это модельный (номенклатурный) ряд в которые проявляется стремления как можно полнее и качественнее удовлетворить разнообразные запросы потребителей, создать достаточно широкий по параметрам и возможностям диапазона машин, которые были бы эффективны в различных условиях эксплуатации.

Развития автоматизации, передача машине все большего число функции вызывает обрастание машины новыми функциональными системами, агрегатами и сменными приспособлениями. Это естественно приводить к усложнению их конструкции.

Усложнение конструкции нельзя рассматривать как положительное явления. С увеличением число деталей и сборочных единиц повышается себестоимость, следовательно, цена машины. Усложнение конструкции ведет также к снижению ее надежности, усложнении обслуживания и ремонта, возрастанию потребности в заплечных частях, то из росту эксплуатационных затрат. Однако устранение этих негативных последствий можно достичь

совершенствованием технологи и применением новых конструкторско-технологических решений.

Возрастание темпов научно-технического прогресса развития производство и потребления находит также свое отражение в ускорение обновление машин. Интенсивность смены моделей машин переопределяется в первую очередь освоением новых моделей, а также снятием с производство старых. Однако в условиях рынке смен моделей также зависит от конкуренции и рыночных позиций.

Тенденция увеличение единичной мощности характерно для развития многих видов машин. Первые машин определенного конструктивного исполнения создаются где-то средней величины по мощности и размерам применительно к наиболее распространение условиям. А затем начинается их развития в двух противоположных направлениях. При этом идет увеличение размерных и мощностях параметров и одновременно создаются конструкции более миниатюрные машины.

Тенденция улучшение качество повышение надежности и долговечности отчетливо проявляется при смене моделей машин. Каждая новая модель машины по своим технику - эксплуатационным показателям (удельной мощностью, удельной полезной нагрузкой, эксплуатационной надежностью, долговечностью, комфортабельностью, удобством обслуживания, отделка и.т) существенно превосходит предыдущую моделям того же класса.

Улучшение показателей машин является следствием не только совершенствование их конструкции, но и совершенствованном технологи их производство.

На современном этапе машинной техники особенно актуальной является проблемы повышение надежности и долговечности. Это объясняется усложнением конструкции и довольно высокими затратами при эксплуатации машин. Затраты на ремонт и обслуживание грузовых автомобилей за весь амортизационный срок службы 3-4 раза превышает себестоимость их изготовления).

В связи с этим необходимо проведение научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы по совершенствованию деталей, сборочных единиц и агрегатов лимитирующее надежности и долговечность машин.

## Литература

1. Кац Г.Б., Ковалев А.П. Технико-экономический анализ и оптимизация конструкций машин. М.: Машиностроения, 1989.
2. Мелиев Х. О. и др. Универсал шасси трактор тиркамаси кузов платформасининг легирланган ва оддий углеродланган пўлат материаллардан фойдаланган ҳолда кучланганлик-деформатсияланиш ҳолатини сонли таҳлили //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1107-1113.
3. Shermukhamedov A. et al. Substantiation of the parameters of the wheel propeller tread lugs //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – Т. 2432. – №. 1. – С. 030089.
4. Shermukhamedov Abdulaziz, & Ergashev Nurillo. (2022). Analysis of studies on the justification of the parameters of the brake system of auto-tractor trailers. *research and education*, 1(6), 91–94. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/re/article/view/12>
5. Abdulaziz Shermukhamedov, Nurillo Ergashev, Abdukhamid Azizov, Substantiating parameters brake system of the tractor trailer. E3S Web of Conferences 264, 04019 (2021) CONMECHYDRO – 2021 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126404019>.

**QURILISH - MONTAJ ISHLARIDA GEODEZIK SIFAT NAZORATI****Bozorov Malik Maxmudovich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

[Bozorovmalik1984@gmail.com](mailto:Bozorovmalik1984@gmail.com)**Mirzayev Jonibek Oltiyevich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

[qmii-jonibek.mirzayev@mail.ru](mailto:qmii-jonibek.mirzayev@mail.ru)**Habibullayev Ma'murbek Ravshanbek o'g'li**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

[Habibullayevmamurbek99@gmail.ru](mailto:Habibullayevmamurbek99@gmail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qurilish - mantaj ishlari olib borilayotgan hududlarda bajariladigan geodezik ishlar va ularning sifatini baholash haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** qurilish. montaj. geometrik shakl. konstruksiya. bino o'qi, ijro nazorati. stansiya.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о геодезических работах и оценке их качества на участках, где ведутся строительные и ремонтные работы.

**Ключевые слова:** строительство. сборка. геометрическая форма. строительство. ось здания, исполнительный орган управления. станция.

**Abstract:** This article talks about geodetic works and their quality assessment in the areas where construction and maintenance works are being carried out.

**Keywords:** construction. assembly. geometric shape. construction. building axis, executive control. station.

Qurilish-montaj ishlarini bajarish jarayonida texnik standartlar va dizayn ishlariga rioya qilish kerak. Qurilish – montaj ishlarini ijro etuvchi mutaxassislar sifat nazorati bo'yicha ishlar aniqlik, berilgan hajm, geometrik shakl va loyihaning xususiyatlariga muvofiqligiga masul. Geodezik ishlar me'yoriy-texnik hujjatlar talablariga muvofiq tuzilmalarni buzish, qurish va o'rnatishni ta'minlaydi, tayyor binoning ishlashi xavfsizligini va avariya xavfining yo'qligini tekshiradi.

Geodezik o'lhash tashkilotlari konstruksiyalar, yig'ma elementlar o'rnatish sifati bo'yicha geodezik nazorat xizmatlarini taqdim etadi. Bunda mijoz ob'ektning to'g'ri konstruktiv holatida ekanligiga ishonch hosil qilishi va kerakli ekspertizalardan o'tkazilganligi to'g'risidagi xujjatlarni talab qilishi mumkin va bu xujjatlar qurilish jarayonida, tugagandan so'ng xulosa tuzish uchun nazorat ishlarida kerak bo'ladi.

### **Qurilish sifati uchun geodezik nazoratning maqsadlari**

Qurilishning turli bosqichlarida ishlab chiqarish nazoratining asosiy maqsadi - montaj ishlarining har bir yangi siklining talab qilinadigan qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq amalga oshirilayotganini tekshirish. Mutaxassislar qurilish ob'ektning konstruktiv qismlarining joylashuvi, muhandislik tarmoqlari loyihaga mos kelishiga ishonch hosil qilishlari kerak.



Qurilish maydonchasida o'tkaziladigan geodezik nazorat turlari:

- qurilish uchun geodezik baza yaratish bo'yicha ishlar;
- qurilish vaqtida hududni chegaralarini belgilashni amalga oshirish va binoning o'qlarini joyga o'tkazish;
- qurilish-montaj ishlarining to'g'riligini nazorat qilish va qurilishning har bir bosqichida strukturaning konstruktiv qismlarining joylashuviga muvofiqligini tekshirish;
- deformatsiya o'zgarishlari uchun ob'ektning konstruktiv elementlarini ko'taruvchi poydevorlarni geotexnik tadqiqotlar;

➤ o'rnatishdan so'ng nihoyat o'rnatiladigan strukturaviy elementlarning rejalahtirilgan va balandlikda joylashishini ijro etuvchi tadqiqot, shuningdek yer osti kommunal xizmatlarini haqiqiy joylashtirishni tekshirish.

Qurilishni sifatli bajarish uchun ob'ektning balandli va planli holatini ijro etuvchi tadqiqotidan foydalaniladi va elementlarni o'rnatish binoning har bir yangi qavati uchun bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Nazorat ishlarini bajarish uchun geodezislар yuqori aniqlikdagi umumiylar, stansiyalar, nishonlar, o'qlar va parallel chiziqlar qat'iy belgilangan joyga o'rnatishlari kerak.

### **Ijro nazorati o'lchovlarining bosqichlari**

Tadqiqotning birinchi bosqichida - yangi qurilish maydonchasi, magistral yoki muhandislik tarmoqlarini loyihalash uchun topografik tadqiqotlar olib boriladi. Joyda mavjud kommunikatsiya elementlarining joylashuvi qurilish maydonchasinga

geodezik asosi, tashqi markalash sxemasi yoki kapital qurilish ob'ektlarining tayanch nuqtalari aniqlanadi.




Ob'ektning geometrik shakli va parametrlarining to‘g‘riligini tekshirish uchun muhandislik kommunikatsiyalari va geodezik o‘lchovlarning nazorat tekshiruvni normativ qurilish ma’lumotlari va texnik hujjatlarda mavjud bo‘lgan og‘ish qiymatining 0,2 dan oshmaydigan xatosi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Keyingi bosqichda - strukturaning yer usti qismini qurish, devorlarning vertikalligi va

asoslarning gorizontal holatda ekanligi nazorat qilinadi. Qurilish sifatli va qo‘llab-quvvatlovchi tuzilmalar orasidagi o‘qlarning o‘lchamlari tekshiriladi. Geodeziya monitoringidagi olingan qiymatlar, plandagi qiymatlar bilan mosligi nazorat qilib boriladi.

### Nazorat natijalarini shakllantirish

Geodezik o‘lchashlar sifatini tekshirishning barcha natijalari ish jurnalida qayd etib borish kerak. Ob'ektning strukturaviy elementlarini nazorat qilish natijalari olinadi, strukturaning ijro etuvchi sxemasini tuzib boriladi. Yer ostida joylashgan kommunikatsiyalar uchun - shkalasi ishchi sxemalar shkalasiga mos keladigan chizmalar tuziladi.



Qurilish ishlarini qabul qilishda, o‘rnatilgan texnik hujjatlarni shakllantirishda nazorat so‘rovi natijasida tuzilgan sxematik va chizma tasviridan foydalaniladi. Ijro etuvchi sxemalar yangi o‘rnatilgan kommunikatsiyalar joylashuvining rejlashtirilgan va balandligi koordinatalarini aks ettirib boriladi.

Agar qurilish sifatini nazorat qilish jarayonida og‘ishlar aniqlansa, ular ishchi chizmalarda ko‘rsatiladi. Bu sabablarni bartaraf etish uchun

tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Obektning barcha o‘lchovlar natijalarini maxsus jurnallarda qayd etadi. Har bir bosqich uchun tomonlardan mas’ul mutaxassislar tayinlanadi. Odatda, geodezik bazani rivojlantirish, qurilayotgan binolarning deformatsiyasi buyurtmachining zimmasida, ammo qurilish-montaj ishlarining sifati pudratchi yoki subpudratchi tomonidan nazorat qilinishi kerak.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Авчиев Ш.К., Тошпўлатов С.А. «Инженерлик геодезияси» “Yosh kuch press matbuoti”, 2014й.
2. Avchiev SH. Amaliy geodeziya. Darslik. Voris – nashriyot, 2010.
3. Авчиев Ш.К., Тошпўлатов С.А. «Амалий геодезия» I - II-қисм, Тошкент, 2002.
4. Aylmer Johnson, Plan and geodetic surveying., CRC Press, 2014.
5. www.com

## МИКРОСЮРФЕЙСИНГ ТЕХНОЛОГИЯСИ ЁРДАМИДА ЮЗАГА ИШЛОВ БЕРИШНИНГ АҲАМИЯТЛАРИ

**Ибрагимов Жўрабек**

“Йўл лойиҳа бюроси” МЧЖ бўлим бошлиғи

**Annotation.** The article presents the application of repair works using the technology of microsurfacing with surface treatment of the pavement in the conditions of the Republic of Uzbekistan.

**Key words.** Microsurfacing, gauge.

**Аннотация.** Мақолада Ўзбекистон Республикаси шароитида қоплама юзасига сиртқи ишлов берган ҳолда микросюрфейсинг технологиясини қўллаган ҳолда таъмирлаш ишларини татбиқи келтирилган.

**Калит сўзлар.** Микросюрфейсинг, колея.

Ҳар қандай давлатда йўллар иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири ҳисобланади. Йўловчи ва юк ташишнинг катта қисми автомобиль транспортининг улушкига тўғри келади, бу эса ўз навбатида йўл қопламасининг ҳолатига таъсир қилади. Автотранспорт воситаларининг ўқдаги юки ва ташиладиган товарлар миқдорининг ошиши йўлларни куриш учун материалларга қўйиладиган талабларни ўзгартириш зарурлигига олиб келади[1].

Йўлларни эксплуатация даврида ғилдирак юкининг агресив таъсири ва битумнинг эскириши натижасида ёрилиш, эрозия ва ғилдирак изи пайдо бўлади. Ҳисоб-китоблар шуни кўрсатдики, йўлларнинг ўз вақтида таъмирланмаслиги натижасида уларни қайта тиклашнинг умумий қийматининг 3-4 баробар ошишига олиб келади.

Йўл тўшамаси конструкцияларининг юқори қатламларини ҳимоя қилиш ва уларнинг транспорт-эксплуатацион қўрсаткичларини тиклаш муаммоларини ҳал қилиш имконини берадиган ҳозирги илғор технологиялардан бири бу Микросюрфейсинг қатламларини ётқизишидир.


Микросюрфейсингни эскирган асфалтбетон қопламаларида, 10 мм дан ортиқ ёриклар, чукурликлар ва катта таъмирлашни талаб қиласидаган бошқа деформациялар мавжуд бўлганда қўллаш мумкин эмас[2].


Микросюрфейсинг куйидагилар учун ишлатилади: колеяни тўлдириш; йўл ёқасини кенгайтириш; кичик профилни тузатишда ишлатилиши мумкин[3].

Ўзбекистон Республикаси шароитида 4Р12 автомобиль йўлида микросюрфейсинг технологияси қўллаш эксперимент тариқасида тавсия этилди. Дастреб мавжуд юзадаги нуқсонлар бартараф этилади. Сўнгра икки қатламда юзага ишлов берган ҳолда микросюрфейсинг қўлланилади. Арадашма материали таркиби қуйидагилардан иборат бўлди:

- битум эмулсияси;
- сув;
- қум;
- цемент.

Таъмирлаш ишлари олиб борилаётган йўл участкасида ҳаракатни ташкил этиш схемаси ишлаб чиқилди:





Микросюрфейсинг технологияси ёрдамида юзага сиртқи ишлов бериш натижасида қопламанинг тишилашиш қоэффициенти, равонлиги яхшиланади, шунингдек қоплама юзасидаги нуқсонлар бартараф этилади. Қатнов қисм юзаси профили түғирланади. Автомобиль йўли мустаҳкамлиги ортади ва унинг хизмат қилиш муддати ортади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

4. К.Д. Памфилова, “Типовые конструкции дорожных одежд городских дорог”, Москва.
5. Р РК 218 -124-2014, МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ по применению защитного слоя износа из литых эмульсионно-минеральных смесей типа «Микросюрфейсинг».
6. ВОРОНИН К.С., ВЕНГЕРОВ А.А., БРАНД А.Э., “Технология применение геосинтетических материалов при строительстве и ремонте автомобильных дорог”.

## BANK SOHASIDA KENG QO'LLANILUVCHI TERMINLARNING O'ZBEK-INGLIZ TILLARIDAGI QIYOSIY TAHLILI

Negmatova Mumtozbegim Ulug'bek qizi  
O'zDJTU, 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bank sohasida qo'llaniluvchi terminlarning paydo bo'lishi, xususiyatlari va ularning ahamiyati o'zbek va ingliz tillari misolida qiyoslab o'rganilgan. Terminologiya tarixi, bank sohasining rivojlanishida unda qo'llaniluvchi terminlarning roli, o'zbek tiliga kirib kelgan terminlarning uslublari va vositalari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, bugungi kunda bank sohasida qo'llaniluvchi bir qator terminlar qiyosiy tahlil etilgan.

### ABSTRACT

This article provides information about the appearance of the terms used in the banking sector and their characteristics, their importance are compared using the example of the Uzbek and English languages. The history of terminology, the role of the terms used in the development of the banking industry, the methods and tools of the terms that entered the Uzbek language were also given. Moreover, a number of terms used in the banking industry today are comparatively analyzed.

**Key words:** terms, terminology, methods, banking sector, banking industry, tools.

Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Fanga turli yangi atamalar yangi qarashlar va yangicha fikrlar kirib kelgan bo'lib, insonni zamon bilan hamnafas bo'lib yashashga undaydi. Bunga misol tariqasida bank sohasi faoliyatini keltirishimiz mumkin. Ushbu sohani juda yangi soha deb atash noo'ron. Sababi, qadimda ham bank faoliyatiga oid operatsiyalarni bajaruvchi tashkilotlar bo'lgan, ammo ular aynan bugungi banklar vazifasini bajara olmagan. Banklarning paydo bo'lishi va foaliyat ko'rsatishining asosi - pul ayirboshlash bo'yicha ehtiyojning yuzaga kelganligidadir. Bunda Yevropani yorqin misol qilib ko'rsatish mumkin. O'rta asrlarda (pul) tangalarning yagona tizimi mavjud bo'lмаган. Savdo turli mamlakatlar, shaharlar, hatto, alohida shaxslarning tangalari orqali olib borilgan. Barcha tangalar turli vazn, shakl va nominalga ega bo'lgan. Shuning uchun tangalar bilan shug'ullanuvchi va ayirboshlashni olib bora

oladigan mutaxassislar o‘z ayirboshlash stollari bilan qizg‘in savdo ketayotgan joylarga joylashishgan. Shu bois, “bank” so‘zi italyancha “banco”-ayirboshlovchining oldidagi stol degan ma’noni anglatuvchi so‘zdan kelib chiqqan. Bunga o‘xshash operatsiyalar nafaqat Rimda, balki Gretsya kabi Yevropaning boshqa mamlakatlarida, shuningdek, qator Sharq mamlakatlarida ham amalga oshirilgan(Abdullayeva, 2017, 14b). Bugungi kunga kelib esa banklarning jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi o‘rni anchayin salmoqli. Shu sababdan ham bu sohada qo‘llaniladigan maxsus terminlarni o‘rganish ham tilshunoslar oldida turgan dolzarb masalardan biridir.

Avvalo, termin tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, uni turlicha talqin etish mumkin. Turli adabiyotlarda terminlarga turlicha ta’rif beriladi. Chunonchi, mantiqshunos(logik)lar uchun termin-aniq obektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig‘indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so‘z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so‘z termin bo‘lishi mumkin(Dadaboyev, 2019, 4-5b). Bundan ko‘rinib turibdiki, ma’lum bir so‘zga termin sifatini berishlik uchun, ushbu so‘z bir sohadoirasida keng tatbiq etilishi kerak. Har qanday so‘z termin bo‘la olishi mumkin. Ammo hech bir shaxs dunyodagi terminlarning barchasini tasnifinibilmaydi. Bunga sabab terminlar ma’lum birsoha doirasidagina qo‘llaniladi. Masalan, lingvistlar qo‘llaydigan terminlar, farmatsevtlar uchun mutloqo notanish, yoki teskarisi. Ammo shuni aytu olamizki, terminlarning qo‘llanilishi geografik juhatdan joy tanlamaydi. Ya’ni ular o‘z sohasi bo‘yicha dunyoning istalgan nuqtasida qo‘llaniladi. Bank tizimi terminologiyasi iqtisodiyot fani negizida tashkil topgan. Terminlarning paydo bo‘lishida neologizmlarning o‘rni katta. Har qanday termin o‘zbek tiliga kirib kelayotganda uning quyidagi jihatlariga e’tibor berish kerak bo‘ladi: terminning o‘zbek tilini tovush tizimiga mosligiga; uning o‘zbekcha muqobili bor -yo‘qligiga; kalka yoki tarjima qilish zaruriyatiga; iqtisodiy terminning mazmuniga; uning sodda va raxonligiga; mohiyatiga va o‘ng‘ayligiga.

O‘zbek tiliga bank sohasidagi terminlar asosan ikki uslubda kirib kelgan. Birinchisi, chet tilidagi terminning, o‘zbektilidagi muqobil variantini toppish orqali. Bunga misol qilib, клиент-мijoz, аукцион-kimoshdi, процент-foiz teminlarini ko‘rishimiz mumkin.

Ikkinchisi esa, chet tilidagi so‘zni transliteratsiya yoki transkriptsiya uslubi orqali o‘zbek tiliga kirib kelishini kuzatishimiz mumkin. Misol tariqasida, счёт-schyot, акционер-aksiyoner, кредит -kredit kabilarni keltirishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan terminlar, o‘zbek tiliga rus tili vositasida kirib kelgan terminlar hisonlanadi.

Quyida esa bugungi kunda bank sohasida keng qo‘llaniladigan terminlarning ayrimlarini ingliz tili bilan qiyoslagan holda keltirib o‘tamiz.

**Account.** A type of financial property or financial obligation that is held and owned under your name. When you open a financial account—whether it's a checking account, savings account, CD or money market account—you have certain rights and responsibilities as an account holder.

**Hisobvaraq-** xaridor nomiga sotuvchi tomonidan taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlarning yetkazib berilishini va ularning to‘liq qiymatini tasdiqlovchi hisobvaraq. Hisob faktura savdo bitimining shartlari, jumladan, hajmi, narxi, qiymati, sotish va yetkazib berish usullari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

**APR (Annual Percentage Rate).** The total annualized cost of a loan. When you borrow money, whether it’s via a credit card, car loan or another loan, the lender is required to disclose the APR, so you understand the full cost of borrowing the money.

**Yillik foiz stavkasi** - bu qarz oluvchi (bank) kreditdan (omonatdan) foydalanish uchun bir yil davomida to‘laydigan qarz (depozit) miqdorining ma’lum foizidir.

**ATM (Automated Teller Machine).** A convenient location for basic banking transactions, such as withdrawing cash, depositing checks or making balance inquiries. Many banks offer access to a network of fee-free ATMs.

**Avtomatlashtirilgan pul o‘tkazish mashinasi/ Bankomat** - dasturiy-texnik kompleks bo‘lib, avtomatlashtirilgan tarzda pul mablag‘larini berish va qabul qilishga mo‘ljallangan, shuningdek, bankomat orqali tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish, tegishli operatsiyalarni tasdiqlovchi hujjatlar tayyorlash imkoniyati mavjud.

**Check.** A type of financial instrument that instructs the check writer’s bank to make a payment to the recipient indicated on the check. Some people write paper checks and other people use their bank’s online bill pay feature to issue electronically generated checks.

**Chek.** Bankdagi hisobvaraq egasining muayyan summadagi pulni biror shaxsga to‘lash to‘g‘risida bankka yoki kredit muassasasiga yo‘llagan yozma buyrug‘i, farmoyishi; pul hujjati, qimmatli qog‘oz turi.

**Credit.** Credit generally refers to your ability to borrow—the willingness of banks and other lenders to extend a loan to you.

**Kredit.** Qaytarishlilik sharti bilan (foiz to‘lovlari bilan birlashtirilgan) mahsulot yoki pul ko‘rinishidagi qarz/ssuda; qarzdor va kreditor o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi.

**Electronic signatures.** Under U.S. federal law, electronic signatures or e-signatures have the same legal validity as signatures on paper contracts. Online contracts may have the same legal status as paper contracts.

**Electron imzo.** Egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan elektron hujjatdagi raqamli imzo.

**Investments.** Investments are financial assets that are purchased and sold by investors, with the goal of earning a return on investment (ROI). Common types of investments include stocks, bonds, mutual funds, index funds, exchange traded funds and real estate. There are also various alternative investments like gold, commodities, fine art, wine and more. Unlike bank savings and checking accounts, investments are not FDIC insured and have a risk of loss.

**Investitsiyalar.** Investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestisiyalar bo'lib, ular mablag'larni (milliy va chet el valyutasidagi pul mablag'lari), shu jumladan maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligasiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni; ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni); intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa qimmatliklarni o'z ichiga olishi mumkin.

**Online bank.** Online banks, also called digital or internet banks, operate primarily via the internet. You can manage your accounts at an online bank from a computer or mobile device from anywhere at any time.

**Onlayn bank.** (Internet-banking deb ham ataladi) Bankning mijozlariga o'z bank operatsiyalarini bajarish va tegishli faoliyatni tegishli bankning veb-saytida to'ldirish imkonini beradigan veb-ga asoslangan bank usulidir. Sizning bankingiz (yoki yangi bank) bilan onlayn xaridor sifatida ro'yxatdan o'tishingiz orqali bankingiz mahalliy filiallarda taqdim etadigan deyarli barcha keng tarqalgan xizmatlarga onlayn kirishingiz mumkin.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ingliz tilida keng qo'llaniladigan bank terminlaridan, o'zbek tilida ham foydalanildi. Ularning o'rtasida ma'no va qo'llanilish jihatdan hech qanday chegara yo'q.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abdullayeva Sh. Bank ishi. Toshkent, 2017
  2. Barotov.Z Iqtisodiy matinlarda neologiznlarning tarjima qilinishi. Samarqand, 2013.
  3. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. Toshkent, 2019.
  4. Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish. Toshkent, 2005.
  5. Tog‘ayev S. Bank ishi uslubiy qo‘llanma. –Samarqand, 2016.
  6. Tursunov U. O‘zbek terminologiyasi masalalari. - Tashkent, 1933.
- Foydalilanilgan saytlar  
finlit.uz  
americanbanker.com

# АРПАБОДИЁН (ANISUM VULGARE GAERTN) ЎСИМЛИГИНИ КИМЁВИЙ ТАРКИБИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ВА ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТИЛАРИНИ ЎРГАНИШ

**Мўминжон Юсупович Исмоилов**

Фарғона давлат университети кимё кафедраси доценти

[mismoilov1971@gmail.com](mailto:mismoilov1971@gmail.com)

**Нодирабегим Бахтиёржон қизи Жамолиддинова**

Фарғона жамоат саломатлиги тиббиёт институти

даволаш иши йўналиши талабаси.

## АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада арпабодиён (*anisum vulgare gaertn*) ўсимлигини кимёвий таркиби таҳлил қилинган ва дориворлик хусусиятиларини ўрганилган. Уни таркибida V<sub>9</sub> – витамини, K<sub>1</sub> – витамини, V<sub>2</sub> – витамини ёки рибофлавин, V<sub>1</sub> – витамини ёки тиамин, E – витамини, V<sub>6</sub> – витамини, V<sub>3</sub> – витамини ёки RR – витамини ёки ниацин, V<sub>5</sub> – витамини ёки пантотеник кислота, C – витамини, β - каротин ўндан ортиқ витаминалар, еттита макробиоген элементлар, микробиоген элементлар, 100 г хом арпабодиён таркибидаги макробиоген элементлар миқдори темир 0,2 мг, магний 11 мг, натрий 22 мг, фосфор 28 мг, калций 37 мг, хлорид 78,6 мг, калий 320 мг борлиги, микробиоген элементлар миқдори мис 0,08 мг, рух 0,19 мг, иод 20 мгни ташкил этиши, ультрамикробиоген элементлар миқдори селен 20 мкгдан кўп бўлмаган миқдорда, марганец 0,1 мг борлиги тажрибалар асосида аниqlанди.

**Калит сўзлар:** каротин, витамин, макробиоген элементлар, микробиоген элементлар, ультрамикробиоген элементлар, дориворлик хусусиятилари.

## ANNOTATION

In this article, the chemical composition of the fennel (*anisum vulgare Gaertn*) plant was analyzed and its medicinal properties were studied. It contains vitamin V9, vitamin K1, vitamin V2 or riboflavin, vitamin V1 or thiamine, vitamin E, vitamin V6, vitamin V3 or vitamin RR or niacin, vitamin V5 or pantothenic acid, vitamin C. , b - carotene more than ten vitamins, seven macrobiogenic elements, microbiogenic elements, the amount of macrobiogenic elements in 100 g of raw fennel is iron 0.2 mg, magnesium 11 mg, sodium 22 mg, phosphorus 28 mg, calcium 37 mg, chloride 78.6 mg , the presence of potassium 320 mg, the amount of microbiogenic elements copper

0.08 mg, zinc 0.19 mg, iodine 20 mg, the amount of ultramicrobiogenic elements selenium in the amount of no more than 20 µg, and the presence of manganese 0.1 mg were determined based on experiments.

**Key words:** carotene, vitamin, macrobiogenic elements, microbiogenic elements, ultramicrobiogenic elements, medicinal properties.

**КИРИШ.** Абу Али ибн Сино арпабодиён ҳақида шундай дейди: “У кўзни ўткир қилади ҳамда кўзга сув тушиш (яъни, катаракта) бошланган вақтда фойда қилади. Буйрак ва қовуққа нафи бор. Уруғини илдизи билан қўшиб ейилса, ични қотиради”.

Овқатга зиравор маҳсулот сифатида арпабодиённинг тўлиқ пишиб етилган уруғлари қўлланилади. Арпабодиён меваси таркибида 1, 2-3, 2 фоиз (баъзан 6 фоизгача) эфир мойи, 28, 4 фоизгача мой, оқсил ва бошқа моддалар бор. Арпабодиён эфир мойи рангиз ёки сарғиш рангли суюқлик бўлиб, ўзига хос ёқимли ҳид ва ширинроқ мазага эга. У 80-90 фоизгача ўзининг асосий таркибий қисми – анетолдан ташкил топган. Унинг уруғининг таркибида калий, кальций, темир, мис, рух, хром, алъюминий, селен, молибден, стронций, никель, бор ва бошқа макро ва микроэлементлар тузлари бўлади.

Қадимги табиблар ўзларини даволаш жараёнида арпабодиён мевасини кенг ишлатганлар. Юз ва оёқ шишларида, жигар, қораталок, буйрак, қовуқ касалликларида, қийинлашган нафас олишда, бош оғриғида, кўз ва бошқа касалликларда ҳамда пешоб ҳайдовчи восита сифатида тавсия қилинган.

Халқ табобатида арпабодиён мевасидан тайёрланган дамлама билан меъда-ичак касалликлари даволанади. Бу дамлама яна иштаҳа очувчи, пешоб ва ўт ҳайдовчи, терлатувчи, енгил сурги ҳамда чанқовни босувчи дори сифатида қўлланади.

Арпабодиённинг эфир мойи антисептик, яллиғланишга қарши ҳамда шиллиқ қаватларга кучли қитиқловчи таъсир қўрсатади. Шунинг учун арпабодиён меваси, эфир мойи ва улардан тайёрланган дори турлари илмий тиббиётда бронхит ва нафас олиш йўлларининг бошқа яллиғланиш касалликларида балғам кўчирувчи, йўтални тўхтатувчи дори сифатида ҳамда овоз бўғилиши ҳолларини даволаш учун ишлатилади. Меваси ва эфир мойи яна буйрак, сийдик пуфаги ва пешоб йўллари касалликларида, ич дам бўлганда ел ҳайдовчи восита сифатида, ичак фаолиятини яхшилаш учун ҳамда баъзи грипп (ЎРВИ) касалликларининг даволашда қўлланилади.

Арпабодиён меваси сурги сифатида ишлатиладиган ҳамда юқори нафас йўллари яллиғлаганда қўлланиладиган балғам кўчирувчи, кўкракни юмшатувчи ва уни оғриғини қолдирувчи йиғмалар – чойлар таркибига киради. Фармацевтика

амалиётида эфир мойи ёқимсиз таъмли дори турларини мазасини ва ҳидини яхшилаш учун ишлатилади [1].

Сўнгти йилларда табиий доривор ўсимликларни истеъмол қилувчилар сони қўпаймоқда. Ўсимликлардан даволаш тарафдорлари ноанъанавий фармакологияни афзал кўришларинг кўплаб сабабларини таъкидлайдилар чунки бу хафвсиздир. Ўсимлик воситаларининг афзалликлари шундаки; улар

- токсин бўлмаган;
- ножўя таъсири йўқ;
- иммунитетни қўшимча қўллаб-қувватлади.

Хозирги кунда фармацевтика саноати эҳтиёжидан келиб чиқиб, инсон саломатлиги учун доривор ўсимликлар хом-ашёсидан фармацевтика маҳсулотларига талаб ошмокда. Маҳсулотнинг кимёвий таркиби-фаол сифати, миқдори турли иқлим ва географик зоналарнинг жойлашувига ҳам боғлқидир. Шу нуқтани назаридан Ўзбекистондаги доривор ўсимликларни кимёвий таркибини ўрганиш ва улар асосида биологик фаол қўшимчалар яратиш хозирги куннинг энг долзарб масалаларидан биридир [2].

**НАТИЖАЛАР.** Маълумки, қадимги табиблар ҳам инсонларни даволаш жараёнида арпабодиён мевасидан кенг фойдаланган. Юз ва оёқ шишларида, жигар, қораталоқ, буйрак, қовуқ касалликларида, қийинлашган нафас олишда, бош оғрифида, кўз ва бошқа касалликларда ҳамда пешоб ҳайдовчи восита сифатида тавсия қилинган.

Арпабодиённинг калорияси паст: 100 г учун атиги 21,8 калория. У целлюлозага, калийга, ефир ва ёғли мойларга, микроэлементларга, витаминларга, айниқса провитамин А (бета-каротин) ва фолий кислотаси (В<sub>9</sub> витамины)га бой. Ефир мойлари - баргларда 0,5 фоизгача ва меваларда 6,5 фоизгачани ташкил этади [3].

### 1-жадвал.

100 г хом арпабодиён таркибидаги кимёвий брикмалар миқдори.

№	Озиқ моддалар	Ўртача миқдори
1.	Энергия қиймати	21,8 ккал
2.	Сув	92,9 г
3.	Оқсил	1 г
4.	углеводлар	2,63 г
5.	Липидлар	< 0,5 г
6.	Озиқ – овқат толаси	2.6 г

Тирик организм ниҳоятда мураккаб кимёвий система бўлиб, унда борадиган жараён элементларнинг микдори, табиати улар ҳосил қилган моддаларнинг таркиби, тузилиши ва хоссалари билан узвий равишда боғлик бўлади. Тирик организмдаги ҳаётий жараёнларда бевосита иштирок этувчи ёки шу моддалар таркибига кирувчи элементлар **биологик фаол** ёки **биоген элементлар** деб аталади. Биоген элементларнинг синфланиши уларнинг электрон тузилиши, организмдаги микдори, бажарадиган вазифаларининг аҳамияти ва бошқа қатор тушунчаларга асослангандир.

1. Биоген элементлар электрон тузилиши буйича s, p ва d— элементларга ажратилади.
2. Организмдаги микдори буйича биоген элементлар куйидагicha синфланади:

Макробиоген элементлар — организмдаги умумий микдори  $10^{-2}\%$  ва ундан ортик булган элементлар. Буларга O, C, H, N, Ca, P ва бошқа элементлар мисол бўлади;

Микробиоген элементлар — организмдаги микдорлари  $10^{-3} - 10^{-5}\%$  ни ташкил этадиган элементлар. Бундай элементларга Zn, Cu, Br, I ва бошқа бир қатор элементлар киради;

Ультрамикробиоген элементлар — организмдаги микдори  $10^{-5}\%$  дан кичик бўлган элементлардир (Au, Se, Bi, Hg ва бошкалар).

3. Элементлар тирик организмларда бажарадиган вазифаларнинг аҳамиятлиги бўйича қуйидаги уч асосий синфга бўлинади:

Ҳаётий зарур бўлган элементлар. Бундай, элементларга барча макробиоген ва кўпчилик микробиоген элементлар киради ва улар бўлмаслиги ёки микдорининг кескин камайиши ҳаётий жараёнларнинг тўхташи ёки сезиларли даражада бузилишига олиб келади.

Ҳаётий аҳамиятга эга бўлиши мумкин бўлган элементлар. Бундай элементларга тирик организмларда доимий равишда учрайдиган, аммо қандай биокимёвий жараёнларда бевосита иштирок этиши охиригача аниқланмаган элементлар киради. Бундай элементларга Cr, Ni ва Cd ларни мисол тариқасида келтириш мумкин. Жумладан, организмдаги хром микдорининг камайиши қондаги қанд микдорининг нисбатан ортишига олиб келади. Аммо шу билан бир қаторда ханузгача хромнинг қанд метаболизмида бевосита иштирок этишини исботлайдиган бирор-бир далил маълум эмас.

Биологик аҳамияти охиригача аниқланмаган элементлар. Бу синф элементлари бошқа синф элементлари сингари тирик организмда доимий равишда учрайди. Аммо улардан фарқли равишда организмда қандай молекулалар таркибига кириши, бирор-бир биологик аҳамиятга эга эканлиги

аниқланмаган. Биологик вазифаси мутлок ноаниқ бўлган бундай элементларга *Bi*, *U*, *Ru* ларни келтириш мумкин [4].

### **2-жадвал.**

100 г хом арпабодиён таркибидаги макробиоген элементлар миқдори.

№	Макробиоген элементларнинг номи	Ўртча миқдори
1.	Темир	0,2 мг
2.	Магний	11 мг
3.	Натрий	22 мг
4.	Фосфор	28 мг
5.	Калций	37 мг
6.	Хлорид	78,6 мг
7.	Калий	320 мг

100 г хом арпабодиён таркибидаги макробиоген элементлар миқдори темир 0,2 мг, магний 11 мг, натрий 22 мг, фосфор 28 мг, калций 37 мг, хлорид 78,6 мг, калий 320 мгни ташкил этмоқда. Бунда калийни миқдори энг кўп ва темир миқдори энг кам эканлиги (2-жадвалда келтирилган) аниқланган.

### **3-жадвал.**

100 г хом арпабодиён таркибидаги микробиоген элементлар миқдори.

№	Микробиоген элементларнинг номи	Ўртча миқдори
1.	Мис	0,08 мг
2.	Рух	0,19 мг
3.	Иод	< 20 мг

100 г хом арпабодиён таркибидаги микробиоген элементлар миқдори мис 0,08 мг, рух 0,19 мг, иод 20 мгдан кўп бўлмаган миқдорда борлиги (3-жадвалда келтирилган) аниқланган.

### **4-жадвал.**

100 г хом арпабодиён таркибидаги ультрамикробиоген элементлар миқдори.

№	Ультрамикробиоген элементларнинг номи	Ўртча миқдори
1.	Селен	< 20 мкг
2.	Марганец	0,1 мг

100 г хом арпабодиён таркибидаги ультрамикробиоген элементлар миқдори сален 20 мкгдан күп бўлмаган миқдорда, марганец 0,1 мг борлиги (4-жадвалда келтирилган) аниқланган.

#### **5-жадвал.**

100 г хом арпабодиён таркибидаги витаминлар миқдори.

№	Витаминалар	Ўртача миқдори
1.	B <sub>9</sub> – витамини ёки умумий фолат	19,6 мкг
2.	K <sub>1</sub> - витамини	62,8 мкг
3.	B <sub>2</sub> – витамини ёки рибофлавин	< 0,01 мг
4.	B <sub>1</sub> – витамини ёки тиамин	< 0,015 мг
5.	E - витамини	< 0,08 мг
6.	B <sub>6</sub> – витамини	0,05 мг
7.	B <sub>3</sub> – витамини ёки PP – витамини ёки ниацин	< 0,1 мг
8.	B <sub>5</sub> – витамини ёки пантотеник кислота	< 0,22 мг
9.	C - витамини	2,57 мг
10.	β - каротин	8,01 мг

100 г хом арпабодиён таркибидаги витаминлар миқдори B<sub>9</sub> < K<sub>1</sub> < B<sub>2</sub> < B<sub>1</sub> < E < B<sub>6</sub> < B<sub>3</sub> < B<sub>5</sub> < C < β - каротин миқдорини ошиб бориши (5-жадвалда келтирилган) аниқланган.

**МУХОКАМА.** Фойдали хусусиятлари;

- Ўсимлик антиспазмодик ва энгил диуретик таъсирга эга.
- Феннел дезинфектсиялаш хусусиятига эга.
- Бу ўсимликдан олинган арома ёғи токсинларни йўқ қилишга ёрдам беради.
- Арпабодиён кукуни яхши экспекторан сифатида йўталга қарши дорилар таркибига киради.
- Ўсимлик тикланиш даврида иштаҳани тиклашга ёрдам беради, овқат ҳазм қилишни яхшилайди.
- Ташқи томондан ишлатиладиган арпабодиён меваларининг инфузиони қўзиқорин касалликларига ёрдам беради.
- Ўсимлик тинчлантирувчи таъсирга эга.
- Феннел лактатсияни рағбатлантиришга қодир.
- Арпабодиён овқат ҳазм қилиш тизимига самарали ёрдам беради, токсинларни олиб ташлайди, спазмларни йўқотади ва ҳатто тинчлантирувчи восита сифатида ишлатилади.

Арпабодиён ароматик ёғи унинг уруғларини буғда дистиллаш орқали олинади. Арпабодиён таркибида фенчол, лимонен, анетол, камфен, фелландрен, пинен мавжуд. Ёғ ўткир ширин ҳидга эга, узоқдан анисга ўхшайди.

### Арпабодиённинг афзаликлари:

- танани ҳар томонлама тозалайди, токсинларни олиб ташлашга ёрдам беради;
- енгил лаксатиф ва диуретик таъсирга эга;
- овқат ҳазм қилишни фаоллаштиради;
- шиширади ва ич қотиши билан ёрдам беради;
- аёлларни меҳнат қилишга ундайди ендокрин тизими ва эстроген ишлаб чиқариш, бу ПМС, оғриқли даврлар ва менопаузадаги қийинчиликларни энгиллаштиради;
- лактатсияни оширади;
- жинсий истакни қучайтиради;
- яллиғланишни пасайтиради ва балғамни ажратишни осонлаштиради;
- юрак фаолиятини яхшилайди;
- ҳиқичноқ ва колик билан курашишга ёрдам беради;
- терини ёшартиради;
- акне билан курашишга ёрдам беради.
- Арпабодиён эфир мойи самарали ҳисобланади аёл касалликлари, юрак учун, овқат ҳазм қилиш тизими ва муаммоли тери учун
- Арпабодиён мойи косметик препаратларга (жел, никоб, тоник, крем ва бошқалар) кўшилади, массаж, компресслар, ванналар, инхалиялар учун ишлатилади, шунингдек ҳавони тозалаш учун арома чироққа қўшилади. Ишлаб чиқаришда ҳам талаб мавжуд уй кимёвий моддалари (атир сифатида) ва озиқ-овқат саноати (хушбўй ҳид сифатида).
- Феннел эфир мойи ёшартирувчи компонент сифатида турли хил косметик препаратларга қўшилади.

### ХУЛОСА

Арпабодиённи кимёвий таркиби ўрганилди. Уни таркибида  $B_9$  – витамини,  $K_1$  – витамини,  $B_2$  – витамини ёки рибофлавин,  $B_1$  – витамини ёки тиамин, Е – витамини,  $B_6$  – витамини,  $B_3$  – витамини ёки PP – витамини ёки ниацин,  $B_5$  – витамини ёки пантотеник кислота, С – витамини,  $\beta$  - каротин ўндан ортиқ витаминлар, еттита макробиоген элементлар, микробиоген элементлар, 100 г хом арпабодиён таркибидаги макробиоген элементлар миқдори темир 0,2 мг, магний 11 мг, натрий 22 мг, фосфор 28 мг, калций 37 мг, хлорид 78,6 мг, калий 320 мг

борлиги, микробиоген элементлар миқдори мис 0,08 мг, рух 0,19 мг, иод 20 мгни ташкил этиши, ультрамикробиоген элементлар миқдори селен 20 мкгдан қўп бўлмаган миқдорда, марганец 0,1 мг борлиги тажрибалар асосида аниқланди.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES)

1. <https://ok.ru/tabobatvas/topic/66576651092070>
2. <https://yogmoy.uz/en/post/view?slug=arpabodien-sarbatি-koronavirusni-5-dakikada-juk-kilarkan>
3. Каломийцева М. Г., Габович Р. Д. Микроэлементы в медицине. М.: Медицина. 197 0. 27 3 с. (Kalomiytseva M. G., Gabovich R. D. Trace elements in medicine. M.: Medicine. 197 0. 27 3 p.)
4. А.Б.Акбаров. Биоанорганик ва биофизик кимё асослари: Тиббиёт олий ўқув юрти талабалари учун дарслик.— Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1996. - 400 б. (A. B. Akbarov. Basics of bioinorganic and biophysical chemistry: Textbook for students of the medical university. T.: Medical publishing house named after Abu Ali ibn Sina, 1996. - 400 p.)

## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR BILISH JARA YONLARINI RIVOJLANTIRISHDA SENSOR TARBIYANING O'RNI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna

Samarqand davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga sensor tarbiya berish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Bu jarayonning asosiy ishtirokchisi, ya'ni tarbiyachiga qo'yiladigan hozirgi zamon talablari bayon etilgan.

**Kalit so'zlari:** Bola, tabiat, hodisa, sensor, tasavvur,o'yin.

## РОЛЬ СЕНСОРНОГО ВОСПИТАНИЯ В РАЗВИТИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Аннотация.** В данной статье обоснованы особенности процесса сенсорного обучения. А также изложено важность игр в усовершенствовании данного процесса.

**Ключевые слова.** Ребенок, природа, событие, сенсор, воображение, игра.

## THE ROLE OF SENSORY EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE PROCESSES IN PRESCHOOL CHILDREN

**Abstract.** This article describes the specific features of the process of sensory education of children of preschool age. It is stated that games play an important role in development of this process.

**Key words.** Child, nature, event, sensorium, imagination, game.

Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ahamiyati kattadir. Bu o'z navbatida O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni va "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"ning qabul qilinganligi hamda ushbu hujjatlar mohiyatiga ko'ra uzliksiz ta'lim tizimining shakllanganligi ta'lim –tarbiya asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Maktabgacha bolalikda sensor jarayonlar ayniqsa alohida ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki voqelikdagi narsa va hodisalarining shakli katta–kichikligi, rangi va boshqa xossalariini to‘g‘ri va aniq idrok qilish qobiliyati ayni shu maktabgacha tarbiya yoshi davrida tez rivojlanadi. Sensor “sensorium” lotincha sezgi organlari degan ma’noni bildiradi. Narsalarning turli xil rangi, shakllari katta–kichikligi va fazodagi holatini ko‘zi bilan ko‘rib, musiqa, inson nutqi kabi har xil tovushlarni qulog‘i bilan eshitib, qattiq-yumshoqligini g‘adir-budurligini, sovuq yoki issiqligini qo‘llari va terisi bilan sezib, turli hidlar va mazza–ta’mlarni his qilib, bolada sekin-asta sensor tajriba to‘planib boradi va mana shu asosida bilim doirasi kengayadi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni mana shu buyumlarning shakli, katta–kichigligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu xossalarni to‘g‘ri idrok qilishi ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qanchalik to‘g‘ri hal qilinsa, bolalarning faqat aqliy tarbiyasigina emas, balki estetik, jismoniy va hatto axloqiy tarbiyasi ham muvaffaqiyatlari amalga oshiriladi, ya’ni bola har tomonlama rivojlanib boradi.

Sensor harakatlarning rivojlanish darajasi bolaning qobiliyatları shakllanayotganda hamda muayyan bilimlarni va ayrim amaliy ko‘nikmalarni egallash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Bolada shakl va bo‘yoqlarni idrok qilish qibiliyati rivojlangan bo‘lsa, u tevarak-atrofdagi narsalarning xossalarni har tomonlama ko‘ra oladi va akslantira oladi. Bu esa ularni tasvirlash, rasm chizish, loydan, qog‘oz va matodan qirqib har xil narsalar yasash hamda ko‘rish–yasash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Tug‘ilgandan to‘lg‘aygungacha, bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularidan foydalanib, atrofdagi dunyoni anglashga intilishadi. Ular buni ushlash, tatib ko‘rish, hidlash, ko‘rish, harakat qilish va eshitish orqali amalga oshiradilar.

Bolalar va hatto kattalar o‘zlarining sezgi organlari orqali to‘liroq ma'lumotni olishadi va uni xotirada saqlab qolishadi. Ko‘pgina eng yaxshi xotiralarimiz bir yoki bir nechta hissiyotlarimiz bilan bog‘liq. Masalan, yozgi tungi gulxanning hidi yoki siz bolalikdagi do‘stingiz bilan yodlagan qo‘sish. Endi sizning burn va quloqlaringiz o‘shta tanish hidlar va tovushlarni sezganda, miyangiz o‘shta vaqtarda saqlangan xotirani qo‘zg‘atadi.

Bolalarga "sensor o‘yinlar" orqali o‘zlarining dunyolarini kashf qilishlarida sezgilaridan faol foydalanishlarga o‘rgatish miyaning rivojlanishi uchun juda muhimdir - bu miyadagi turli markazlar aloqalarni yaratishga yordam beradi.

Bu bolaning yanada murakkab o‘quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyatini, kognitiv o‘sishni, tilni rivojlantirishni, vosita ko‘nikmalarini, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**Biz ko‘pincha beshta sezgi borligini bilamiz. Bular:**

**Ta'm bilish** - ta'm retseptorlari og'zimizdagi kimyoviy moddalar bilan reaksiyaga kirishganda paydo bo'ladigan ta'sir.

**Sezish** - bu bizning terimizdagi bosim, issiqlik, sovuq yoki tebranishga nisbatan sensorli retseptorlardan kelib chiqadigan stimulyatsiya.

**Hid** - yuqori havo yo'llarida (burun) kimyoviy retseptorlarni qo'zg'atish.

**Ko'rish** - bizning miyamiz tasvirlarni talqin qiladigan bizning ko'zlarimizdagi yorug'lik retseptorlarini qo'zg'atish.

**Eshitish** - bizning ichki qulog'imizdagi maxsus vositalar yordamida ovozni qabul qilish.

**Ammo biz ko'pincha unutib qo'yadigan yana ikkita ta sezgi bor:**

**Propriotseptsiya** - miyamiz mushaklarimizdagi retseptorlari va bo'g'indardagi bosim retseptorlari orqali bizning tanamiz fazoda ekanligi to'g'risida ma'lumot olishga imkon beradi.

**Muvozanat** - tanamizning pozitsiyasini bilish uchun ichki qulquning vestibulyar tizimini stimulyatsiya qilish assosida paydo bo'ladigan sezgidir.

*Bu sezgilar sensor o'yinlar jarayonida asosiy ahamiyat kasb etadi. Sensor o'yinlar yosh bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadigan har qanday faoliyatni o'z ichiga oladi. Bolalarsensor o'yin jarayonida, quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar: mustaqil o'yin qobiliyatları ustida ishslash, matematik qobiliyatlar, syujetli-rolli o'yin, hayotiy ko'nikmalar (quyish, ochish, uzatish), ta'sirli o'rganish, o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish va shu kabilalar. Bolalar tartibsizlikka yo'l qo'ymasdan o'ynashni o'rganishlari kerak [5].*

Bolalarning yoshi ulg'ayib, hayot tajribalari ortishi, sharoitlarning o'zgarishi bilan idrok etish jarayoni va unga qo'yiladigan talab ham murakkablashadi.

Ezish, chapillatish, aylantirish, sachratish, siqish, portlash, yugurish, chayqash, silkitish, surish, otish va og'zini ochish – bolalar bu hissiyotlar orqali dunyonı o'rganishi juda foydalidir. Bu ba'zan shovqinga sabab bo'lishi mumkin, shuning uchun tarbiyachilar ko'pincha ushbu o'yin turlarini qisqartirishga harakat qilishadi. Aslida, sensor o'yin - har qanday bolaning his-tuyg'ularini uyg'otadigan o'yin va u bolaning sog'lig'i va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu orqali bola kognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi va dunyo haqida ko'proq bilib oladi.

Bolalarni sensor tarbiyalash jarayonida tarbiyachi bolalarga tegishli topshiriqlar berishi: buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yishda ularning og'irligini his qilish, buyumni qo'liga olib, uning sirtini sezish va sifatini-silliq yoki g'adur-budurligini, issiq yoki sovuqligini va shunga o'xshashlarni aniqlashi kerak.

Bolalarni tekshirish usullari va buyumlarning sifatlari bilan tanishtirgandan keyin tarbiyachi, bu sifatlarni ajratish bo'yicha ularni mashq qildirishni tashkil etish lozim. Bunda bolada qo'llayotgan usulning hamda so'z orqali beriladigan ta'rifning

aniqligini ta'minlash muhimdir. Mashq qildirish uchun mazkur sifatga ega bo'lgan turli buyumlarni tanlash zarur. Mashqlarni mazkur sifat belgisi asosida xilma-xil buyum guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunday sharoitda sifatning aniq bir buyumdan ajralishi ro'y beradi, bu esa yangi bosqichga turli xossalalar haqida umumlashgan tasavvurlarni shakllantirish uchun asos bo'ladi.

Sensor tarbiya mazmuni butun maktabgacha yoshdagি bolalik davomida bolalarda turli yosh davrlarida vujudga keladigan va rivojlanadigan faoliyat turlarini hisobga olib amalga oshiriladi. Sensor tajriba natijasida bola dunyoni hissiy bilish, ko'rgazmali obrazli fikrlash usullarini egallaydi. Bolalarning barcha turdagи faoliyati yanada takomillashadi, nazariy va amaliy faoliyatda nisbiy mustaqillik shakllanadi.

Bola uch yoshga to'lib MTTga qatnay boshlagach, bolaning faoliyat doirasi juda kengayib ketadi, nutqi g'oyat jadallik bilan o'sa boshlaydi. Buning natijasida bola juda ko'p narsalar bilan mustaqil hamda bevosita munosabatda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bola hayotidagi bu o'zgarish o'z navbatida uning idrokiga ta'sir etmay qolmaydi. Ular kundalik faoliyatlar davomida juda ko'p narsalar bilan to'qnashadilar. Shunday bo'lishiga qaramay kattamaktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'zlaridagi etayotgan narsalarning nima ekanini har doim kattalarning yordamisiz bilavermaydilar.

Maktabgacha yoshdagи bolalar idrokining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, ular turli narsalarni idrok qilishda ko'zga tashlanib turadigan belgilariga asoslanadilar. Biroq tajribalari hali yetarli bo'limgani, ya'ni ko'p narsalarning mohiyatiga mutlaqo tushuna olmasliklari narsalarning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan eng muhim va umumiyligi belgilarni aks ettira olmaydilar. Ular narsalarni idrok qilishda konkret tasavvurlarga asoslanadilar. Shu sababli bolalar uchun narsalarning asosiy va muhim belgilari ularning rangi va shaklidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar shuning uchun ham o'xshash narsalar shaklini bir-biridan bemalol ajrata oladilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar idrok qilish paytida narsalarni chuqur tahlil qila olmaydilar. Bolalar idrokidagi bu yetishmovchilik ularning turli rasmlarni idrok qilishlarida yaqqol ko'rindi. Bolalar rasmida tasvirlangan narsalarning holatiga va fazoviy munosabatlariga tamomila befarq bo'ladilar. Ular rasmlarni teskari ushlab ham zavq bilan tomosha qilaveradilar. Buning asosiy sababi rasmni idrok qilishga nisbatan bolalarning analitik munosabatda bo'lolmasliklardir. Bolalar rasmida tasvirlangan narsalarni bir-biri bilan ma'lum munosabatda emas, balki tasvirlangan narsalarning hammasini butunligicha idrok qilishga intiladilar. Ularda hali tahlil qilish xususiyatlari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun rasmlar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarga yo'naltiruvchi savollar berib, ularni analiz qilishga o'rgatib borishi lozim. Rasmlarni idrok qilish ana shunday tarzda yo'lga qo'yilgandagina bolalarning idrok qilish qobiliyatini hamda kuzatuvchilik xususiyatini rivojlantirish mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda fazoviy tasavvurlarning yetarli darajada aniq emasligini ularning chizgan rasmlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, kichik va o‘rta guruh bolalari rasm chizganlarida narsalarning hajmiy munosabatlari unchalik e’tibor bermaydilar. Ularning chizgan rasmlarida uyning balandligi avtomashinaning balandligi bilan, odamning bo‘yi esa terakning bo‘yi bilan barobar bo‘lishi mumkin. Bu bolalarni mutlaqo hayron qoldirmaydi. Fazoviy munosabatlarni to‘g‘ri idrok qilish va binobarin, fazoviy munosabatlar haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish asta-sekinlik bilan bolalarning turmush tajribalari orta borishi davomida o‘sib boradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning vaqtini idrok qilishlari ham mukammal xarakterga ega emas. Bolalarda vaqtini to‘g‘ri va anglab idrok qilish fazoni idrok qilishga nisbatan qiyinroq. Bolalar uchun vaqtini idrok qilishning qiyin tomonlaridan biri, ular vaqtning uzuksiz o‘tuvchanligini (ya’ni vaqtning beto‘xtov o‘tishini) anglay olmaydilar va binobarin, idrok ham qila olmaydilar. Bu narsani ularga ko‘rgazma assosida ko‘rsatib bo‘lmaydi. Natijada bolalar vaqt tushunchalarini ma’lum narsalar va hodisalar orqali konkretlashtirib idrok qilishga intiladilar. Kichik yoshdagi bolalarining vaqtini idrok qilishlarida shu narsa ko‘zga tashlanib turadiki, ular bir-biri bilan tez almashib turadigan vaqt o‘lchovlarini qiyinlik bilan o‘zlashtiradilar.

Maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlna boshlaydi. Biroq kichik yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi. Kichik yoshdagi bolalarida kun sayin paydo bo‘ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o‘yinchoq faoliyatlarining xilma-xil bo‘la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi.

Maktabgacha ta’lim yoshida bolalarda diqqatning ayrim xususiyatlari, ya’ni diqqatning kuchi va barqarorligi ham tarkib topib, yuksala boshlaydi. Buni biz bolalarning (xususan o‘rta va katta bolalarning) bir ish ustida uzoq vaqt davomida o‘tira olishlaridan, ba’zi o‘yinlarni zerikmay soatlab o‘ynay olishlaridan, ta’limiy mashg‘ulotlarda chidam bilan o‘tira olishlaridan ko‘rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta’lim yoshida bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqat ko‘lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami katta odamlarnikiga nisbatan hali juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtda 5-6 narsani (bir-biri bilan ma’naviy bog‘lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig‘dira olsa, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar diqqatining ko‘lami ayni bir vaqtda 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari bitta, o‘rta va katta guruh bolalari esa ikkita) sig‘dira oladi. Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo‘lishga harakat qilsalar ham buning uddasidan chiqa olmaydilar. Masalan, 3-yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to‘kib-sochib olib keladi. Bu uning o‘quvsizligi, bo‘shangligi yoki anqovligidan emas, balki o‘z diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo‘la olmasligidandir. Bola o‘zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to‘kmay,

chayqaltirmay olib kelishga bo‘la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarda bolalarni koyish yaramaydi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning diqqati ko‘pincha ularning qiziqish hamda hissiyotlari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli konsentrashgan(to‘plangan), ya’ni bir narsaga qaratilgan bo‘ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bolalarda diqqatning bo‘linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo‘ladi. Maktabgavha ta’lim yoshidagi bolalar diqqati bo‘linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko‘laming torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar.

Bola esida olib qolgan narsalarida hali sistema yo‘q, shuning uchun bola dastavval chuqur taassurot qoldirgan, ya’ni esida chuqur o‘rnashib qolgan narsalardan boshlab gapiraveradi. Demak, bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: agar bog‘cha yoshidagi bolaga bir vaqtning o‘zida haddan tashqari ko‘p narsalar ko‘rsatilsa, ular hamma narsalarni bir-biri bilan aralashtirib yuboradilar va birontasini ham puxtarloq esda olib qololmaydilar.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, keyingi yillar mobaynida maktabgacha yoshidagi bolalarda mantiqiy, ya’ni ma’nosiga tushunib esda olib qolishga nisbatan mexanik esda olib qolish ustun bo‘ladi, degan fikr mavjud bo‘lib, shu bilan birga mexanik esda olib qolish mantiqiy esda olib qolishga qarama-qarshi qo‘yilar edi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ekperimental tekshirishlar natijalarining ko‘rsatishicha, maktabgacha yoshidagi bolalarda ham narsa va so‘zlarning ma’nosiga tushunib eslab qolish katta o‘rin tutadi. Lekin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning mantiqiy esda qoldirishlari ularga o‘zları tushuniladigan material berilganda yaqqol ko‘rinadi.

MTTda jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo‘ysunish, qoidali o‘yinchoq shartlarini so‘zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam va qunt bilan ado etish kabi hollar bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o‘yinchoqning ahamiyati juda kattadir. Chunki o‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarni ilgari suradilar. O‘yinlarning qanday qoidalar asosida o‘ynalishini o‘zları mustaqil ravishda tanlab oladilar. O‘yin qoidasidan chetga chiqib ketmaslik uchun o‘z harakatlarini o‘yin qoidalariga moslashtirishga va o‘yinda qatnashuvchi o‘rtoqlarining harakatlarini ham kuzatib borishga tirishadilar.

O‘yin bolaning amaliy faoliyati shakllaridan biri bo‘lib, uning tevarak-atrofidagi hayotni o‘zlashtirib olishga qaratilgandir. Ammo bu bilishdan oldin uning bevosita shakllari (idrok qilish, kuzatish) ro‘y beradi, bu esa o‘yinda bolaning sensor rivojlanishiga rahbarlik qilishga alog‘ida talablar qo‘yadi:

1) bolalarning sensor rivojlanishiga ta’sir etish o‘yinning mazmuni, uning tuzilishi, tasviriy vositalari bilan ifodalanadi. Shuning uchun ijodiy o‘yinda nazariy

tushunchalar orqali rejalashtirilayotgan bilim va malakalarni mustahkamlab bo‘lmaydi:

2) bolalar o‘yinlarining mazmunini ularning tevarak-atrofdagi narsalar haqida taassurotlar bilimlarni kengaytirish orqali boyitish ijodiy o‘yinda bolalarning aqliy rivojlanishiga rahbarlik qilishning asosiy yo‘lidir. O‘yin jarayonida bilimlar qayta ishlanadi, ular takomilashtiriladi;

3) o‘yinlarni diqqat bilan kuzatish va tahlil qilish bolalarning ma’lum bir voqeя yoki hodisalarni tushunish darajasini aniqlashga hamda bilimlarni oydinlashtirish, chuqurlashtirish yoki tuzatishga doir ishlarni tashkil etishga imkon beradi;

4) bolalarning sensor o‘yinlariga kundalik rahbarlik qilishda ularning fantaziyasini rag‘batlantirish kerak.

5) o‘yinlarga rahbarlik qilish bolalarning o‘yin mavzusini oldindan belgilashga, rollarni taqsimlashga, o‘yining asosiy yo‘nalishini aniqlashga o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi kerak. [4].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mashg‘ulot jarayonida turli xil o‘yin turlaridan foydalanish mumkin. Bolaning aqliy rivojlanishida didaktik o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Didaktik o‘yin - bu bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim berish usulidir. Tarbiyachi bu o‘yinlardan bolalarni jamiyatga aralashtirish uchun har xil rejalar, vazifalarni qo‘rqmasdan bajarishi uchun foydalanadi. Didaktik o‘yinlar ta’lim tarbiyaning vazifasi hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik o‘yinlar bolalarning amaliy faoliyati hisoblanadi, shuning uchun unda bolalar mashg`ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadi. Didaktik o‘yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi.**

Bunday o‘yinlarga kichik guruh bolalari uchun “Rangiga qarab top”, “Shakliga qarab top” kabi o‘yinlarni misol sifatida keltirish mumkin. Katta guruh bolalari uchun “Sharbat va sho‘rva», “Quvnoq qistirgichlar”, “Soatcha”, “Xaritani to‘ldir” va boshqa o‘yinlarni ko‘rsatish mumkin. Didaktik o‘yinlar bolalarning tevarak-atrofhaqidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bola o‘zi yakka tartibda va mashg`ulotlar jarayonida olgan bilimlarini amalda qo‘llashga o‘rgatadi. Ulardagi fikrlash qobiliyatlarini, ijodkorlik kuchlarni, sensor jarayonini rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayonini yengilroq va qiziqarliroq qiladi. Bolalar yoshlariga mos, qiziqarli faoliyat orqali o‘yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda oson va yaxshi o‘zlashtiradi. Didaktik o‘yinlar kattalar

tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o‘yin elementlari qancha ko‘p bolsa, bolalarga u shuncha ko‘p quvonch bag‘ishlaydi. [2]

Didaktik o‘yining kerakli tomoni uni o‘tkazishdan ko‘zda tutiladigan g‘oyadir. O‘yin g‘oyasi bolalarda o‘yinga qiziquvchanlikni uy‘otadi, ko‘pincha bu g‘oya didaktik o‘yinni boshlashga sababchi bo‘ladi. Masalan: «Ajoyib xaltacha» yoki «Kim qanday qichqiradi» va boshqalar. Ta’lim tarbiya uchun o‘yin natijasi hamma vaqtbolalarning bilim egallashida, aqliy faoliyatida, o‘zaro munosabatlarida erishgan yutuqlarining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Uning mazmuni, g‘oyasi, harakatlari va qoidalari o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ularning bittasi bo‘lmasa ham o‘yinni o‘tkazib bo‘lmaydi. Didaktik o‘yining o‘yin faoliyati sifatidagi o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari o‘yin tarzida bo‘ladi. Bolalar ko‘pincha o‘yin mazmuni bilan belgilanadigan vao‘yin harakatlari talab etadigan bitta rolni tanlaydi. Masalan: do‘kon o‘yininda bilish mazmuni shundan iboratki, xaridor bolalar o‘zлari sotib oladigannarsalarning belgilarini aytishi, sotuvchi bolalar bo‘lsa talab qilingan narsaning nima ekanligini xaridor aytgan belgilar bo‘yicha bilib olishlari kerak. O‘yin qoidalarini xaridorlarning oladigan narsalarni olishi, sotuvchiga yaxshi munosabatda bo‘lishi, oladigan buyumni tasvirlab berishi, uni har tomonlama ko‘rib chiqishi va uni boshqa buyumlar bilan taqqoslashi, belgisini aytishi va pul to‘lashidan iborat. Sotuvchilarning vazifasi esa xaridorlar so‘zlayotganda ularni yaxshi e’tibor bilan tinglash, so‘zlarini bo‘lmaslik, so‘ragan buyumlarini olib, qog‘ozga o‘rab berishdan iborat bo‘ladi.

### Bu qaysi hayvon o‘yini

**O‘yining maqsadi:** bolalarni tashqi belgilari bilan tanish bo‘lgan narsalarni tanib olishni o‘rgatish (bu holatda hayvonlar turli yo‘llar bilan tanishtiriladi). Bundan tashqari, o‘yin tasavvurni, harakatlarni muvofiqlashtirishni va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi (bolalarni tavsiya etilgan belgilar asosida mantiqiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi).

**Kerakli jihozlar:** Hayvonlar haykali tasvirlari (bir xil o‘lchamda). Bu yovvoyi va uy hayvonlari bo‘lishi mumkin. Eng muhim, bu hayvonlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlari to‘plamiga ega bo‘lishi kerak.

**O‘yining tartibi** (o‘yin bir guruhsida o‘tkazilishi mumkin). Tarbiyachi bolalarga tasvirlangan hayvonlarning suratlarini ko‘rsatadi, ularni nomlashni taklif qiladi. Agar o‘yin yosh bolalar orasida o‘tkazilsa, u holda bu yoki boshqa hayvon qanday qilib "gapiradi" deb so‘rash kifoya. Agar 4.5-5 yoshdagi bolalar o‘ynayotgan bo‘lsa, unda biz bu yovvoyi hayvonning yashaydigan joyini eslashga chorlashimiz mumkin.[3].

Tarbiyachi har bir hayvonning yurishini takrorlashi kerak. Misol uchun, quyonning kichkina va yengil ekanligi, shuning uchun u yaxshi sakrashi mumkin va ayiq katta va og‘ir bo‘lib, shuning uchun qattiq urishadi. So‘ngra bolalarniham turli hayvonlarning "yurishini" taqlid qilishga chaqiradi.

Bolalarning hayvonlar haqida bilimlarini kuchaytirish uchun, tarbiyachi stol ustidagi rasmlarni tasvir tomonini yashirib, so‘ngra o‘yin ishtirokchilarini stoldan rasm olishni so‘raydi. Bolalar vazifani olib, hayvonni tasvirlab, «yurish» ni taqlid qilishadi va oxirida uni nomini so‘rashadi. Qolgan bolalar rasmida qanday hayvon tasvirlanganini bilishlari kerak.

O‘yin oxirida o‘qituvchi bolalarni rag‘batlantiradi va biron hayvon haqida she’r o‘qishga taklif qiladi.

Didaktik o‘yining ahamiyati shundan iborat, u olingan bilimlarini turlicha qo‘llash uchun, aqliy faoliyatini kuchaytirish uchun hayotiy sharoit yaratadi. Bunda bolalar yo‘l qo‘yilgan xatolar va ular nimadan qiynalayotganligi ma’lum bo‘ladi. Tarbiyachi bu xatolarni tuzatish va qiyinchiliklarni yengishda birdan birzarur vosita hisoblanadi. Yakka tartibdagi didaktik o‘yinni paydo qilish bilan tarbiyachi o‘zaro munosabatlar uchun qulay sharoit yaratadi, aqliy faoliyatda orqada qolishning sabablarini aniqlaydi, ko‘p mashg‘ulot o‘tkazish bilan bunday bolalarning o‘sish darajasini oshiradi.

Bolada sensomotorikani rivojlantirish masalalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, sensor tarbiyaning sistemasi bolalarni faqat idrok qilinadigan xislatlar bilan tanishtirishgina emas, shu bilan birga ularda bu xuslatlarni ajratib ko‘rsatish va takrorlash imkonini beradigan his etib mo‘ljallash harakatlarini tartib topshirishni ham nazarda tutadi. Bunday harakatlarning sensor madaniyatni takomillashtirish, mактабгача yoshdan boshlab bolalarning rivojlanishi uchun yetakchi bo‘lgan predmet faoliyatini yaxshiroq egallah va umumiyligini aqliy kamolot uchun ahamiyati shak-shubhasizdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar sensor harakatlarni tarkib toptirish sohasidagi ishlar mumtazam ravishda olib borilar ekan, bolalarning sensor rivojlanishda faqat umumiyligini siljishga erishib qolmasdan, shu bilan birga aqliy jarayonlarning ham rivojlanishiga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha yoshdagি bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat Talablari. Toshkent 2018 yil
2. Didaktik o'yinlar to'plami. «Istiqlol» nashriyoti -2004-yil, 15-bet
3. Jumanova. D.M., Tursunova Yu.K. «Quvnoq logotipik o'yinlar». Toshkent 2010 yil, 10-bet
4. Козлова С.А., Кушкова Т.А. Дошкольная педагогика. – М., 2000. – стр 56
5. N.Boymurodov. Amaliy psixologiya. Toshkent «Yangi asr avlodi» – 2008 yil, 76-bet

## MOTIVATSIYA VA UNING ILMIY-NAZARIY O'RGANILISH SOHASI

Ishonkulova Norbiyi Islamovna

Samarqand davlat universiteti Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Bugungi davrning har bir jabhasida motivatsiya va uni inson faoliyatiga singdirishga doir qarashlar, aniq xatti-harakatlar uchraydi. Maqolada motivatsiya va uning ilmiy-tadqiqot sohasi, nazariyalar, o'ziga xos qarashlar tahlilga tortilgan. Shu bilan birga motivatsiyaga bog'liq tushunchalar, olimlarning ta'riflari, ularning ahamiyatli jihatlari yoritilgan. Mualliflik yondashuvi sifatida izlanishlar jadvallar asosida taqdim qilingan.

**Tayanch so'zlar:** motiv, ehtiyoj, motivlashtirish, rag'bat, jarayon, faoliyat

## МОТИВАЦИЯ И ОБЛАСТЬ ЕЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ

**Аннотация.** В каждом аспекте современного мира есть установки и действия, которые мотивируют и интегрируют его в человеческую деятельность. В статье анализируется мотивация и область ее исследования, теории, уникальные взгляды. При этом разъясняются понятия мотивации, определения ученых, их важные аспекты. В качестве авторского подхода исследование представлено в табличной форме.

**Ключевые слова:** мотив, потребность, мотивация, побуждение, процесс, деятельность.

## MOTIVATION AND THE AREA OF ITS SCIENTIFIC AND THEORETICAL STUDY

**Annotation.** In every aspect of the modern world, there are attitudes and actions that motivate and integrate it into human activity. The article analyzes motivation and the area of its research, theories, unique views. At the same time, the concepts of motivation, definitions of scientists, their important aspects are explained. As an author's approach, the study is presented in tabular form.

**Keywords:** motive, need, motivation, motivation, process, activity.

Dunyo miqqosidagi globallashuv jarayoni natijasida yuzaga kelgan mamlakatlararo iqtisodiy va madaniy integratsiya turli soha mutaxassislarining

rivojlanish davri tendensiyalarini tushunish, o‘z-o‘zini boshqarish, mavjud bilimlarini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda.

Ta’lim muassasalarida o‘qitish tizimi va usullaridan foydalanishni samarali tashkil qilish, muayyan yangiliklarni joriy qilishga ochiqlik, g‘oyalarni, tashkilot qadriyatlarini yaratish va tizimga kiritish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bu jarayonda umumiyo‘rta ta’lim faoliyati natijadorligini ta’minlashda pedagog-xodimlarning xattiharakatlari alohida ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyat o‘qituvchidan o‘z-o‘zini doimiy ravishda kasbiy rivojlantirib borishni talab qiladi, uzlusiz kasbiy rivojlanishga esa motivatsiyaning mavjudligi, uning motivatsion tayyorligi muhimdir.

Motivatsiyaning murakkab va serqirraligini tadqiq etish, ko‘plab yondashuvlar orqali uning asl tabiatini, tarkibini tushunish hamda atroficha o‘rganish alohida tasniflarni talab etadi. Aynan shu sabab olimlar turli atamalardan foydalanganini va bir-biriga o‘xshamagan talqinlarini ko‘rish mumkin. Ishimizda ushbu nazariyaning asosi bo‘lgan motivatsiya va motivatsion tayyorlik aspektining konseptual asoslarini o‘rganish, tahil qilish, aniqlash hamda bugungi o‘zgaruvchan ta’lim muhitida o‘qituvchining uzlusiz kasbiy rivojlanishga motivsion tayyorligini ta’minlash maqsad qilindi

Motivatsiyaning tub mohiyatini tasniflashda ehtiyoj, motiv, motivlashtirish hamda rag‘batlantirish kabi tushunchalarning mazmuniga to‘xtalish o‘rinlidir.

Ehtiyoj – biror narsaga bo‘lgan talab; hojat, zarurat, zaruriyat, muhtojlik.

Ehtiyojlar jismoniy, idrok etilgan va idrok etilmagan turlarga ajraladi. Jismoniy ehtiyojlar – bu ish o‘rni va yashash joyini o‘zgartirish ehtiyoji ko‘rinishida namoyon bo‘lsa, idrok etilgan ehtiyojlar – mavjud bizga yoqadigan narsalargacha siljish lozim. Idrok etilmagan ehtiyojlar ruhiy bo‘lib, bular – ichki rag‘batlardir. Umuman olganda, ehtiyojlar – bu shunday narsalarki, ular inson ichida (ichki dunyosida) paydo bo‘ladi va o‘rnashadi, har xil insonlar uchun etarli darajada umumiyo hamda har bir insonda o‘z vaqtida ma’lum ko‘rinishda individual paydo bo‘la oladi. Maqsadning ehtiyoj darajasiga chiqishi motivning kuchiga bog‘liq.

Motiv – 1) insonni o‘qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig‘indisi; 2) o‘quvchining ma’lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatga moyilligi. U shaxsdagi xulq-atvorga qaratilgan moyillik va hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.

Motiv ilmiy termin sifatida bir qancha ta’riflarga ega, xususan, X.Xekxauzen motivni fikr yuritishning mahsuli – konstruktiv desa, boshqa tadqiqtchilar motivni psixologik hodisa deb izohlaydi. E.G.Azimov va A.N.Shukin motivni faoliyatga ishtiyoy uyg‘otuvchi, inson ehtiyojlarini qondirishga bog‘liq, tashqi va ichki shartsharoitning hamjihatligiga asoslangan sub’ektni va insonlarni faollikka chiqaradigan va uning yo‘nalishini belgilab beradigan hodisa sifatida ta’riflashgan.

Psixologiyada, jumladan, S.L.Rubinshteyn tomonidan ham shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvori, o‘zini qanday tutishi, xatti-harakatning amalga oshishi motiv tushunchasi bilan bog‘lab talqin qilinadi. Motiv yaqqol faoliyat nuqtai nazaridan qaralib, ehtiyojli yondashuvi mazkur nazariyaning yanada boyishiga sabab bo‘ldi. Olim motivning psixologik mohiyatini izohlarkan, faoliyatning manbai bo‘lgan va unga undab turgan jonkuyarlik deb atagan. A.N.Leontev motivlarni ikki kategoriya bo‘ladi: mazmun kasb etuvchi motivlar va stimul-motivlari. Birinchisi ham (ishtiyoy) uyg‘otuvchi, ham mazmun kasb etuvchi vazifani bajarsa, ikkinchisi faqat (ishtiyoy) uyg‘otuvchi vazifani bajaradi. Ushbu masalani yoritishda V.M.Karimova, F.A.Akramovalar ikki jihatni farqlab ko‘rsatishadi: a) ichki sabablar, ya’ni xatti-harakat egasining sub’ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo‘ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari bo‘lib, bular ayni aniq holatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi stimullardir.

Tadqiqotchi olimlar tomonidan motivlar turlicha klassifikatsiyalanadi. Ularning birida motivlar ikki yo‘nalishga, ya’ni birinchisi ularning kelib chiqishi va ahamiyatlilik darajasi, ikkinchisi anglanilish darajasiga ko‘ra farqlangan. Shuningdek, kelib chiqishi va ahamiyatiga ko‘ra birlamchi va ikkilamchi guruhlarga ajratilgan.

Birlamchi motivlarda tug‘ma ehtiyojlar (ovqatlanish, ichimliklarga chanqoqlik, qulay muhit, kasallik va xavfdan qutilish, yaqinlarning farovonligi, to‘siqlarni bartaraf etish, o‘yin va boshqalar) ifodalansa, ikkilamchi motivlar ijtimoiylashuv (go‘zallik, didlilik, poklilik, ehtiyotkorlik, qiziquvchanlik, ishonchilik, qadr-qimmat, tejamkorlik va samaralilik, ilmlilik, xabardorilik, ishga qobiliyatilik, sog‘lik va universallik) jarayonida yuzaga chiqadi.

Motivlarning ikkinchi klassifikatsiyasi anglaniladigan va anglanilmaydigan motivlarga bo‘linadi. Anglaniladigan motivlar shaxsning anglash vazifasiga tayanadi. Anglanilish ichki va tashqi dunyoda orttirilgan shaxsiy tajribalar bilan bog‘langan. Anglanilish jarayonlari shaxsiy diqqatni yoki shaxsning ongida voqealarni anglash va mulohaza qilish qobiliyatini yaratadi. Bunda motiv ilgari sodir bo‘lgan harakatdan anglanilgan bo‘ladi. Miyaning barcha ma’lumotlarni tabiatan boshqarishi qiyin, shuning uchun ham tez-tez bajariladigan harakatlar va xulq-atvorlar keng darajada anglanilmaydigan motivlar orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri amalga oshiriladi.

Shu o‘rinda motiv hamda motivatsiya tushunchalarini farqlab olish kerak, o‘rganilgan adabiyotlarga ko‘ra motivatsiya – motivning ongli shakllantirilish jarayoni, motivlar motivatsiyaning tuzilmasini tashkil etadi, degan xulosaga kelish mumkin.

“Motivlashtirish – ta’lim oluvchilar faoliyatini ma’lum ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, psixologik ta’sir etish yo‘llari bilan maqsadga yo‘naltirish.

Motivlashtirish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlariga yo'nalish beradi, erishish zarur bo'lgan maqsadlarni belgilaydi. Motivlashtirish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish, takomillashtirish yo'nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi".

Motivlashtirish – bu ruhiy omil bo'lib, shaxs faolligining manbai, sababi, dalili va har xil turli ehtimollaridir. U xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag'batlantiruvchi kuchli vositadir.

Demak, rag'batlantirish tushunchasi ham motivatsiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Rag'batlantirish – "rag'bat" (biror ishga bo'lgan xohish, istak, mayl, ra'y; qiziqtiruvchi, qo'zg'atuvchi omil, sabab; psixologiyada – inson his-tuyg'ulari, ruhiy holatlarini rivojlantiruvchi, uni faollikka undovchi ruhiy ta'sir), "rag'batlanmoq" (manfaatdorlik oshuvi yoki taqdirlash natijasida biror ish, faoliyatga qiziqmoq, rag'bat oshmoq) so'zlarining ma'nosi umumlashgan shakl. Rag'batlantirish – shaxsga va sub'ektlarga tashqi kuchlar bilan ta'sir ko'rsatib faoliyat yuritishga undash.

Rag'batlar ma'lum bir motivlar ta'sirini hosil qiladigan tashuvchilar rolini o'ynaydi. Rag'batlarga alohida predmetlar, boshqa odamlarning faoliyatları, muloqotlar, majburiyat va imkoniyatlarning tashuvchilari, yaratilgan shart-sharoitlar va ko'pgina boshqa narsalar kirishi mumkin. Bular shaxsga ma'lum bir faoliyat natijasining kompensatsiyasi sifatida taqdim etilishi ham mumkin. Demak, shaxslarni motivatsiyalash uchun turli xil rag'batlardan foydalanish jarayoni rag'batlantirishdir.

Motivatsiya esa inson faoliyatini boshqarishda uning axloqiy mayllaridan foydalanish, deb tushuniladi. Motivatsiya atamasi ilk marta 1880-yillarning boshida psixologlar lug'atida tilga olingan bo'lsa, Vebstr akademik lug'atida motivatsiya – "motivatsiyalash faoliyati yoki jarayon", deya ta'riflangan. Hozirgi kungacha ilmiy adabiyotlarda motivatsiya muhim omil sifatida bir necha tadqiqotlarda o'rganilgan. Buni quyidagi jadvalda ko'rib o'tamiz:

#### 1.1-jadval

#### **Motivatsiya tushunchasining talqini**

Maslou	Motivatsiya shaxsning biror-bir qismi, tomoni emas, balki uning butun shaxsiyatiga tegishli. Har qanday psixologik yoki fiziologik holat, tanadagi biror bir o'zgarish ham ma'lum darajada motivatsiya bilan bog'liq.
S.L.Rubenshteyn	Ruhiyat orqali hosil bo'ladigan determinatsiya.
G.V.Rogova	Motivatsiya darslar samaradorligini belgilab beruvchi tarkibiy qismi.
I.A.Zimnyaya	Insonning har qanday faoliyatini ishga soluvchi mexanizm.

O.S.Vixanskiy, A.I.Naumov	Bu insonni faoliyatga intiltiruvchi, faoliyatning shakli va chegaralarini belgilovchi hamda bu faoliyatga yo‘nalish beruvchi, ma’lum maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar yig‘indisi.
A.G.Maklakov	Xatti-harakatni determinlovchi (aniqlab beruvchi) omillar sistemasi.
R.S.Nemov	Xatti-harakatni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni.
R.E.Slatin	Bu odamni harakatga keltiradigan va o‘sha holatda ushlab turadigan ichki turtki, motivatsiya shaxsning harakatlanish yo‘lini ohib beradi.
Nyustrom va Devis	SHaxsni harakatga undovchi kuch, valentlik, istaklar, kutuвлar hamda vositalar uning mahsuli sifatida belgilanadi.
Wigfield, Eccles, Rodriguez	har qanday maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatni amalga oshirish istagi. Muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan muhitda, masalan, maktablarda, shaxsning motivatsiyasi ko‘p jihatdan qilingan tanlovlarni, sarflangan sa’y-harakatlarni, vazifalarni bajarishda qat’iylikni va samarali ishslashni bashorat qilishi mumkin.
Deci, Ryan	Insonning biror narsani amalga oshirish uchun harakat qilishini anglatadi. Motivatsiya – bu rag‘batlanishlardan ichki motivatsiyagacha bo‘lgan davomiylik. Doimiy amalga oshiriladigan odatlar yig‘indisi.
J.Jalolov	Nutqiy faoliyat ko‘rsatishga moyillik, shaylik, ichki turtki, nutq mayli.
B.R.Samatova	Jarayon kechishida qo‘llab-quvvatlovchi va kerakli shijoatni so‘nishiga yo‘l qo‘ymaslikni ta’minlovchi hodisa.

Ta’lim muassasasining umuman olganda, o‘qituvchining intilishlari tashqi muhitdan kirib kelayotgan o‘quvchiga, uning bilim darajasini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. SHunday ekan, global kompetentlik talab qilinayotgan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash zarurati kuchaygan bir davrda o‘zgarishlarga to‘g‘ri yondasha olishi uchun o‘qituvchi faoliyatida va uning uzluksiz kasbiy rivojlanishida motivatsiya tizimini ta’lim oluvchilarning manfaatlariga moslab ishlab chiqish hamda pedagog xodimning o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsin tayyorlik kompetentligini takomillashtirib borish lozim. Jumladan, motivatsiyaga berilgan ta’riflarning mazmuni va izlanishlar mohiyatini to‘la anglash muhim ahamiyatga ega (1.2-jadval).

## Tadqiqotchilarning motivatsiya tushunchasiga doir yondashuvlari mazmuni

1.2-jadval

Olimlar	Mexanizm	Jarayon	Holat	Hodisa	Turtki	Istak	Kuch
Maslou		+	+			+	
S.L.Rubenshteyn		+		+	+	+	
G.V.Rogova	+		+				+
I.A.Zimnyaya	+		+			+	
O.S.Vixanskiy, A.I.Naumov		+			+		+
A.G.Maklakov	+	+					
R.S.Nemov		+		+			
R.E.Slatin		+	+		+		
Nyustrom va Devis		+				+	+
Wigfield, Eccles, Rodriguez		+			+	+	+
Deci, Ryan		+	+		+		+
J.Jalolov					+		
B.R.Samatova				+			

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umumlashtirish va tahliliy o‘rganish natijasida biz motivatsiyaga ta’limiy nuqtai nazardan quyidagi yondashuvni shakllantirdik, ya’ni motivatsiya – bu o‘qituvchi yoki o‘quvchi tomonidan o‘zining ta’lim berish va olishga, shaxsiy hamda kasbiy manfaatlarini, o‘z maqsadlariga erishishni ta’minalashga undaydigan, ehtiyojlarini uyg‘otadigan va rag‘batlantiradigan kuchlarning doimiy faol jarayonidir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘rganilgan tadqiqotlar, insonlar faoliyatini motivatsiya qilishga urinishlar, umuman motivatsiya ta’riflari, ushbu tushunchaga doir talqinlar hozirgi kunda ham har bir sohada shakl-shamoyiliga muvofiq davom etmoqda. SHuningdek, ta’lim sohasi taraqqiyotida asosi, turgagi bo‘lgan o‘qituvchini motivatsiyalash jamiyatdagi o‘rinini belgilashga, o‘z-o‘zini anglashga, ichki turkinning kuchlanishiga olib keluvchi usullardan biridir. Aynan tashqi motivatsiyalash uni ichki motiviga hamda faoliyatida uzlusiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik motivatsiyasiga yo‘naltiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2012. – 427 b.
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. 3-е издание, присмотренное. – Москва: 2010. – 448 с. – С. 410-413.
3. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: T.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O‘AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность: Учебное пособие. 2-е изд., стереотипное. – М.: Смысл: Академия, 2005. – 352 с.
5. Маклаков А.Г. Общая психология: Учебник для вузов / – Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 583 с. – С.512.
6. Маслоу А. Мотивация и личность. Электрон ресурс:  
<http://psylib.org.ua/books/masla01/index.htm>
7. Немов Р.С. Психология в 3 книгах. Книга 1. Общие основы психологии. Учебник. – М.: Владос, 2010. – 687 с.
8. Ньюстром, Дж.В., Дэвис, К. Организационное поведение / Дж.В.Ньюстром. К.Дэвис. – перевод с англ, под ред. Ю.Н. Каптуревского. – СПб.: Питер, 2000. - 448 с.
9. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
10. Pedagogue. *Merriam-Webster.com. Dictionary, 2018. Elektron resurs:*  
<https://www.merriam-webster.com/dictionary/pedagogue>.
11. Рогова Г.В. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287 с. – С. 5.
12. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.

УДК: 693.9.699

## ВЛИЯНИЯ ПАРАМЕТРОВ НАСТИЛАЮЩЕГО ВЕТРА НА ИНФИЛЬТРАЦИЮ ВОЗДУХА ЧЕРЕЗ ОКНА ЗДАНИЙ

доцент, PhD. **Б.Б. Хасанов,**

маг. **А.А. Каримова**

(ТАСИ)

В этой статье приведены результаты проведённого численного исследования влияния параметров настилающего ветра на инфильтрацию воздуха через окна зданий башенного типа. Полученные данные позволяют сделать выводы о пределах влияния ветра на процессы инфильтрации в зданиях башенного типа.

*Ushbu maqolada shamol parametrlarini yotqizish minora tipidagi binolarning derazalari orqali havo infiltratsiyasiga ta'sirini raqamli o'rganish natijalari keltirilgan. Olingan ma'lumotlar shamolning minora tipidagi binolarda infiltratsiya jarayonlariga ta'siri chegaralari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.*

*This article presents the results of a numerical study of the effect of laying wind parameters on air infiltration through the windows of tower-type buildings. The data obtained allow us to draw conclusions about the limits of the influence of wind on infiltration processes in tower-type buildings.*

**Ключевые слова:** зданиях башенного типа, расчеты воздушного режима, системы уравнений, математическая модель, расположение окон.


В Узбекистане тоже проводятся методы расчётов инфильтрационной составляющей воздушного режима зданий можно разделить на инженерные «ручные» [1, 2] и инженерные автоматизированные, когда решается систем уравнений воздушных балансов всех помещений здания на ЭВМ [2-5]. Для данных целей был написан программный код для ЭВМ, реализующий математическую модель воздушного режима здания при заданных параметрах вентиляции, а также средствами численном моделировании в программной среде STAR-CCM+ получены распределения ветрового давления для различных случаев формы здания и параметров ветра, которые использовались как входные данные для расчёта воздушного режима здания на ЭВМ.

Последние являются более точными, так как могут учитывать одновременно множество процессов. Математическая модель воздушного

режима здания в перечисленных работах [2-5] в своей основе является неизменной. Одной из причин выбора послужил тот факт, что данная математическая модель была верифицирована при использовании данных натурных замеров по некоторым административным зданиям. Данная математическая модель представлена системой уравнений (1).

Следует отметить, что ни в одной работе при расчёте инфильтрационной составляющей воздушного режима во внимания не рассматривались случаи, когда, по сути, варьировалось направление ветра. В лучшем случае направлений ветра было два: «в узкую сторону» и «в широкую сторону». И если одно из направлений обозначить за  $0^\circ$ , а другое за  $90^\circ$ , то направления, отличные от  $0^\circ$  и  $90^\circ$ , не рассматривались.

В данной работе представлены некоторые результаты начальной стадии исследований, восполняющие перечисленные пробелы.



**Рис. 1. Места расположения окон на периметрах башен**

### Постановка задачи

Рассматривается задача определения инфильтрационных расходов в зданиях башенного типа при варьируемых параметрах внешнего ветра. Рассматриваются здания квадратного и круглого сечений в плане. Для зданий являются общими следующие параметры: высота башен 120 м, этажность — 40, по плану типового этажа здания на этаж приходится 12 квартир. Окна в каждой квартире выходят на одну сторону. Каждая квартира на этаже характеризуется окном площадью  $A_{\text{ок}} = 10 \text{ м}^2$ , а также площадью выходной двери из квартиры  $A_{\text{дв}} = 2 \text{ м}^2$ . Принимается, что в рассматриваемом здании каждая

квартира имеет идентичные по суммарной площади окна и одинаковые по площади входные двери. Для каждой квартиры здания назначаются сопротивление воздухопроницанию окна  $R_{u_{ок}} = 1 \text{ м}^2 \cdot \text{ч}/\text{кг}$  при  $\Delta p = 10 \text{ Па}$  и сопротивление воздухопроницанию двери  $R_{u_{дв}} = 0,5 \text{ м}^2 \cdot \text{ч}/\text{кг}$  при  $\Delta p = 10 \text{ Па}$ .

На рис. 1 представлены точки центров окон квартир первого этажа на фасадах башен двух типов, которые рассматриваются в работе.

По высоте центры окон расположены на уровнях середин этажей. Высота окон первого этажа 1,5 м, 40-го — 118,5 м. Для нахождения расходов через окна и двери квартир решается система уравнений (1):

$$\left\{ \begin{array}{l} P_{hi} = P_{0j} + \sqrt[3]{R_{u_{ок}} \frac{G_{окi}}{A_{ок}}} \operatorname{sign}(G_{окi}) + \\ + \left( R_{u_{дв}} \frac{G_{двi}}{A_{дв}} \right)^2 \operatorname{sign}(G_{двi}), \\ G_{окi} = G_{двi} + \Delta G_{pi}, \\ \sum_{i=1}^N (G_{двi}) = \sum_{j=1}^M (\Delta G_{kj}), \end{array} \right. \quad (1)$$

где  $P_{0j}$  — давление воздуха в коридоре  $j$ -го этажа, Па;  $P_{hi}$  — внешнее давление на окно  $i$ -го помещения;  $A_{ок}$  и  $A_{дв}$  — площадь окон и дверей  $i$ -го помещения,  $\text{м}^2$ ;  $R_{u_{ок}}$  и  $R_{u_{дв}}$  — сопротивления воздухопроницанию окон и дверей,  $\text{м}^2 \cdot \text{ч}/\text{кг}$ ;  $G_{окi}$  и  $G_{двi}$  — расходы воздуха в окнах и дверях  $i$ -го помещения,  $\text{кг}/\text{ч}$ ;  $\Delta G_{pi}$  — дисбаланс притока/вытяжки по  $i$ -му помещению,  $\text{кг}/\text{ч}$ ;  $\Delta G_{kj}$  — дисбаланс притока/вытяжки по  $j$ -му коридору,  $\text{кг}/\text{ч}$ .

Внешнее давление  $P_{hi}$  на окно  $i$ -го помещения состоит из суммы гравитационного и ветрового давлений, действующих на окно:

$$\begin{aligned} P_{hi} &= P_{gi} + P_{vi} = \\ &= c_p \rho_h \frac{v_i^2}{2} + (\rho_h - \rho_v) g (H - z_i), \end{aligned} \quad (2)$$

где  $c_p$  — аэродинамический коэффициент ветрового давления;  $\rho_h$  и  $\rho_v$  — плотности снаружи и внутри помещения,  $\text{кг}/\text{м}^3$ ;  $g$  — ускорение свободного падения,  $\text{м}^2/\text{с}$ ;  $z_i$  — высота  $i$ -го окна, м;  $H$  — высота здания, м.

В большинстве случаев давление в поэтажных коридорах может быть принято равным давлению в лестнично-лифтовом узле на том же уровне. Поскольку двери из коридоров в лестничную клетку и лифтовые холлы обычно приоткрыты.

В данной работе рассматривается случай, когда в здании работает механическая вентиляция с нулевым дисбалансом притока/вытяжки по каждому помещению ( $\Delta G_{pi} = 0$ ) и суммарная вытяжка по коридору также равна нулю:

$$\sum_{j=1}^M (\Delta G_{kj}) = 0.$$

В большинстве случаев давление в поэтажных коридорах может быть принято равным давлению в лестнично-лифтовом узле на том же уровне. Это объясняется тем, что двери из коридоров в лестничную клетку и лифтовые холлы обычно приоткрыты, большой проводимостью обладают лифтовые двери, коэффициент сопротивления воздухопроницанию которых в 1000 раз меньше, чем у дверей помещений. Поэтому при принятом расчёте наружного гравитационного давления в коридорах на всех этажах зададимся постоянным давлением  $p_0$  на каждом этаже.

С учётом всех допущений система решаемых уравнений примет вид:

$$\left\{ \begin{array}{l} P_{hi} = P_{0j} + \sqrt[3]{R_{uok} \frac{G_{oki}}{A_{ok}}} \operatorname{sign}(G_{oki}) + \\ + \left( R_{udv} \frac{G_{dvi}}{A_{dv}} \right)^2 \operatorname{sign}(G_{dvi}), \\ G_{oki} = G_{dvi}, \\ \sum_{i=1}^N (G_{dvi}) = 0. \end{array} \right. \quad (3)$$

Рассматриваются шесть расчётных случаев для определения инфильтрационных расходов.




Рис. 2. Ветровое давление (по этажам для квартир по вертикальным рядам 1, 2, 3)

Ветровое давление  $p_v$  для всех расчётных случаев было получено при помощи численного моделирования в программном пакете гидрогазодинамического анализа STAR-CCM+. Для задания скорости обтекания использовался закон:

$$U(z) = U_0 \left( \frac{z}{10} \right)^n. \quad (4)$$

При  $U_0 = 3$  м/с  $n = 0,4$ , при  $U_0 = 9$  м/с  $n = 0,1$ . На рис. 2 приведены картины расправления ветрового давления при скорости ветра  $U_0 = 3$  м/с для вариантов 1, 2, 5. Направления ветра относительно расположения башни показаны на рис. 1.

### Полученные результаты

Представлено распределение инфильтрационных расходов для квартир вертикальных рядов 1, 2, 3 (рис. 3, вертикальный ряд 1 — первая квартира и все квартиры над первой по вертикали согласно рис. 1). Расход воздуха считается положительным при движении воздуха из помещения наружу и из коридора в помещение, поэтому инфильтрационные расходы со знаком «минус».

Несмотря на то, что расходы через окна вдоль вертикальных рядов (квартир) 1-12 имеют разные распределения расхода через окна, суммарный инфильтрационный расход по всему зданию для вариантов 1, 2, 5 отличается не более 5 % друг от друга.

Представлено распределение инфильтрационных расходов для квартир вертикальных рядов 1, 2, 3 (рис. 3, вертикальный ряд 1 — первая квартира и все квартиры над первой по вертикали согласно рис. 1). Расход воздуха считается положительным при движении воздуха из помещения наружу и из коридора в помещение, поэтому инфильтрационные расходы со знаком «минус».




Рис. 3. Ветровое давление (по этажам для квартир по вертикальным рядам 1, 2, 3)

Также следует сказать о том, что инфильтрационный суммарный расход при отсутствии ветра составляет 4657 кг/ч. Анализируя данные табл. 2 с учётом значения инфильтрационного расхода при отсутствии ветра, можно заключить, что при скорости ветра 3 м/с (на уровне 10 м) практически нет вклада ветрового давления в инфильтрацию воздуха через окна.

Разница в форме башни при одинаковой площади суммарной площади окон практически не влияет на суммарный инфильтрационный расход. При скорости 9 м/с ветровое давление уже вносит вклад в инфильтрацию воздуха через окна. При таких скоростях важно учитывать при расчёте инфильтрации направление ветра и форму здания, задаваясь необходимым распределением аэродинамического коэффициента давления  $c_p$  из эксперимента или численных расчётов.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Ходжаев С.А., Хасанов Б.Б. Особенности обеспечения теплотехнических показателей ограждающих конструкций энергоэффективных зданий в климатических условиях. // Журнал. Узбекистан// Архитектура и строительство Узбекистана. №6/ 2020.
2. Китайцева Е.Х. Обобщённые методы расчёта воздушного режима здания и факторов, влияющих на качество внутреннего воздуха: Дисс. на соиск. уч. ст. к.т.н. — М.: МГСУ, 1995.
3. Романовская И.А. Исследование воздушного режима помещений с кондиционированием воздуха // Водоснабжение и санитарная техника, №10/1982.
4. Светлов К.С. Исследование воздухообмена в зданиях с использованием ЭВМ: Дисс. на соиск. уч. ст. к.т.н. — М.: МИСИ, 1986.
5. Требуков С.С. Организация воздушного режима многоэтажных общественных зданий: Дисс. на соиск. уч. ст. к.т.н. — М.: МИСИ, 1987.

## O‘SMIRLAR KO‘YLAGINI TIKISH TEXNOLOGIK JARAYONINI LOYIHALASH

**To‘xtayeva Zebo Sharifovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti To‘qimachilik va charm sanoat fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor,

e-mail: [zebo-7171@mail.ru](mailto:zebo-7171@mail.ru)

**Abulova Parvina Ulugbekovna**

“Munis Djins Tekstil” MChJ tikuvchisi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti magistratura bitiruvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada zamonaviy moda yo‘nalishlari asosida o‘smir bolalar kiyimlari uchun mato tanlash, ko‘ylak turlari, klassifikatsiyasi, o‘smirlar ko‘ylagini tikish texnologik jarayoni hamda o‘qimning texnologik loyihasi, oqimni dastlabki hisoblash va iqtisodiy samaradorligini aniqlash, trikotaj matosidan o‘smir bolalar sport uslubidagi ko‘ylagiga texnologik ishlov berish tartibi kabi masalalar batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mato, o‘smir bolalar, sport uslubi, o‘smirlar ko‘ylagi, texnologik jarayon, oqim, ish o‘rinlari, trikotaj mato, ishlov berish usuli.

## **DESIGN OF THE TECHNOLOGICAL PROCESS OF SEWING YOUNG SHIRTS**

**Tukhtaeva Zebo Sharifovna**

Dean of the Faculty of Textile and Leather Industry, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Abulova Parvina Ulugbekovna**

Specialist LLC "Munis Djins Tekstil", graduate of the magistracy of the Bukhara Engineering Technological Institute

### **ABSTRACT**

In this article, on the basis of modern fashion trends, the choice of fabric for teenage children's clothes, types of shirts, classification, the technological process of sewing teenage shirts and the technological design of the reading, the preliminary calculation of the flow and the determination of economic efficiency, from knitted fabric Issues such as the procedure for technological processing of teenage children's sports-style shirts are covered in detail.

**Keywords:** fabric, teenage children, sports style, teenage jacket, technological process, flow, jobs, knitted fabric, processing method.

**KIRISH.** Mamlakatimizda yengil sanoatning tikuv-trikotaj sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni jadallashtirish maqsadida yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifalaridan kelib chiqqan holda jamiyat taraqqiyotidagi burilish davri har tomonlama yetuk, chuqur bilimli kadrlar tayyorlash muammosi bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, jamiyat oldida turgan murakkab muammolar keng dunyoqarash va o'tkir tafakkurga ega bo'lgan malakali mutaxassis kadrlar tomonidan o'z yechimini topadi. Ayniqsa, texnik fanlar sohasidagi bilimlarni egallash alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu yo'lida investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarini qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan hozirda O'zbekiston davlati o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda.

Mamlakatimizning tikuvchilik va trikotaj korxonalarida ixtisoslashtirilgan korxonalar qurish, ularni yangi uskunalar bilan jihozlash yuqori sifatli tikuv buyumlari tikish imkonini beradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.**

Bugungi kunda turli sohalar kabi yengil sanoat sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bozor munosabatlariga o'tilishi bilan tikuvchilik va trikotaj sanoatiga qarashli jihozlaridan foydalanuvchi korxonalar, firmalar va maishiy xizmat uylari bilan ta'mirlash korxonalarini o'rtasidagi iqtisodiy aloqaning shunday konstruksiyalarini takomillashtirish borasida qator institutlar va loyihalash ilmiy markazlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yengil sanoat sohasidagi jihozlar va ularning mexanizmlari, jumladan, kiyimlarga texnologik ishlov berish jarayonlarini takomillashtirish va modernizatsiyalash masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'smir bolalar kiyimining formalari va modalari tobora ko'payayotganligi yosh kishilar kiyimlarining turlari hamda formalarining ko'payishi bilan chambarchas bog'liq. O'smir bolalar kiyimining asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri uning funksionalligidir. Kiyimning funksionalligi kompleks tushuncha bo'lib, kiyimning konstruktiv va estetik tavsifini, unga qo'yiladigan fiziologik, ijtimoiy va texnologik talablarini o'z ichiga oladi.

## NATIJALAR.

Hozirgi vaqtida sovuq o'tkazmaydigan material, qavilgan katta hajmli, yopishib turadigan quyidagi shakldagi kiyimlar keng tarqalgan. Ularning yelka chizig'i kengaytirilgan va yengillashtirilgan. Yenglari asosan o'tqazma bo'ladi. Koketkalari baland va kichik. Bel chizig'i tabiiy o'rnida. Bo'laklar soni – juda kam, ular maqsadga loyiq va konstruktiv xarakterda.

Quyida o'smirlar kiyimi modelning tashqi ko'ranishi tavsifiga tavsif keltirilgan. O'smir bolalar ko'y lagi. Sport uslubida tikilgan. O'smir bolalar ko'y lagi yozgi mavsumga mo'ljallangan bo'lib, yoqasi o'tqazma, qaytarmali. Trikotaj matosidan tikilgan. To'g'ri siluetli. Old bo'lak koketkali bo'lib, old detallarda qopqoqli qoplama cho'ntak joylashgan.

Old bo'lak adipi 6 ta tugma va 6 ta izmaga taqilgan. Ko'ylak yengi o'tqazma, kalta yengli. Ko'ylakning yoqasi va yenglari chetlari bo'lab sidirg'a tasma tikilgan bo'lib, bezak elementi sifatida qo'llanilgan. Qoplama cho'ntaklarda ham cho'ntak og'zi bo'lab shunday bezaklar tikilgan. Mazkur ko'ylakni kundalik kiyim sifatida sport uslubidagi shimlar bilan kiyish tavsiya etiladi.

Bichishdan oldin paxta va ipak tolali gazlamalar namlanadi va quritiladi, lekin quritib yubormasdan, ipning bo'y yo'nalishida dazmullanadi. Bichilgan, tayyorlangan gazlamani stolga joylashtiriladi. Yakka tartibdagi kiyimlarni tikishda ko'proq gazlamani buklab, o'ng tarafni ichkariga qo'yiladi. Andozalar bu holda yarim bo'laklarni bajaradi. Gazlamani eni 60-70 sm bo'lsa yoki murakkab rasmli bo'lsa, gazlamani ochib joylashtiriladi. Bu holda andoza sifati bo'laklar soniga to'g'ri kelishi kerak. Gazlamaga andoza joylashtirilganda, ipning bo'yi (tanda ipi) yo'nalishiga va gazlamadagi rasmga ahamiyat berish kerak. Bo'y yo'nalishi andozaning asosiy bo'laklarida yo'nalishni ipning bo'yiga joylashtiriladi, chunki eniga bichilsa, bo'laklar cho'zilib ketadi. Hamma andoza bo'laklarda «Bo'ylama ip» deb belgilanadi, agar ziyi kesilgan bo'lsa ip bo'yi cho'zilmaydi, shundan ip bo'yi yo'nalishini belgilaydi.

Andazani gazlamaga joylashtirish yirik bo'laklardan (ort bo'lak, old bo'lak, yeng, yubka old va ort bo'lagi). Barcha mayda andaza bo'laklari yirik bo'laklarning oralig'iga joyylanadi, bunda andazaning bo'ylama ip yo'nalishi gazlamaning bo'ylama ip yo'nalishi bilan mos tushishi kerak.

Tayyor ko'ylak bo'laklarining andazasi gazlamaga to'g'nog'ichlar yordamida qadaladi. Konturlari bo'ylab o'tkir charxlangan bo'r yoki quruq sovun bo'lagi bilan chiziladi. Bunda avval uzun chiziqlar so'ngra kalta to'g'ri va egri chiziqlar, burchaklar, belgilangan holda chiziladi. Chok uchun qo'shimcha miqdori aniqlab olingach, ikkinchi bo'rlama chiziqlar chiziladi. So'ngra andazalar yechib olinadi. Gazlama ikkinchi bo'rangan chiziq bo'lab kesiladi.

Zamonaviy o'smir bolalar ko'ylagi oddiy, kiyishga qulay, yengil, tez-tez yuvishga mos, dazmol qilishga qulay bo'lishi kerak. Ko'yakni tikishda arzon matodan, arzon bezak beykalaridan, furnituralardan, applikatsiyadan, kashtachoklardan, turli bahyaqatorlardan foydalanilgan holda tikiladi. Ko'yakni tikish jarayoni ikki bosqichda olib boriladi. 1-bosqichda mayda bo'laklarni tayyorlab olinadi. 2-bosqichda bo'laklar yig'iladi.

Gazlamalar rangi – ochiq rangda katak yoki yo'l-yo'l gulli qilib tanlanadi. Bunday ko'yaklar paxta tolali, zig'ir, jun, shoyi va sun'iy tolali matolardan tikiladi.

Romantik uslubdagi ko'yaklar shakli va bichimi bo'yicha har xil bo'ladi. Bunday ko'yaklar o'ziga xos va original (noyob) ligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, bunday ko'yaklarda bezak beruvchi furnituralar, taxlamalar ko'p ishlatiladi. Ko'yaklar turli ranglardagi sidirg'a gazlamalardan; oq, sariq, havo rang, yashil va kul rangda tikilishi mumkin.

Har kuni kiyish uchun mo'ljallangan ko'yaklar aniq proporsiyali, bosiq rangli, uzun va kalta yengli bo'lishi mumkin. Yoqalar bichimi va shakli bo'yicha turli-tuman bo'ladi. Kundalik ko'yak uchun tanlangan gazlama mavsumiga qarab qalin yoki yupqa, lekin, albatta, kam g'ijimlanuvchan va oson yuviladigan bo'lishi shart.

Tantanali marosimlar uchun mo'ljallangan ko'yaklar chiroyli, bashang gazlamadan va bezak bo'laklar bilan (taxlama va kashta, bezak baxyaqator) bezatilgan qilib tikiladi. Tantanali marosimlar uchun mo'ljallangan ko'yaklar yana muayyan maqsadlarda ishlatilishiga qarab ham turlarga bo'linishi mumkin.

Yozgi ko'yaklar uchun asosan ip, zig'ir, shoyi gazlamalar, qish mavsumi uchun issiq gazlamalar jun, velvet va paxmoq, kuz va bahor fasllari uchun esa aralash tolali, sun'iy gazlamalar tanlash tavsiya etiladi.

Ko'yaklar vazifasiga ko'ra – uyga, ko'chaga, bayramda kiyiladigan ko'yaklarga bo'linadi.

Materiallarning qalnligi qancha katta bo'lsa, issiqni saqlash xususiyati ham shuncha yaxshi bo'ladi. Shu sababli issiqni saqlaydigan kiyimlar ko'p qavatlari qilib tikiladi. Agar materiallarning zichligi kam bo'lsa, havo o'tkazuvchanligi oshadi, issiqni saqlash xususiyatlari esa yomonlashadi.

Ko'yak uchun tavsiya etiladigan gazlamalarning quyidagi xususiyatlariga ega bo'lish talab etiladi:

- materiallarning shimish qobiliyatiga bog'liq xususiyatlar;
- materiallarning havo o'tkazuvchanligi;
- materialning suv o'tishiga qarshiligi;
- materialning issiqlik saqlash xususiyatlari;
- materiallarning kirishishi;
- materiallarning ishqalanishga chidamliligi.

Materiallarning kirishishini kamaytirish uchun tolalar tarkibiga namni kam shimadigan tolalar qo'shiladi, kengaytirish, bug'lash, maxsus kirishtirish mashinalarida ishlov berish, kirishmaydigan yoki kam kirishadigan qilib maxsus pardozlash usullari qo'llaniladi. Bifleks matosining artikuli 13366, eni 135 sm, ipning tanda bo'yicha zichligi 16,8-14,8 teks, ipning arqoq bo'yicha zichligi 10,8-11,2 teks, tarkibi 65% paxta, 35% poliesterdan iborat. Shuningdek, "bayka" va "sadaf" gazlamalarini ham muchal yoshidagi o'smir bolalar ko'ylaksi uchun tavsiya qilish mumkin.

### MUHOKAMA.

O'smir bolalar kiyimining formalari va modalari tobora ko'payotganligi katta yoshdagagi kishilar kiyimlarining turlari hamda formalari ko'payishi bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi o'smir bolalar kiyimining asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri uning funksionalligidir. Kiyimning funksionalligi kompleks tushuncha bo'lib, kiyimning konstruktiv va estetik tasnifini, unga qo'yiladigan fiziologik, ijtimoiy va texnologik talablarini o'z ichiga oladi.

Kiyimga ishlov berish usulini tanlashda tikuvchilik ishlab chiqarish texnika va texnologiyasini kelajakda mukammalashtirishning asosiy yo'nalishlari e'tiborga olindi. Bunda yuqori unumli jihozlar, kichik mexanizatsiya vositalari tanlandi. Tanlangan ishlov berish usuli va jihozlardan ularash turlarini, ularning bajarish rejimlari, namlab-isitib ishlov berish operatsiyalarining rejimlari tanlandi. Ma'lumotlar quyidagi jadvallarga kiritildi.

Trikotaj matosidan o'smir bolalar sport uslubidagi ko'ylagiga texnologik ishlov berish tartibini tuzishda trikotaj matosidan o'smir bolalar sport uslubidagi ko'ylagiga ishlov berish usullari va jihozlarni tanlash muhim texnik va texnologik jarayonlarni hal qilishga xizmat qiladi. O'smir bolalar ko'ylagini yengi – o'miziga o'tqazib tikiladigan yoki reglan bichimli yeng bo'ladi, hammasi o'rtadan tugmalanadi, ya'ni ko'ylak bir bortli yoki kapyushonli, cho'ntakli va belbandli bo'lishi mumkin.

Kundalik kiyim turli uslubdagi formalari bilan xarakterlanadi. Ko'proq to'g'ri bichimli tikilishi uning yeng o'miziga o'tqazib tikiladigan, reglan bichimli yoki kombinatsiyalashtirilgan bo'lishi mumkin, cho'ntaklar turli bo'lishi mumkin.

O'smir bolalar modasida yangilik, birinchi navbatda, yangi turdag'i kiyim assortimentlarini ko'payishidir. O'smir bolalar kiyimini asosiy yo'nalishlaridan biri – kiyimning kombinatsiyalashtirilgan formasini hosil qilish bilan birga, ayrim buyumlarning o'zaro almashuvchanligiga erishishdir.

Hozirgi kunda o'smir bolalar kiyimining yetakchi va asosiy bichimi to'g'ri bichimli kiyimdir, to'g'ri bichimning variantlari juda ko'p. O'smir bolalarning keng

tarqalgan kiyimi formasining to‘kisligi bilan ajralib turadi. Kiyimning belga yopishib turish darajasi assortment gruppalariga bog‘liq.

Ularning yelka chizig‘i kengaytirilgan va yengillashtirilgan. Yengi o‘mizga o‘tqazib tikiladigan kiyimning o‘mizi pasaytirilgan va chuqurlashtirilgan. Koketkalari baland va kichik. Bel chizig‘i tabiiy o‘rnida. Bo‘laklar soni – juda kam, ular maqsadga muvofiq va konstruktiv xarakterda. Hozir kiyimni qavib tikish usulidan tobora kamroq foydalanilmoqda, bu usul qo‘llanilgan hollarda kiyim faqat bir yo‘nalishda – vertikal yoki gorizontal yo‘nalishda qaviladi.

O‘smir bolalarning kiyimlari uchun oqim texnologik sxemasini tuzishda oqimning dastlabki hisobini bajarish kerak. Texnologik oqimning hisoblash uchun asosiy parametrlardan biri berilishi lozim.

Asosiy parametrarga qo‘yidagilar kiradi:

- oqimning quvvati;
- ishchilar soni;
- oqim yoki sex maydoni;
- oqim uzunligi.

Texnologik oqimning dastlabki hisobini bajarishdan maqsad, kattalashtirilgan ko‘rsatkichlarga asoslanib hisob-kitoblarni bajarmasdan oqim quvvatini, ishchilar sonini, oqim uzunligi, sex maydoni va sexda oqimlarni taxminan joylashtirishdan iborat.

Loyihalanadigan oqimning asosiy parametrariga quyidagilar kiradi:

$K_{oq}$  – smenada oqim quvvati yoki sex quvvati, dona/sm;

$N$  – ishchilar soni – bir buyumni ishlab chiqarish uchun ratsional ishchilar soni;

$S$  – tikuv sex maydoni, m;

$L_{o.uz.}$  – oqim uzunligi, m.

Ko‘rsatilgan to‘rt parametrlardan biri dastlabki hisob uchun beriladi.

Loyihalanadigan oqimning qo‘srimcha parametriga quyidagilar kiradi:

$BC_{buyum}$  – bir buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi, sek;

$R_{sm}$  – smena davomiyligi, sek;

$N_{tip}$  – bir ishchiga ajratilgan tipik maydon normasi;

$l_{i.q.}$  – ish qadami (o‘tirib ishlaganda – 1,35 m, tik ishlaganda 1,50 m).

Talabaga vazifa berilgandan keyin, u texnologik jarayonni hisoblashga kirishadi.

Birinchidan, u oqimning taktini hisoblashi lozim.

Oqimning quvvati – bu bir buyumni smena davomida ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt yoki bir buyumni tikish uchun sarflangan vaqt.

a) agar oqim quvvati berilgan bo‘lsa, oqim takti quyidagicha aniqlanadi:

$$\tau = \frac{R_{cm}}{K_{ok}} = \frac{29520}{579} = 51; cm / \text{дана}$$

bunda:  $R_{sm}$  – smena davomiyligi, sek;

$K_{ok}$  – berilgan oqim quvvati, dona;

b) agar oqimdagи ishchilar soni berilgan bo‘lsa:

$$N(uuichu) = \frac{T_{\text{бюом}}}{\tau} \cdot \frac{1815}{51} = 35,6$$

bunda:  $T_{buyum}$  – buyumni ishlab chiqarishga vaqt sarfi.

Buyumni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiyligi vaqt “Texnologik ketma-ketlik” jadvalidan olinadi.

v) agarda oqim uzunligi berilgan bo‘lsa,

$$L_{o.uz.} = L_{i/o.r.} \cdot K_{o.rt} \cdot N_{ish}, m.$$

bu yerda:  $L_{i/o.r.}$  – ish o‘rni qadami, m.

Ish o‘rni qadami assortimentga asoslanib, 1-ilovadan olinadi.

g) agarda tikuv sex maydoni berilgan bo‘lsa,

$$S_{t.s.} = N_{ish} \cdot N_{tip} \cdot K_{o.rt} \cdot n, kv.m.$$

bunda:

$N_{tip.}$  – bitta ishchiga ajratilgan tipik (sanitar) maydon normasi;

$n$  – tikuv sexi oqimlar soni (3-6 ga)

Texnologik jihatdan bo‘linmaydigan operatsiyalarning davom etish vaqtini turlicha bo‘lgani uchun ularning vaqtлari yig‘indisini taktga teng yoki karrali qilib tanlab olish har doim bo‘lavermaydi. Agregat – guruh oqimlar uchun sarflanadigan vaqt  $\pm 10\%$ ,  $\pm 15\%$  farq bilan hisoblanadi.

Ana shunga asosan operatsiyalar vaqtini moslash sharti quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\begin{aligned} t_0 &= (0,95 : 1,15) \cdot t \cdot k, sek \\ \sum t_{ish} &= (0,90 \div 1,15) \cdot 51 \cdot 1 = (46 \div 59), sek \\ \sum t_{ish} &= (0,90 \div 1,15) \cdot 51 \cdot 2 = (92 \div 118), sek \\ \sum t_{ish} &= (0,90 \div 1,15) \cdot 51 \cdot 3 = (138 \div 176), sek \end{aligned}$$

bu yerda:

$t_0$  - tashkiliy operatsiyalarga sarflanadigan vaqt, S;

$\tau$  – oqimning takti, S;

$k$  – operatsiyani bajaradigan ishchilar soni, kishi.

Moslama shartlari oqim turiga asoslangan holda olinadi va ularni hisoblagandan keyin tashkiliy texnologik sxemani tuzish uchun bo‘linmas operatsiyalardan tashkiliy operatsiyalarni tuzadilar.

Iqtisodiy samaradorlik va uning asosiy omillari loyihalanayotgan mahsulotni ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikning yuksaltirilishi haqida quyidagi tavsifnomalari beriladi:

- bichish sifatini yaxshilash;
- yangi texnologik konstruksiyasini qo'llash;
- yangi jihozlarni qo'llash.

Loyihalanadigan texnologik oqimning iqtisodiy samaradorigini hisoblash uchun fabrikadagi ko'rsatkichlarga e'tibor berish kerak. Iqtisodiy samaradorlik buyum ishlab chiqarish texnologik ketma-ketligi asosida hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga SVPF – sarflangan vaqt pasayish foizi va MUUF – mehnat unumdorligining oshirilishi foizi kiradi.

Yangi texnologik yoki yangi texnologik konstruksiya joriy etilganda, iqtisodiy samaradorlik quyidagi formula orqali topiladi:

$$SPVF = \frac{T_{xapak} - T_{loyihha}}{T_{xapak}} \cdot 100, \%$$

$$MUUF = \frac{T_{fabrikada} - T_{loyihha}}{T_{loyihha}} \cdot 100, \%$$

bu yerda:

$T_{fabrikada}$  – fabrikadagi sarflangan vaqt, sek;

$T_{loyihha}$  – loyihalanadigan buyumga sarflangan vaqt.

Tugun va kiyimidagi solishtirma ish hajmi orqali har bir kiyimning SPVF va MUUFi qayta hisoblanadi.

$$\gamma = \frac{T_{tugun}}{BC_{buyum}}$$

Buyumni hisoblagandan keyin umumiylar buyumning SVPF va MUUF quyidagi formulalar orqali topiladi:

$$SVPF_{buyum} = SVPF_{tugun} \cdot \gamma, \%$$

$$MUUF_{buyum} = MUUF_{tugun} \cdot \gamma, \%$$

Oqimning texnologik sxemasi oqimda mehnatni taqsimlash sxemasi deb ham kiritiladi. U texnologik jarayonning asosiy texnik hujjati bo'lib hisoblanadi. Texnologik sxema oqim turiga qarab tuziladi. Oqimlar bir yoki ko'p modelli berilishi mumkin. Texnologik sxemaga binoan ish o'rinnari, jihozlar, ishchilar joy-joyiga qo'yiladi, ishlov berish normasi va ishchilar maoshi hisoblanadi.

Trikotaj matosidan o'smir bolalar sport uslubidagi ko'ylagini ishlab chiqaradigan texnologik sxemasini tahlil qilamiz. Texnologik sxema hisoblangandan keyin, oqimdagи tashkiliy operatsiyalarni tuzishining shartlariga qanchalik rioya qilganligini teshkirib ko'rish zarur.

Loyihalanadigan texnologik oqimning texnologik sxemasining (tashkiliy-texnologik tuzilishini) to'g'ri yoki noto'g'ri tuzilganini ikki usul orqali tekshirish mumkin: analitik va grafik usullari bilan.

Analitik (hisoblash) usuli – yuklama koeffitsentini aniqlash. Oqimning yuklama koeffitsenti quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$K_{yukl.} = \frac{VS_{buyum}}{N_{his} \cdot \tau} = \frac{1815}{35,6 \cdot 50} = 0,99$$

$$\text{yoki } K_{yukl.} = \frac{N_{his.}}{N_{haq}} = \frac{35,6}{36} = 0,99$$

bu yerda: **VS<sub>buyum</sub>** – buyumni tikish uchun sarflangan vaqt, sek.

**N<sub>his</sub>** – ishchilar soni, ishchi

**τ** – oqim takti, sek

**N<sub>haq</sub>**. - oqimdagи haqiqiy ishchilar soni, ishchi yuklama koeffisiyenti quyidagiga teng bo‘lishi kerak:

$$K_{yukl} = 0,98 - 1,02$$

Ya’ni, mehnat bilan ta’minkangan orasida 1 – 2 % vaqt yo‘qotilishiga ruxsat beriladi. Shu maqsadda operatsiyalarning takt bilan taqqoslangan holda grafik usullaridan foydalanib tekshirildi. Bu grafiklar – sinxron (kelishuv) va biriktirish grafiklaridir.

## XULOSA.

Trikotaj matosidan o‘smir bolalar sport uslubidagi ko‘ylagi ishlab chiqaradigan oqimdagи ish o‘rinlarini joylashtirish jarayonini ko‘rib o‘tdik.

Tikuvchilik korxonalarida ishlab chiqarish shunday tashkil qilinadiki, ishlab chiqarish jarayoni davomida materiallar, detallar, tayyor buyumlar, chala mahsulot beto‘xtov harakatda bo‘ladi. Bu operatsiyalarni bajarish uchun turli xil transport vositalari qo‘llaniladi. Tikuv sexlarida asosan ichki transport vositalari qo‘llaniladi. Sex ichidagi transport vositalari tikilayotgan buyum detollarini yoki buyumlarini texnologik jarayonda uzluksiz ish olib borishda bir ish o‘rnidan ikkinchi ish o‘rniga yetkazish uchun xizmat qiladi. Tikuv oqimlarida ishning samaradorligi ko‘p jihatdan transport vositalariga bog‘liq. Shuning uchun oqimni joylashtirganda va tashkil etganda ularni to‘g‘ri tanlab olish kerak, chunki ichki transport vositalari sex chegarasida, uning bo‘limlar orasida va vaqtincha saqlash joylarida, chala fabrikatlarni bir ish o‘rnidan ikkinchi ish o‘ringa uzatishga mo‘ljallangan.

Tikuv sexlarida pachkalarni va chala fabrikatlarni tashishi va uzatishda yuritmasiz (statsionar) vositalar keng tarqalgan, bu vositalar buyumlarini tikish

jarayonida detallarni va tugunlarni tor ixtisoslangan bo‘limlarga, shuningdek, ish o‘rinlari alohida guruqlar tarzida joylashtirilgan oqimlarga ishlataladi.

Tanlangan model asosida matoning xususiyati, ishlov berish usullari va jihozlari, namlab issiqlik ishlovi berish uskunalarini inobatga olib, ko‘ylakni ishlab chiqaradigan texnologik jarayonni loyihalab, sinxron va montaj grafiklari, sex rejasi loyihalanadi.

## REFERENCES

1. Kamilova, X. & Xamrayeva, N. (2003) Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash. T.: Moliya. – B. 85-86 .
2. Israilova, B. & Asadullayeva, M. (2009) Tikuv buyumlariga ishlov berish texnologik taritibi to‘plami T.: TTESI.
3. Tukhtaeva, Z.Sh. Integration of special subjects in higher education. International Engineering Journal For Research & Development. Vol.5, Issue 3, April 2020. - Page 125-131.
4. Sharifovna, T.Z. & Bakhriniso, T. Modernization of higher education by solving integration problems.
5. Туракулова, Б.Б. Создание и внедрение в практику объектно-ориентированных систем автоматизированного проектирования швейных изделий. Молодой ученый, 2016. (11), 505-507.
6. [www.legprominfo.ru](http://www.legprominfo.ru)
7. [www.fatex.ru](http://www.fatex.ru)
8. [www.textil-press.ru](http://www.textil-press.ru)
9. [www.vzerkale.ru](http://www.vzerkale.ru)

УДК 631.372

## ГИДРАВЛИЧЕСКИЙ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ МЕХАНИЗМ ПОВОРОТА ТРАКТОРА

проф. А.А.Шермухамедов

Ташкентский государственный транспортный университет  
(Ташкент, Узбекистан)

ассистент С.Р.Шадиев

Ташкентский государственный транспортный университет  
(Ташкент, Узбекистан)

катта ўқитувчи Х.Ж.Жуманиязов

Тошкент давлат транспорт университети

**Аннотация:** В статье рассматривается гидравлический дифференциальный механизм поворота для активизации заднего моста при повороте трактора. Гидравлическим дифференциальным механизмом поворота совместно с гидравлическим рулевым управлением обеспечивает поворот передних и задних колес с минимальным радиусом поворота трактора.

